

S.I.KAMBAROVA

MUSTAQIL MUTOLAA VA ADABIY TAHLIL

TOSHKENT

UO'K: 028:372.41

KBK 83.7

0

0 S.I. Kambarova. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil.
–T.: «Fan va texnologiya», 2016, 140 bet.

~~9943-4647-5-9~~

ografiyada o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, o'qish asosida egallangan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ayyan adabiy-nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o'rin amonaviy pedagogik texnologiya va ta'lim metodlarining samarali itiladi.

un oliy o'quv yurtlari filologik ta'lim yo'nalishi bakalavriat va a bosqichlari talabalari, mustaqil izlanuvchilar, umumiy o'rta ta'lim adabiyot o'qituvchilari sinfdan tashqari o'qish va fakultativ larini tashkil etishda, badiiy asarlar tahlilida foydalanishlari mumkin.

UO'K: 028:372.41

KBK 83.7

Mas'ul muharrir:

atchonov – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Niyozmetova – pedagogika fanlari doktori, professor;

Jabborov – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, professor;

Shodmonova – Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogik qayta tayyorlash kurs rahbari, pedagogika fanlari doktori, professor;

Yuldasheva – pedagogika fanlari nomzodi.

*miy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy
ting 2015-yil 18-iyun 9-sonli yig'ilish qaroriga asosan nashr*

~~9943-4647-5-9~~

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.

KIRISH

Bugungi kunda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llay olish layoqatlarini shakllantirish ta'limning eng dolzarb masalalari sifatida e'tirof etilmoqda. Bu borada kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va o'quv dasturlari tajriba-sinovdan o'tkazilmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS maqsadi shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarni egallangan bilim, ko'nikma va malakalardan hayotda uchrashi mumkin bo'lgan turli vaziyatlarda foydalanishga tayyorlashi bilan ahamiyatlidir.

"Kompetentlik (lotincha "competens" – "layoqatli", "qobiliyatli") deganda shaxs bilim, ko'nikma va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqei va o'ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi"¹ tushunilishi bejiz emas.

"Kompetensiya" va "kompetentlik" muammolari Edingburg universitetining professori J.Raven tomonidan maxsus o'rganilgan tushuncha sifatida aniq predmet atrofidagi harakatni samarali boshqarish uchun zarur hisoblangan va tor doiradagi bilimlarni o'zida mujassam etuvchi malaka va tafakkur tarzi, muayyan xatti-harakatlarga jiddiy yondashish qobiliyati, deya ta'riflanadi.

D.A.Maxotina, Yu.V.Frolova, V.V.Ryabova, B.A.Nazarova, S.Yu.Maxmudov kabi yetakchi rus olimlari izlanishlarida mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyati va xususiyatlari haqida atroflicha fikr-mulohazalar yuritiladi. Ularning e'tirof etishlaricha va kuzatishlarimizga qaraganda, "kompetensiya" shaxs tomonidan mukammal o'zlashtirgan predmet sanaladi va u tanlagan sohada faoliyat yuritish uchun tayyorgarlik mezonini vazifasini bajarsa, "kompetentlik" undan farqli ravishda shaxsning yo'naltirilgan tasnifi, bitiruvchining ma'lum sohada faoliyat yuritishi uchun shakllantirilgan ko'nikmani anglatadi.

O'quvchilarda muayyan sifatlarni kamol toptirish uchun o'qituvchining o'zidan ham umumkasbiy kompetensiyalarga ega bo'lish talab etiladi. Olimlar fan o'qituvchilari maxsus yo'nalishdagi, ijtimoiy, shaxsiy va individual kompetentlikni to'liq o'zlashtirgan holdagina kompetentli pedagog sanalishini qayd etadilar.

¹ Асадов Й.М. Таълимда компетенциявий ёндашув. // "Maktab va hayot". – Toshkent: 2014. № 1. – Б. 8.

oʻnggi yillarda kasbiy kompetentlik muammosi psixolog olimlar: limov, A.K.Markova, L.M.Mitina, Yu.P.Povarenkov hamda ajnikovlar tomonidan psixologiya fanining predmeti sifatida ilinganini kuzatish mumkin.

ustaqillik yillarida mamlakatimizda ham kompetentlik muam- yoritilgan qator tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Bevosita a soha mutaxassisiga xos bunday jihatlarni professor N.A.Mus- individning, umuman jamiyatda va xususan kasbiy sohasida qiyatli faoliyat olib borishi uchun zarur boʻlgan, atrofidagi r va subyektlar bilan oʻzaro hamkorligi boʻyicha maʼlum bir ari va kasbiy tajribalari shakllanganligining muayyan darajasi”¹ aholaydi.

qituvchi kompetensiyasi, asosan, oʻz-oʻzini anglashi; milliy va soniy qadriyatlarni egallashi; oʻquv va bilish jarayoni; tga ega boʻlishi; muloqot madaniyati; ijtimoiy-foydali mehnat ugʻullanishi; oʻz ustida tinimsiz ishlashida namoyon boʻladi. kasbiy qadriyat, bilim va tushuncha, koʻnikma va malaka kompetensiyasi modelini yaratishga asos boʻladi.

nbalarda oʻquvchilarning shaxs sifatida shakllanishi va jami- zining munosib oʻrnini topishida kommunikativ, axborot bilan oʻqish-oʻrganish, mustahkam eʼtiqodga ega boʻlish, ijtimoiy umummadaniy hamda oʻz-oʻzini shaxsiy rivojlantirish kabi kompetensiyalar²asosiy koʻrsatkich hisoblanishi taʼkidlanadi.

bir oʻquv fani mazmunidan kelib chiquvchi kompetensiyalar an boʻlib, adabiy taʼlimda badiiy asarni oʻqish, tushunish, ish, tahlil qilish (analiz-sintez) kabi xususiy kompetensiyalar mumiy (tayanch) kompetentlikning estetik, kommunikativ, , nutqiy, lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik, mustaqil va rlash kabi yetakchi kompetensiyalari integratsiyalashgan holda di.

etik kompetensiya maqsadi oʻquvchilarda badiiy soʻz qudrati k tanaga jon bagʻishlashi (Alisher Navoiy), asar jozibasi va , goʻzal tuygʻular, eng nozik sezimlarni qalban his qila shaxslarni kamol toptirishga qaratilgan.

im oluvchilarning oʻzgalar bilan munosabatga kirishish, madaniyatini egallash, ular mehrini qozonishga intilish

1.A., Абдуллаева Қ.М., Гайлов Н.С. Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетенцияларини технологияси. –Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – Б. 10.

2.Аянч компетенцияларни шакллантириш. // “Umumtaʼlim fanlari metodikasi”. – Тошкент: 2014.

sifatlarini shakllantirish *kommunikativ kompetensiyaga* xos xususiyat hisoblanadi.

Kreativlik kompetensiyasi o'quvchilarda o'z ishiga ijodiy yondashish, muammoli vaziyatlarga yechim topa olish, mustaqil qarorlar qabul qilish malakalarini rivojlantirishni ko'zda tutadi va hokazo.

Ushbu monografiya adabiy ta'limga doir xususiy va umumiy kompetentlikning mustaqil mutolaa, sinfdan tashqari o'qish hamda badiiy tahlil usullari misolidagi tadqiqiga bag'ishlanadi.

I bob. ADABIY TA'LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA DOIR TAHLIL USULLARI

I.1. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil

nggi yillarda umumiy pedagogikaga oid tadqiqot ishlarida larda mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirishning pedaxologik, ilmiy, amaliy xususiyatlariga doir kompetensiyaviy iv ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta'minlashning omili sifatida tadqiq qilinadi. Negaki, bilim olishning asosiy lgan mutolaa jarayonlarini takomillashtirish jamiyatning umuqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishida r vazifasini o'taydi, uni sifat jihatidan yangi bosqichlarga da muhim ahamiyat kasb etadi.

adbiyotdan Davlat ta'lim standartida ta'lim oluvchilar "...badiiy mtsional tarzda idrok etish va qabul qilishni, obrazli va tafakkur va ijodiy fikrlashni, kitobxonlik madaniyatini, ring boshqa san'at asarlari bilan yaqin va farqli jihatlari tasavvurlarini, ularning og'zaki va yozma nutqlarini rivoj- l kabi minimum talablarning qo'yilishi fanga oid kompe- rni egallash zaruriyatini taqozo etadi.

ir mutolaasi muammosi kecha yoki bugun o'rtaga tushayotgani u Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf ib, Husayn Voiz Koshifiy, Alisher Navoiy, Munis, Ogahiy, lik Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Hamza da Niyoziy asarlarida "o'qish, o'qiganni uqish hamda unga ish" inson ma'naviy kamoloti bilan bog'liq mutolaaning tub ni tashkil etishi qayta-qayta tilga olinishi bejiz emas.

tolaa madaniyatini shakllantirish adabiy ta'limda dolzarb ilmiy lardan biri sanalar ekan, avvalo, o'quvchi qalbida eng nozik , estetik didni yuksaltirish, go'zal fazilatlarini qaror toptirish, ek, yozuvchi mahorati, u yashagan davr, ijtimoiy muhit materiallar, asar poetikasi, bir so'z bilan aytganda, badiiyat

lgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili. (5-9-sinflar) –Toshkent: ligraph service", 2010. – B. 45.

olami sinoatlarini o'zlashtirishni ta'minlaydigan ish usullariga ehtiyoj sezilaveradi.

Bu borada o'tgan asrning 50-70-yillarida rossiyalik L.V.Blagonadejdina, O.I.Nikiforova, N.D.Moldavskaya, L.G.Jabitskaya, M.D.Pushkareva, L.N.Rojina, O.Yu.Bogdanova, V.G.Maransman, N.A.Bodrova, L.T.Panteleyeva, V.P.Poluxina kabi psixolog va metodistlar tomonidan qator izlanishlar amalga oshirildi.

O'qish muammosining nazariy va amaliy asoslari yoritilgan manbalarda, jumladan, O.Yu.Bogdanova, S.A.Leonov, V.F.Chertovlarning "Методика преподавания литературы" darsligida rus va xorij klassiklari asarlarini zamonaviy adabiyot bilan uyg'un holda; mavzuviy xilma-xillik; janriy xususiyatiga mufoviq o'rganish; sinfdan tashqari o'qish turlari (suhbat, obzor, kompozitsiya, konsert, seminar, viktorina, ekskursiya, bahs-munozara, konsultatsiya)ni almashtirgan holda tashkil etish; o'quvchilarning mustaqil kitobxonligini faollashtirish usullarini inobatga olish; uzviylik hamda kitob bilan ishlash ko'nikmalarini izchil egallash muhimligiga urg'u beriladi¹.

Fransuz ma'rifatparvar adibi Deni Didro: "Odamlar o'qishdan to'xtashlari bilan fikrlashdan ham to'xtaydilar" deya mutolaaga, ayniqsa, yuksak baho bergan edi. Shuning uchun ham S.Dolimov, Q.Ahmedov, A.Zunnunov, S.Ismatov, K.Qosimova, Yu.Sultonov, F.Badriyev kabi keksa avlod vakillaridan tortib O.Madayev, T.Niyazmetova, M.Mirqosimova, Q.Yo'ldoshev, S.Matchonov, B.To'xliyev, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, F.Qodirova, B.Makulova singari kenja avlod metodist olimlarigacha mustaqil mutolaa muammosiga adabiy ta'limning asar mazmunini o'zlashtirish, badiiy-estetik tarbiya, adabiy tahlil ko'mikmalarini shakllantirish, nutq o'stirish masalalari doirasida turli jihatdan yondashadilar.

Rus olimlaridan N.M.Gerdzey-Kapitsa, M.A.Saltikova, A.M.Lebdev, K.V.Malseva, A.G.Serdseva, S.L.Abramovich, N.L.Kagin, T.D.Polozova, M.A.Snejnevskaya, N.N.Svetlovskaya, R.A.Dekusheva, O.V.Djejeley, Ya.G.Nesturx, I.I.Chernova, I.S.Zabarskiy, I.Motyashv, S.N.Savina, G.I.Makrouchevalar esa muammoni yanada konkretlashtirib, asosan, sinfdan tashqari o'qish bilan bog'lab talqin qilishgan.

¹ Богданова О.Ю., Леонов С.А., Чертов В.Ф. Методика преподавания литературы. Под редакцией О.Ю. Богдановой. Учебник для студентов пед. вузов. – Москва: Издательский центр "Академия", 3-е издание, стереотипное, 2004. ст. – 396-397

staqil mutolaa muammosini M.Mirqosimova o'quvchilarda
ahlil malakasini shakllantirish usullari tizimi¹ misolida tadqiq
o'lsa, S.Matchonov adabiyotdan mustaqil ishlarning asosi²,
boyeva o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish usullari³
arzida talqin qiladilar.

fessor R.Niyozmetova doktorlik dissertatsiyasida mutolaa
i "o'quvchilarda o'qishga bo'lgan ehtiyojni, havasni, qiziqishni
shi va shakllantirishi hamda ularni o'qilganlar yuzasidan
nuallif bu yerda ko'targan asosiy muammolarni anglab yetish,
talay hayotiy muhim savollarga javob izlash malakalarini hosil
ak"⁴ligini nazarda tutadi.

dan tashqari, so'nggi yillarda mustaqil mutolaa muammosi
i D.G'aniyeva kutubxonashunoslik, S.Chiniyeva oila kitob-
A.Umarov jamiyat taraqqiyoti va komil inson tarbiyasi nuqtayi
ilmiy tadqiqot ishlari olib borishdi.

liiy asarni o'qish kompetensiyasi. Oquvchilarning o'qish
ni o'zlashtirish, matnni to'g'ri, tez va ifodali o'qish bilim,
va malakalarini egallashlari shartligi boshlang'ich⁵ va 5-9-
labiy ta'lim Davlat ta'lim standarti⁶da majburiy minimal
n qilib belgilangan.

ungi kunda o'qish kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat
o'rta, balki uzluksiz ta'limning barcha turlarida e'tibor
muhim bo'lgan masalalardan hisoblanadi. Zero, badiiy asar
i teran idrok etish uni tushunib, ongli o'qishga har tomonlama
o'lib, natijada o'quvchilarda jamiyatdagi o'zaro munosabatlar,
uch kelish mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish xususida
fikir yuritish va xulosalar chiqarish imkoniyati yuzaga

sh san'ati, matn mazmuni, o'zgalar nutqini eshitish va anglash
shaxsiy fikr-mulohazalarini bayon etish mahorati bo'yicha

a M.M. Uquvchilarda adabiy ta'lim malakasini shakllantirish va takomillantirish
fan. dok. diss... – Toshkent: 1995.

Uquvchilarni mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped. fan. dok. diss...
i.

Q.P. Adabiy ta'lim jaraenida uquvchilarni mustaqil fikrlashga urgatiashning ilmiy-
ri. Ped. fan. dok. diss... – Toshkent: 2006.

X. Uzluksiz ta'lim tizimida uzbek adabietini urganiashning nazariy va metodik asoslari
misolida). Ped. fan. dok. diss... – Toshkent: 2007 – 184-b.

an davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. O'qish. Matematika. Atrofimizdagi olam.
(1-4-sinlar). – Toshkent: "Yangiyo'l poligraph service", 2010. – 44-46-b.

an Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5-9-sinlar). – Toshkent:
raph service", 2010. – 11, 42-43-b.

boshlang'ich va yuqori sinflar adabiy ta'limida aniq talablar hamda muayyan tafovutlar mavjud.

Boshlang'ich ta'limda savod o'rgatish jarayoni elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanishi yaxshi ma'lum. Agar 1-4-sinflarda o'qish texnikasi miqdoriy ko'rsatkichi bir daqiqada 1-sinfda 25-30, 2-sinfda 40-50, 3-sinfda 60-70, 4-sinfda 80-90 so'zni tashkil etsa, yuqori sinflarda bu natija 200 tadan ortishi ko'zda tutilgan¹. Jumladan:

No	Sinflar kesimida	Notanish matnni daqiqasiga ovoz chiqarib o'qish	Notanish matnni daqiqasiga ovoz chiqarmay o'qish	Dasturda tavsiya etilgan matnni yod olish
1	5-sinfda	105-110 so'z	150-170 so'z	6-7 ta
2	6-sinfda	105-115 so'z	170-180 so'z	7-8 ta
3	7-sinfda	110-120 so'z	109-200 so'z	8-9 ta
4	8-sinfda	120-130 so'z	195-205 so'z	9-10 ta
5	9-sinfda	125-135 so'z	200-210 so'z	10-11 ta

O'qish texnikasi sifat ko'rsatkichi esa so'zlar, iboralar, murakkab atamalar, mumtoz namunalarni aniq, ravon va xatosiz talaffuz qilish, ma'nosini tushungan holda ta'sirchan, obrazli oqish ko'nikma va malakalarini talab etadi. Miqdoriy ko'rsatkichdagi belgilar soni hamda matnni o'qishga qo'yiladigan zaruriy talablar sinflar kesimida o'quvchining yosh xususiyati va bilish jarayonlarining rivojlanganlik darajasiga mos holda o'rtirilib boriladi.

Tovushlar, so'zlar talaffuzi, gapda sanash va ajratish ohangi, tinish belgilariga rioya qilish, lug'at va nutq ustida ishlash, grammatik, orfografik hamda orfoepik bilimlarni amaliy o'zlashtirish orqali bolalarda mantiqiy o'qish va yozish ko'nikmalari tadrijiy ravishda shakllantirilishiga erishiladi. Analiz-sintez mashqlari, tovushlar artikulyatsiyasi, diksiya ustida ishlash savod o'rgatishning asosiy usullari sirasiga kiradi.

Keyingi bosqich o'qishga o'rgatishning tayyorgarlik davri bo'lib, atrofdagilar nutqini tinglash, diqqatni jamlash, til birliklarini farqlash,

¹ Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5-9-sinflar). –Toshkent: "Yangiyo'l poligraph service", 2010. – 47-52-b.

g matndagi vazifasini belgilash kabi faoliyat turlari bilan
likda kechadi.

urmushning o'quvchi tasavvuridagi in'ikosi badiiy asarni yaxlit
tishga keng yo'l ochganligi bois mutolaaga jiddiy hozirlik ko'rish
etiladi. Tayyorgarlik bosqichi matn bilan tanishtirish, adiblar
ma'lumot berish, voqeliklar, qahramonlar ma'naviyatini baho-
na'nosi notanish so'zlar, obrazlilikka izoh kabi ko'rinishlarda
i mumkin. Ekskursiya, filmlar namoyishi, o'qituvchi hikoyasi,
il izlanishlar o'qishga tayyorgarlikning navbatdagi shakllari
nadi.

ayyorgarlik davridan so'ng asar mazmuni bilan tanishtirish
niga o'tiladi. Bu jarayon o'qituvchi yoki o'quvchining matnni
badiiy yoki tanlab o'qishi; og'zaki qayta hikoyalashi; yoddan
zarur epizodlarning sahnalashtirilishi; texnik vositalardan va
ga oid kuy-qo'shiqlardan foydalanishida namoyon bo'ladi.

boshlang'ich ta'lim "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligida
ilishicha, o'qish malakasi to'g'ri, me'yorida, anglab va ifodali
ga o'rgatish asosida rivojlantiriladi. O'qish malakasi sifatlarining
sa ongli o'qishdir. Ongli o'qish o'z navbatida ifodalilikka xizmat
Asar qurilishi va mazmunini tushunish ongli o'qishning muhim
ir¹.

O'qish malakalarini rivojlantirishda quyidagilar nazarda tutiladi:

nutq birliklari orasidagi to'xtamga e'tibor berish;

matnda ifodalangan fikrni anglash;

talaffuzda intonatsiyaga rioya qilish;

so'z va gaplarda urg'uni to'g'ri qo'llash;

o'qish tezligi va sur'atida me'yorni saqlash;

asarni mazmuni, g'oyasi, obrazlar, tasvir vositalari ahamiyatini
tushunish, voqea-hodisalar, asosiy qahramonlar va personajlar xatti-
talariga munosabat bildirish.

Yuqori sinflarda muallifning asardagi mavqei, xarakterlar, hayot
rasini tasvirlashdagi uslubini belgilash, til xususiyatlari, hikoya va
arzi, tasvir usullarini aniqlash va ohangga e'tibor qaratish orqali
kompetensiyalari takomillashtirilib boriladi.

Asarni tushunish va tushuntirish kompetensiyasi. Tushunish bu
ning bir turdan boshqa shaklga o'tishi, mavzuning o'zlashtirilish
i, demakdir. Umumiy tarzda olganda tushuntirish, bayon qilish va

1 K. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent: "NOSHIR", 2009 - 74-77-b.

natijalar xususida o'z takliflarini taqdim etish tushunish ko'rsatkichi tarzida qabul qilinadi.

Ma'lumki, komillik sari intilgan insonda o'zligini anglashga ehtiyoj doimiy holda ortib boradi. Binobarin, aslini bilmoqni ixtiyor etgan kishi boshqalarning fikrati va fitratidagi evrilishlarni ilg'ashga harakat qiladi. O'zgalarini tushunish esa kimligini tanishning ilk bosqichi.

Insonning shaxslik sifatlari kamol topishida esa, albatta, so'z san'ati yordamiga tayaniladi. Aytilish mumkinki, adabiyot insonga qahramonlar taqdiri misolida o'zgalar tuyg'ularini his qilish, uqanlarini boshqalarga yetkazish va, eng muhimi, o'zini-o'zi tarbiyalashning samarali vositasidir.

O'quvchi matn bilan "muloqot"ga kirishishgan dastlabki daqiqalardan boshlab uni chuqurroq tushunish sari qadam qo'yiladi. "Matn mazmunini tushunish estetik kechimmalar bilan birlashib, analitik-sintetik faoliyatni ifoda etadi, badiiy idrokka tutashadi. O'quvchi asar mazmunini tushunib o'qishga harakat qilganda, o'zi esda olib qolayotgan narsalarning aniq bo'lishiga intiladi. Badiiy idrok jarayoni kelib qo'shilganda esa, mazmun muayyan o'zgarishlar bilan qabul qilinadi. Adabiy tayyorgarlik ko'rayotgan o'quvchi asta-sekin ana shu darajani egallay boshlaydi"¹.

Asar mazmun-mohiyati mantiqiy tafakkur, emotsiyalar uyg'unligida adabiy matn jozibasini va nafosatini tuyish, axloqiy tarbiya ta'sirini anglash samarasi o'laroq o'zlashtiriladi. "Aslida kitobxon ham yozuvchi singari ijodkor, – deb yozadi bu haqda metodist olim S.Matchonov. – U asar mutolaasi jarayonida muallif faoliyatini takrorlash yo'lidan boradi. Yozuvchi ijodining murakkabligi shundaki, u xayolida tug'ilgan g'oyani adabiy qahramonlarning xatti-harakati, kurashlari misolida konkretlashtirsa, kitobxon unga teskari – adabiy qahramon xatti-harakati, kurashlari tasviridan umumiy xulosalar chiqarish yo'lini tutadi"².

Badiiy asarni tushunish ko'rsatkichini belgilashda quyidagilarni inobatga olish zarur:

1) yozuvchining asl niyati, matndagi asosiy fikr, qahramonlar tabiatidagi o'ziga xoslik;

2) voqealar, obrazlar tizimining o'zaro aloqasi, xarakterlar hayotiyligi;

¹ Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. –Тошкент: "Фан", 2007. – 29-б.

² Сафо Матжон. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Тошкент: "Ўқитувчи", 1996. – 49-50-б.

3) tarixiy haqiqat va badiiy to'qima o'rtasidagi mutanosiblik;

4) davrning eng dolzarb ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, madaniy va tafkuraviy muammolari;

5) adabiy-nazariy tushunchalar va tasviriy-ifodaviy vositalarning mazmundorligini ta'minlashga baho berish.

Asarni tushunish uqqanlarini tushuntirish asosi. Agar sujet zami-ga chuqurroq yondashilsa, o'quvchi mutolaa chog'ida guvohi bo'lganlariga boshqalarni ishontira bilishi, hissiyotlarini ularga ham uqtira olishi, ta'sirlantirishi, zavqlantirishi va ibratomuz lavhalardan hikmat topishga ishontirishi mumkin bo'ladi. Bu jihatlar o'z navbatida sarni tushuntirish kompetensiyasini shakllantiradi.

Badiiy asarni o'qitishga o'rgatish vazifasi tahlil ko'nikmasini hakllantirishga uzviy bog'liq.

Tahlil – adabiy ta'limning zaruriy va mas'uliyatli bosqichi. U sarni tushunib o'qishni, mutolaa jarayonida kitobxon qalbida rang-barang tuyg'ular uyg'otish va emotsional kayfiyatni yanada jonlan-irishni hamda ijodkor maqsadini matndan ajratmagan holda yoritish vazifalarini ado etadi.

Adabiy tahlil muammolari rus olimlari M.A.Ribnikova, V.V.Golubkov, N.I.Kudryashev, G.N.Ioninlar tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan bo'lib, o'zbek metodistlaridan A.Zunnunov, Q.Yo'ldoshev, M.Mirqosimova, S.Matchonov, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovalar nasalaga o'z tadqiqot ishlari maqsadidan kelib chiqib ijodiy yonda-shadilar.

Badiiy asarning o'quv tahlili adabiyotshunoslik tahlilidan farqlanadi. Agar ilmiy tahlilda adabiyotshunos fan ma'lumotlariga ayansa, o'quv tahlilida o'qituvchi DTS va dastur talablaridan kelib chiqib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilish darajasini hisobga olib ish ko'radi.

Ammo asarning sujet qurilishi, kompozitsion tuzilishi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi, tili – o'quv tahlilining muhim sharti bo'lib qolaveradi va u, avvalo, o'qituvchi va o'quvchining asar g'oyaviy yo'nalishi, mavzusi, qahramonlar xarakterini ochib berish, tasviriy vositalarni mazmun bilan birgalikda o'zlashtirish bo'yicha hamkorlik-dagi ishi hisoblanadi.

O'quv tahliliga xos muhim xususiyat haqida professor Q.Yo'ldoshev shunday fikr yuritadi: "Hayotdagi har bir odam yechimi topilishi mumkin bo'lmagan muammo. Badiiy adabiyot ana shu adoqsiz muammoning qirralarini butun murakkabligi, iztiroblari, kechinmayu

o'ylari bilan tasvir etish orqali o'quvchini o'zgani his qilishga, o'ziga daxli bo'lmagan begona odamning dardiga sherik bo'lishga odatlantiriladi. O'z tabiati yo'nalishi va maktab qo'yan pedagogik vazifaning xususiyatiga qarab har bir o'quvchi timsol yordamida qilingan tahlil natijasida o'z ruhiyatida muayyan yangi sifatlar hosil qiladi. Qandaydir shaxslik fazilatlariga ega bo'ladi"¹.

Badiiy asar tahlili oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda tarixiylik, shakl va mazmun birligi tamoyillariga tayaniladi.

Bu tamoyillar adabiy tahlilning quyidagi qator komponentlari yordamida amalga oshiriladi:

1. Asarda qo'yilgan tarixiy va ijtimoiy muammo. 2. Yozuvchi nuqtayi nazarining matnda ifodalanishi. 3. Asar mavzusi va sujeti qurilishi. 4. Adabiy qahramonlarga xos yetakchi xususiyatlar. 5. Asarning kompozitsion tuzilishi. 6. Badiiy til xususiyatlari va uslubi. 7. Asarning janriy o'ziga xosligi. 8. Yozuvchi ijodining o'z davri uchun ahamiyati, zamon bilan aloqasi.

Tabiiyki, har bir asar tahliliga yuqoridagi barcha komponentlarni jalb qilib bo'lmaydi. O'qituvchi asarni anglash jarayonini tashkil etar ekan, o'quvchilarga tahlil ko'nikmalarini singdirishi kerak.

"Tahlilning mohiyati shundaki, u o'quvchini asar mazmuniga chuqurroq kirib borishga, shu maqsad bilan uni qayta o'qib chiqishga undaydi, yozuvchining shoirona fikrida qanday mantiq borligini, obrazlarning mantiqiy aloqadorligini, voqea-hodisalarning, qahramonlarning hayotga nechog'lik yaqinligini anglashga ko'maklashadi"².

Tahlil o'quvchilarning badiiy matnni chuqur anglashiga yordam beribgina qolmasdan, ularda ezgu hislarni tarbiyalaydi, o'z hayoti haqida fikr yuritishga undaydi. "Real nazariy asoslarga, badiiy-estetik mantiq talablariga javob bera oladigan tahlil o'quvchining haqiqiy yordamchisi bo'la oladi"³.

Adabiyot o'qitish metodikasida tahlilning quyidagi usullariga keng o'rin berilgan:

1. Voqealar rivojini o'rganishga qaratilgan uzviy tahlil. 2. Asar mavzusining ayrim jihatlarini ajratib ko'rsatuvchi tahlil. 3. Asar mazmuni va shakliga doir kompozitsion tahlil. 4. Badiiy tilning ifodaviy vositalari orqali yozuvchi nuqtayi nazarini, g'oyasi, fikrlarini tushunishga yo'naltirilgan filologik tahlil.

¹ Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. –Тошкент: "Ўқитувчи", 1996. –116-б.

² Ниязметова Р.Х. Узлуksiz таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. –Тошкент: "Фан", 2007. – 141-142-б.

³ Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Тошкент: "Янги аср авлоди", 2006. – 46-б.

Aslini olganda, bir xil asarlarning g'oyaviy-badiiy mazmuni kompozitsion tahlil orqali ochib berilsa, boshqasida sujet qurilishi misolida ko'zdan kechiriladi, uchinchisida obrazlar tahlili muhim vosita vazifasini o'taydi. Ammo har qanday turdagi tahlilni amalga oshirish chog'ida ilmiylik tamoyili asosiy mezon sanalishini unutmaslik kerak. Amalda tahlil usullarining bir-birini boyitib, to'ldirishiga tabiiy hol sifatida qaraladi.

Izchil tahlilda sujet voqeligiga emotsional munosabat bildiriladi, asar mazmuni va shakli uzviy birlikda ko'rib chiqiladi. Ammo izchil tahlilning imkoniyatlari cheksiz emas. U ko'pincha ayrim epizod yoki bob doirasida cheklanib qoladi.

Adabiy asarni izchil tahlil qilishda matn mazmuniga aralashib ketish xavfi tug'iladi. Shuning uchun tahlilning bu turidan o'quvchilarning kitobxonlik madaniyati hali rivojlanmagan, asarni epizoddan epizodga chuqur qarab chiqish ehtiyoji zarur paytda foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, 5-sinfda Zohir A'lamning "Afandining qirq bir pashshasi"¹ qissasi tahliliga bag'ishlangan mashg'ulotda mazkur usuldan foydalanish orqali ayrim epizod yoki boblar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishlariga e'tibor qaratiladi. Asar mazmunini tashkil etgan qismlar aniqlanib, g'oyalar taklif etiladi hamda yozuvchining axloqiy-estetik qarashlariga baho beriladi.

Qissada ishtirok etgan turfa obrazlar xarakterida mavjud xususiyat va qusurlar sujet chizig'ida konfliktini yuzaga keltirib, voqeliklar ketma-ketligini ta'minlashga xizmat qilganini anglashga zamin yaratadi. Jumladan, "Tush" bobida Afandining bog'ini sug'orish uchun nayrang ishlatib, Muhsin guppini laqillatishi epizodlari bo'yni o'ch olish rejasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, "Qasosning yo'li topildi", "Ikki o'lja" boblari misolida davom ettirilganiga o'quvchilar diqqatini tortish tahlil maqsadiga erishishni ta'minlaydi.

Obrazlar tizimini o'rganish qat'iy reja asosida olib boriladigan mashg'ulotlarda asosiy qahramon va personajlarning shaxs sifatidagi yetakchi xususiyatlarini aniqlash, hissiy ta'sir kuchini ko'chirmalar bilan isbotlash ko'zda tutiladi. Tahlilning bu turida "o'quvchilarning timsollarni ijobiy va salbiy guruhlariga ajratishlariga ham yo'l qo'ymaslik, har bir badiiy timsolning qarama-qarshi tabiatli timsol nuqtayi nazaridan qanday baholanishi mumkin ekaniga bolalar e'tiborini tortish lozim"².

¹ Зоҳир Аълам. Афандининг қирқ бир пашшаси. –Тошкент: "Янги аср авлоди", 2014.

² Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. –Тошкент: "Ўқитувчи", 1996. –116-б.

Obrazlar bo'yicha tahlilda "SWOT – universal tahlil", "Case-study", "Muammoli vaziyat" kabi qator innovatsion texnologiyalardan umumli foydalanish qahramonlarning asar sujetida tutgan o'rni va badiiy funksiyasini baholash, xarakterining umumiy va farqli jihatlarini tavsiflash, turli ziddiyatlar yechimi yuzasidan mustaqil qaror qabul qilish malakalarini takomillashtirishi bilan ahamiyatlidir.

"SWOT – universal tahlil" – biron muammoni to'rt tomonlama tahlil qilishga ilmiy va kreativ yondashuvdir. Texnologiya nomi inglizcha "Strengths" – kuchli, "Weaknesses" – zaif tomonlar, "Opportunities" – imkoniyatlar va "Threats" – unga tahdid soluvchi xavf-xatar so'zlarining bosh harfidan olingan bo'lib, samarasi istiqbolda aniq taklif va yangi loyihalarining rejalashtirilishi bilan belgilanadi. Amalga joriy etishda individual, justliklar yoki guruhlar faoliyatiga tayaniladi. Yakka tartibdagi ish uchun 15-17, jamoalarga 10-15 daqiqagacha vaqt ajratiladi. Tahlil natijalari prezentatsiya qilinadi.

Mazkur texnologiya muayyan mavzu doirasida muammo qo'yish, loyihalar ishlab chiqish, vaziyatni o'rganish hamda obyektni munosib baholash vositasi bo'lib, o'quvchida tizimli fikrlash, qiyoslash va tahlil ko'nikmalarini shakllantiradi. Masalan, 7-sinfda mustaqil mutolaaga tavsiya etish mumkin bo'lgan Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi obrazlari "SWOT – universal tahlil" texnologiyasi asosida tahlilga tortilishi inson ichki dunyosini chuqurroq taftish qilishga keng yo'l ochadi.

Asar bilan tanishish jarayonida, tabiiyki, "o'z yolg'izligi va musibatmi hayotning badbo'y, zabun, xor etilgan hidlari anqib yotgan yillar dahlizidan yetaklab o'tgan"¹ momoning achchiq qismati o'quvchi ruhiyatidagi adoqsiz iztiroblarga sabab bo'ladi. Kitobxon tug'ilib o'sgan qishlog'i ozodligi, xalq erki uchun qayg'urgan Rayim polvon va yoshgina o'g'lining asossiz o'ldirilishidan qiynalishi, dahshatli xunrezlikni sodir etgan Zamon otboqardan nafratlanishi, shubhasiz. Tahlil jarayonida, albatta, yurt mustaqilligi uchun kurashgan polvon obrazi misolida butun bir jamiyat fojiasi qalamga olingani anglanishi ko'zda tutiladi.

Hikoya boshdan oxirigacha qayg'u va azoblarni yengishga arang kuch topa bilgan ayol taqdiriga achinish hissi, darddoshlik tuyg'ulari bilan mutolaa qilinadi. Unda kitobxonni titratib yuboradigan shunday epizodlar mavjudki, ularni hayajonsiz qabul qilish mumkin emas. Jumladan, "Bayna momo mehmonxona eshigidan chiqaverishda otasini

¹ Назар Эшонқул. Ялпиз ҳиди. –Тошкент. "Шарк", 2008. – 255-б.

otib tashlanganini ko`rgach, uyga yugurib kirib ketgan, qo`liga otasining miltig`ini tutib turgan o`g`lini ko`rdi – o`g`lining ko`zlarida ham eriniki kabi g`azab, telbalik yonardi. Bayna momo o`g`lini ogohlantirishga ulgurmadi. Birdaniga bir necha o`q ovozi uning qulog`imi bitirib qo`ydi va o`g`li otasining ustiga yuztuban yiqildi – yiqilarkan, endi sabza urgan mo`ylovi titrab ketdi, onasiga bir zum qo`rquv va xijolat aralash tikildi...”¹.

O`smirning jon berishi lavhalari hatto tasavvurda jonlanganida yuraklarni larzaga keltiradiki, tahlil chog`ida o`quvchi birvarakayiga eng yaqin kishisi va jigarbandining otib tashlanganiga guvoh bo`lgan bir mushtipar ayolning o`sha lahzalardagi ahvolini tushunishi qiyin kechmaydi.

Bayna momo ruhiyatidagi qarama-qarshi his-tuyg`ular haqida so`z yuritar ekan, tadqiqotchi G.Imomova shunday yozadi: “Hayotning abadiyligi, o`zgarmas va bardavomiyligini ta`kidlash maqsadida yozuvchi qahramonning ong oqimiga murojaat qiladi. Bu usul, bir tomondan, obrazning sintezlashgan yaxlit qiyofasini yaratishga, ikkinchi tomondan, hayot qonuniyatlarining boqiyiligini ta`kidlashga xizmat qilgan”².

Haqiqatan ham, o`quvchi tahlil davomida yuqorida ta`kidlanganidek, momoning zohiran sokin, ammo botinida isyon qilayotgan g`alayonlar, shodlik va g`am, baxt va baxtsizlik azaldan hamroh ekanligiga, bir so`z bilan aytganda, bu obraz kuchli dramatism bilan sug`orilganiga yana bir karra amin bo`lishi, tabiiy.

Ichki dunyosi nafaqat xatti-harakatlari, gap-so`zlari, balki yuz ifodalarida aks etishiga munosabat bildirish asnosida ayol tiynati chuqurroq taftish qilinishiga erishiladi. Masalan, bo`ribosarlarim ergashtirib qishloqni aylanishga chiqqan Zamon otboqar tasodifan momoga duch kelib qoladi. “Bayna momo qarib qolgan, ammo hali ham ko`zlari xuddi o`n besh yil avvalgidek qahrli va nafrat to`la edi”³.

Ko`rinadiki, shu birgina parcha qahramon qalbida kechayotgan evrilishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun ham otboqar ayolning adovat balqqan sovuq nigohlariga dosh berolmay, o`ziga bunday qaramaslikni buyurib do`q uradi.

Momoning umrbod yolg`izlikka mahkum bo`lishida davr mafkurasiga qul bo`lgan Zamon otboqarning odamiylikdan yiroq xatti-harakatlari, qotillikka jimgina qo`l qovushtirib, yashirin tomoshabinga

¹ Назар Эшонкул. Ялпиз ҳиди – Тошкент: “Шарк”, 2008. – 253-6.

² Имомова Г. Бадийий синтез имкониятлари. // “Ўзбек тили ва адабиёти”. – Тошкент: 2012. № 1. – Б. 67.

³ Назар Эшонкул. Ялпиз ҳиди. –Тошкент: “Шарк”, 2008. – Б. 254.

aylangan qo'ymijoz kimsalarning ma'lum ma'nodagi aybdorligiga munosabat bildirish tahlil mezonlaridan hisoblanadi. Zero, asarda "hayot, uning mazmuni, yashashdan maqsad nima qabilidagi falsafiy masalalar ko'proq sho'ro davrining poetiklashgan, ramziylashgan suvrati bilan bog'langan holda tasvir etilishi"¹ diqqat markazida bo'lmog'i muhim.

Dahshatli fojia sodir etilayotgan lahzalarda Bayna momo o'zi mehr qo'ygan tersotaliklardan najot kutadi, ammo baxtga qarshi borliqni go'yoki yer yutib yuborgandek, mubham osoyishtalik hukm surardi. Qishloq ahlining jur'atsizligi undagi cheksiz mehrning kuchli nafratga aylamishiga sabab bo'ladi. Shu kabi epizodlarga diqqat qilish orqali o'quvchilarda tarixiy sharoit va ijtimoiy munosabatlarni baholash ko'nikma va malakalari shakllantiriladi.

Bayna momo obrazi "sho'ro davri nasridagi aksar qahramonlar singari jamiyatdagi o'zgarishlarga, xalq hayotidagi yangilanishlarga o'z munosabatini bildiruvchi, o'z faoliyati bilan tirikligini go'zalliklar bilan burkovchi ijtimoiy faol shaxs emas. Unga o'z hayotini yaratuvchanlik, bunyodkorlik faoliyati bilan boqiylashtirishga safarbar o'ktam ayol xususiyati butkul yot"².

Ahamiyat qilinsa, ayolni ado qilgan musibat va g'am-anduhlar yillar to'fonida mushtdekkina qiyofa aks etgan jussasi-yu yuzini tilimlab bejagan ajinlarida iz qoldirgani ko'zga tashlanadi. Bu dunyoda gaplashishga munosib odam yo'qdek o'zini odamlardan olib qochishi, har tong qo'y-echkilarini daryo bo'yidagi yulg'unzorga haydab ketishi-yu kech tushgach, qurigan shoh-shabballarni yelkasida ko'tarib qaytishi lavhalari momoning tabiatiga singib ulgurgan odamovilik va ojizlik sifatlarida in'ikosini topadi.

Bayna momo obrazini texnologiya maqsadiga ko'ra shunday tavsiflash mumkin:

Qahramon xarakterining kuchli jihatlari: yaqinlaridan judolik azoblariga bardosh bilan chidashi, alam va sitamlarini ichiga yutishi.	Qahramon xarakterining zaif tomonlari: sirdoshi yo'qligi, odamlarga ishonchsizligi, umr bo'yi nafrat tuyg'usi, qasos hissidan qutula olmagan, ta'nalari sababli odamlar uni eslamay qo'yishlari, o'jarligi.
--	---

¹ Бурхонова Ф. Модерн хикояларда шакл ва услуб. Тил. Эдебиет. Методика. Қазирги адабиётнинг теориялык және әдістемелік мәселелері. –Ташкент: "MERIYUS", 2013. – Б. 100.

² Матёкубов С. Назар Эшонкул хикояларида ижодий индивидуальлик. // "Зодиқ" тили ва адабиёти. 2011. № 5. – Б. 46.

Imkoniyatlari: eri va o'g'lining xotiralari bilan yashagani, talaba qizlar hayotiga yorug'lik olib kirmoqchi bo'lganlari, yangi avlodning iliq munosabatini qabul qilishi mumkinligi.	Xavf-xatar: otboqarning doimiy qo'rqitib, po'pisa qilishlari; hayotining so'nggida kimsasiz o'lim topish ehtomoli borligi.
---	--

Asar yuzasidan quyidagicha savollar bilan murojaat qilinishi o'quvchilarni personajlarning o'zaro munosabatlari hamda ichki kechinmalariga o'z tushunchalari, hayotiy kuzatishlari va tajribalari asosida fikr yuritishga yo'naltiradi:

1. Asar nomlanishining qahramonlar qismatiga aloqasi bormi?
 2. Ayolning faqat achchiq xotiralarga suyanib yashashini qanday baholaysiz? Axir u hayotini yangidan boshlashi, baxtli hayot kechirishi mumkin edi-ku?

3. Nojoiz kalaka va kamsitishlardan zada bo'lgan odamlar uni unutishga haqli edimi?

4. Zamon otboqarning sirli o'limi haqida nima deya olasiz?

5. Momo turmush tarzi va ruhiyatida qanday mutanosiblik bor?

Olib borilgan ishlar asosida o'qituvchi hikoya, sujet, adabiy qahramon kabi tushunchalarga izoh berishi mumkin.

Xulosa qilish mumkinki, "SWOT – universal tahlil" texnologiyasi ta'lim oluvchilarda:

a) muammolarni to'rt tomonlama tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi;

b) belgilangan muddatda murakkab tahlil ko'rinishlarini bajara olish malakalarini oshiradi;

d) natijalar asosida muayyan xulosaga kelish tajribasini hosil qiladi;

e) vaziyatni real o'rganib, mustaqil fikrini aytishga odatlantiradi.

Muammoli tahlil. Yuqori sinflarda o'smirlarning har jabhada qahramonlikka intilishi, o'zini yorqin, kuchli shaxslarga o'xshatish xohishi mustaqil o'qish uchun asar tanlashning asosiy talablaridan sanaladi. Aynan shu mazmundagi asarlar o'quvchilarning shon-sharaf, burch, sadoqat va fidokorlik, vatanparvarlik xislatlari bilan bog'liq mutolaa madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

E'tibor berilsa, umuminsoniy qadriyatlar, madaniyatlarning mushtarakligi g'oyasi turli mamlakatlar va turli davr yozuvchilarining asarlarida chuqur aks etganini ko'rish mumkin. Shuning uchun ham

Davlat ta'lim standartida o'zbek va jahon adabiyoti namunalarini o'zaro uzviylikda o'rganish asosida "... olam va odamlarning rang-barangligi, ularning takrorlanmasligi, ayni paytda olamning, butun bashariyatning bir butunligi haqidagi tasavvur va qarashlar shakllanib, kengayib, mustahkamlanib"¹ borishi maqsadi belgilangan.

Ma'lumki, mustaqil o'qish chog'ida o'quvchilar yozuvchi shaxsi haqida kengroq ma'lumot olish imkoniga ega bo'ladilar. Asta-sekin adabiy tur va janrlar, til va uslub, yozuvchi nuqtayi nazari, shakl va mazmun uyg'unligi masalalarini o'rganish ham muhim o'rin egallaydi. Kitobxon ongida vujudga keladigan axloqiy to'qnashuvlar tarangligi muammoli tahlilga doimiy murojaat qilishga undaydi. Tahlilning bu turi o'quvchilarni muammolarni aniqlash, muhokama qilish hamda o'z nuqtayi nazarlarini asoslashga o'rgatadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-9-sinf "Adabiyot" o'quv dasturida jahon adabiyotining yetuk namoyondalari Ezop, Jonatan Svift, Antuan de Sent-Ekzyuperi, Hans Xristian Andersen, Sa'diy Sheroziy, Janni Rodari, Ernest Seton Tompson, Robindranath Thokur, Fuzuliy, Aleksandr Pushkin, Sergey Yesenin, Vilyam Shekspir, Haynrix Hayne, Chingiz Aytmatov asarlari o'rganilishi ko'zda tutilgan.

Yuqorida nomlari tilga olingan adiblar yashagan davr va muhit, ijodiy uslubi, asarlari janr va mavzu jihatidan rang-barang bo'lsa ham barchasini xalqning tarixiy o'tmishi, insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi ziddiyatlar birlashtirishi misolida guruhlashtirish mumkin. Jumladan, sinchkov kitobxon turli ijtimoiy-siyosiy sharoitda yaratilgan Ekzyuperining "Kichkina shahzoda", Ch.Aytmatovning "Oq kema", N.Qobulning "Tubsiz osmon" asarlari o'rtasidagi g'oyaviy yaqinlikni payqamasligi mumkin emas. Binobarin, Bola va Kichkina shahzoda obrazlarining kattalar olami qonuniyatlariga hayrat ko'zi, samimiyat ba'zan qo'rquv tuyg'usi bilan qarashlarini Ekzyuperi va Aytmatov asarlarining mushtarak jihatlarini sifatida tilga olish mumkin.

Adabiyotshunoslar o'rtasida "Kichkina shahzoda" haqida gap ketganda, albatta, Richard Baxning "Jonaton ismli chag'alay" yoki "Tasavvurlar", shuningdek, braziliyalik yozuvchi Paulo Koeloning "Alkimyogar" asarlari yonma-yon tilga olinishi bejiz emas.

Taniqli yozuvchi Nazar Eshonqul Yevropa va Lotin Amerikasi adiblari ijodida ko'hna Sharq adabiyoti an'analari yetakchilik qilishiga

¹ Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5-9-sinflar). – Toshkent: "Yangiyo'l poligraph service", 2010. – 42-b.

e'tibor qaratib, fikrini argentinalik Xorxe Luis Borxesning "Biz butun dunyo adabiyotining merosxo'rlarimiz" tarzidagi iqrori misolida isbotlashga urinadi. Jumladan, munaqqid Paulo Koelo asarlarida Farididdin Attor va Jaloliddin Rumiy hazratlarining ta'siri sezilib turishiga urg'u qaratib, tasavvufning "botini tavhid, ya'ni dunyoviy va dunyoga xos "men"ni yo'q qilish, "o'z"ni yo'q qilish evaziga asosiy javhar bilan birlashish, o'zini Oliy Ruhning ichiga singdirib yuborishdir"¹, tarzidagi qarashlarini ilgari surishi asoslidir.

Bugun Kichkina shahzoda obrazi bilan cho'pon yigit Santyago ruhiyatidagi yaqinlik atroflicha tahlil yuritishga loyiq dolzarb mavzu sanaladi. Ekzyuperi va Koelo asarlarini o'zaro qiyoslab so'z yuritar ekan, adabiyotshunos olim A.Qosimovning quyidagi xulosalarini qo'llab-quvvatlash o'rindir: "inson qalb amriga quloq tutib yashashi kerak... Chunki ana shundagina hayotning har bir lahza mo'jiza bo'lib tuyuladi va oddiy qum zarrasida ham baxtni topish mumkin bo'ladi"².

Alkimyogarning Santyagoga "Sahro ham, Kurrai Zamindagi jamiki narsalar singari dunyoni anglashingda senga yordam beradi. Butun sahroni anglashingni hojati yo'q – Yaratganning bor mo'jizasini ko'rish uchun bir dona qum zarrasi ham kifoya qiladi... – O'z qalbingga quloq tut. Olamdagi hamma narsa unga ayon, chunki inson qalbi Olam Ruhidan bino bo'lgan va qachon bo'lmasin unga qaytadi"³ degan fikrlari yuqoridagilarning tasdig'idir.

Koeloning Sahrosi donishmandlik timsoli. Asosiy voqealar sahroda yuz berishi har ikki asarning o'xshash jihatlaridan bo'lib, Ekzyuperining real makonidagi qum barhanlari, sho'rxok tuproqlar, asriy chig'anoqlar uyumi insonni umr haqida teranroq mulohaza yuritishga chorlaydi. Kichkina shahzoda soflik dunyosining tom ma'nodagi sohibi bo'lib, u kattalar anglab yetmagan haqiqatlarni ko'ngil ko'zi bilan ko'ra olishga qodir. Ma'naviy chanqoqlik ramzi bo'lgan sahrolar qa'rida qanchadan qancha buloqlar ko'z ochmagan bo'lib, ularni topishda faqatgina bedor qalb darkor.

Santyagoning ikki bora bir xil tush – o'ynab yurgan bolani ko'rish ma'nosini oydinlashtirish maqsadida mashaqqatli Yo'lni tanlashi majoziy ma'noda tasvirlanadi. Tush hodisasi qiziquvchan yigitning Sahroi Kabirni kesib o'tib, muazzam Misr ehromlarini ko'rishiga hamda

¹ Назар Эшонкул. Мендан "мен"гача: адабий-танқидий мақолалар тўплами. – Тошкент: "Akademnashr", 2014. – 232-б.

² Қосимов А. Яна "Кичкина шахзода" ҳақида. // "Тil va adabiyot ta'limi". – Тошкент: 2003. № 6. – Б. 79

³ Пауло Коэльо. Алхимиктар. Таржимон Азиз Саид – Тошкент: "Янги аср авлоди", 2013. – 137-б.

sa'y-harakatlari qismatdan qochib qutulolmasligiga ishora ekanligiga vosita vazifasini o'taydi.

Sarguzashtlari davomida qahramon lo'li kampir, Salim shahri shohi Maliksiddiq, tovlamachi, chinnivorlar sotuvchisi, yo'l boshlovchi, sahro qizi Fotima bilan tasodifiy uchrashuvlari Taqdiriga qilingan bashorat Alomatlari in'ikosiligiga iqrar bo'ladi. Shamol, Sahro va Quyosh bilan Umumbashar tilidagi g'oyibona suhbat natijasi o'laroq, Santyago Oliy Ruhni tanishga musharraf bo'ladi, "Olam hamma tilda gapira olishi"ga ishonchi ortadi.

Yigit o'zida mavjud ichki imkoniyatlari va qobiliyatini ishga solishida, albatta, Alkimyogarning ta'sir kuchini inkor etib bo'lmaydi. Jumladan, "– Mana olamni nima harakatlantiradi, – dedi u. – Alkimyoda bu Olam Ruhi deyiladi. Qachonki butun qalbing bilan biror narsani orzu qilsang, Olam Ruhiga qo'shilib ketasan, Unda esa buyuk qudrat bor"¹.

Bugungi globallashuv jarayonlari jamiyatda plyuralizmga ehtiyoj mavjudligini tasdiqlaydi hamda o'quvchining dunyo miqyosida fikrlashini yoqlaydi. Metodist olimi Q.Husanboyevaning doktorlik ishida mustaqil tafakkurni shakllantirishda o'quvchilarni aqliy zo'riqishga majbur etadigan topshiriqlar katta o'rin tutishiga alohida ahamiyat qaratiladi. Shu bois ham "Alkimyogar" asarini mustaqil o'rganish voqeliklar qatiga yashirin masalalar yechimini hal qilish yo'lidagi izlanishlardan biri bo'lib qoladi.

Roman mutolaasi 9-sinfda Ch.Aytmatov ijodiga uyg'unlikda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Binobarin, "realizm bilan romantikaning, real ifodalar bilan ramziy usullarning, hayot bilan ertakning uzviy birikib ketganligi"² Aytmatov va Koelo ijodidagi o'zaro mutanosiblikni yoqlaydi.

Ifoda uslubi, taqdiri azalning muqarrarlighi haqidagi falsafiy xulosalar asarni muammoli usulda o'rganishni taqozo etadi. Muammoli tahlil voqea-hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlashtirish yo'li bilan hal qilish xususiyatiga ega.

Su o'rinda o'qituvchi o'n sakkiz ming olam Yaratuvchisi – Oliy Ruh tushunchasi mazmun-mohiyati bilan o'quvchilar qay darajada tanish ekanliklariga qiziqib, javoblarga qo'shimcha holda quyidagicha izoh berishi joiz: "U har joyda bor va mavjud. Agar odam o'z aqli hududini yorib o'tolsa, ana shu hududsizlikka duch keladi. G'arb adabiyotida mazkur hududsizlik umidsizlik, ma'naviy qashshoqlik

¹ Пауло Коэльо. Алхимьгар. Таржимон Азиз Саид. – Тошкент: "Янги аср авлоди", 2013. – 86-б.

² Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. – Тошкент: "Укитувчи", 2011. – 144-б.

timsolidir... Attorda esa bu hududsizlik Yaratganning, yuksalish, anglash, asl o'zlikka yaqinlashishning timsolidir"¹.

Asar bilan to'qnash kelishi hamon o'quvchilarda tug'iladigan savolning o'zi uni muammoli o'rganish jarayonini tashkil qiladi. Tahlil jarayonidagi tortishuvlar o'quvchi faoliyatini o'rganilayotgan asar mazmuni, matn mag'zini yoritishga xizmat qilsa, muayyan samara-dorlikka erishishi kuzatiladi. Tahlilning bu turida savollarning afzalligi shundan iboratki, "birinchidan, o'quvchilar tahlilda qiyinchiliklarni his etadilar va uni yengishga intiladilar, ikkinchidan, tahlil bir maqsad tomon yo'naltirilib, o'quvchilar umumiy masalani hal qilishga imkoniyat beradigan yo'lni topishga harakat qiladilar"².

Rang-barang, izchil, qat'iy va asoslanadigan fikrlar asar mohiyatini ochishga sharoit yaratadi. Tahlilga kirishishdan oldin "Har qanday tushga ishonish to'g'ri emas", "Tushlar reallikka yot hodisa" yoki "Tushlarda qandaydir ilohiylik bor" degan bir-biriga zid qarashlar asosida "Aqliy hujum" uyushtirilishi asar g'oyasiga hayotiy tajribalar asosida yondashib, bahs yuritish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Muammoni yechishdagi "qiyinchilik o'zlashtirilishi lozim bo'lgan noma'lum narsaning yangiligi va umumlashtirilishi zarurligi, o'quvchi intellektual imkoniyatlari darajasi bilan xarakterlanadi"³. O'quvchilar oldiga "Oddiy tush voqeasi Santyagoning sayohatga chiqishi uchun bir bahona, xolos" muammosining qo'yilishi voqeliklarni matnga tayani-lgan holda izohlash zaruriyatini taqozo etadi.

So'ngra muallif e'tibor qaratgan jihatlar: Muhabbat, omadsizlik va mag'lubiyat, eng oliy orzusi ushalishi oldidagi qo'rquvga izoh berilishi muhim. Zero, bu faoliyat turi vositasida hayotdagi to'siq, g'ovlarni yengib o'tishda, avvalo, xohish, jur'at, so'ngra iroda bo'lsa yetarli ekanligi mushohada qilinadi.

Ehromlar yonida ayovsiz kaltaklardan azob chekarkan, borini tunagan qaroqchilar to'daboshisining ikki yil muqaddam aynan shu joyda o'zi kabi bir xil tushni qayta-qayta ko'rgani. faqat voqealar makon jihatidan farqlanishi haqidagi gap-so'zlaridan yigit shuurida g'aroyib bir fikr chaqmoqday yalt etadi. Xuddi shu o'rinda o'quvchilar e'tibori yigit izlagan xazina shaharga ketayotganida qo'ylari bilan kirib tunagan, ombori o'rnida chinor daraxti qad rostlagan vayrona cherkov ostida

¹ Назар Эшонкул. Мендан "мен"гача: адабий-танқидий мақолалар тўплами. – Тошкент: "Akademnashr", 2014. – 233-б.

² Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1992. – 118-б.

³ Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент: "Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти", 2009. – 134-б.

bo'lib, uni topish uchun dunyo kezishi, mashaqqatlar chekib o'z taqdirini yaratganiga qaratilsa, muammo markaziga yashirin sir ochilib, asar tuguni yechiladi.

O'zbek xalqida qadimdan kishining tushida o'ynayotgan bolani ko'rishi bu o'ngidagi quvonch, oilaviy xotirjamlik va yaxshi xabar belgisi ekanligi haqidagi ishonchlar mavjud. Shunga ko'ra, tahlil yakunida muallif va xalq orasidagi e'tiqodlarni o'zaro taqqoslab, tush voqeasi Santyagoning o'zi istaganday yashash baxtini topishi va dunyo kezish orzusu amalga oshishiga omil vazifasini o'tagan, degan xulosaga kelish mumkin.

Demak, izlanish xarakteridagi muammoli tahlil usuli:

- adabiy mavzuni chuqur va bir butunlikda idrok etish;
- bilish jarayonlarini faollashtirish;
- yozuvchi uslubi va asarning asosiy xususiyatlarini o'zlashtirish;
- muammoni shakllantirishga oid ichki va tashqi sabablarni

o'rganish;

- taxminlarni ilgari surish va asoslash maqsadini amalga oshiradi.

Adabiy tahlil usullari. Tahlil usullarini tanlash oson ish emas. U ko'proq adabiy turga bog'liq. Lirik a epik asarga, drama eposga qaraganda turlicha tahlil usullarini taqozo etadi. Masalan, Shekspirning "Otello" tragediyasi tadqiqot, Qutlibeka Rahimboyevaning "Qorli tong xayoli" yoki Xosiyat Rustamovanning "Shamol" she'rlari ijodiy o'qish metodlari, Ulug'bek Abdulvahobning "Yolg'izlik" qissasi, Luqmon Bo'rixonning "Tun qaridagi shu'la" asarlari "Rezyume", "Pinbord" kabi usullardan biri asosida o'rganilsa, maqsadga muvofiqligini ta'kidlash joiz.

Tahlil "...badiiy matnni o'qish jarayonida o'qituvchining izohi shaklida ham, asarni detallashtirib ko'zdan kechirish shaklida ham, qahramonlarni tavsiflash yoki tasviriy ifoda vositalarini aniqlash shaklida ham bo'lishi mumkin... Chuqur ma'nodorlik adabiy tahlilning eng birinchi va asosiy shartidir. Tahlilning hamisha ma'lum maqsadga qaratilishi uning shakli va mazmunini belgilaydi"¹.

Tahlilni loyihalashtirishda "Bumerang", "Charxpalak", "Skorobey", "Yelpig'ich", "FSMU", "Venn diagrammasi", "Haqiqatni izlash darsi" kabi bir qator texnologiyalarning qaysi birlari afzalligi haqida savol tug'iladi. Asar mazmuni, kompozitsiyasi, yozuvchi uslubini

¹ Сафо Матжон. Мактабда адабиётдан мустақил иплар. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1996. – 21-б.

aniqlash, o'quvchini muallif nuqtayi nazariga yaqinlashtirish ta'lim texnologiyalarining asosiy vazifasi bo'lib qoladi.

9-sinfda o'rganilishi rejalashtirilgan O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani inson ruhiyati bilan bog'liq kechinmalarni teran idrok qilish asosida o'quvchilarni atroflicha fikr-mulohaza yuritish, ibrat olish, xulosa chiqarish va hayotda qat'iyatli bo'lishga undashi bilan alohida e'tiborga loyiq. Zero, adabiy ta'limning Davlat ta'lim standartida ta'lim oluvchilar "adabiy qahramonlarning yetakchi xislatlarini yoritish, ularning xatti-harakatlariga munosabat bildirish, asardagi fakt va materiallar asosida o'z nuqtayi nazarini asoslay olish"¹ bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlari shartligi alohida ta'kidlanadi.

"Adabiyot" o'quv dasturi² da roman mustaqil o'qishga tavsiya etilgani bois darslikda berilgan parcha o'rganib bo'lingach, ma'lum vaqtdan so'ng asar tahliliga bag'ishlangan mashg'ulot uyushtirilishi mumkin.

Asar tahlilida fanlararo integratsiya ijobiy samarasini berishi, tabiiy. O'quvchilar tarix darslari orqali Mirzo Ulug'bekni mamlakatda osoyishtalik o'rnatgan odil hukmdor, mard sarkarda, koinot sirlarining yetuk bilimdoni, matematika, adabiyot, musiqa, she'riyat kabi ilmlardan boxabar qomusiy olim sifatida yaxshi bilishsa ham uning oddiy inson, ota sifatidagi kechinmalari, tuyg'ularini his etishlarida adabiyot fani yordamiga tayanadi.

Taniqli munaqqid M.Qo'shjonov ta'kidlaganidek, asar mutolaasi davomida "Kitobxon tasvirlanayotgan zamon ruhini, ma'lum bir davrdagi tarixiy fojiani, poklik bilan nopoklik, samimiylik bilan nosamimiylik, taraqqiyot bilan jaholat orasidagi abadiy ziddiyatni voqealar tasviridan anglab oladi"³. Zero, tarix nimaning qachon sodir bo'lganligi haqida ma'lumot bersa, voqealar tasvirining badiiy talqini so'z san'ati vositasida dunyo yuzini ko'radi.

Yuklatilgan topshiriqlar ijrosining o'qituvchi tomonidan nazorat qilib borilishi o'quvchilardagi mas'uliyat hissini yanada oshiradi. O'zlashtirilgan bilimlardan mashg'ulotning zarur o'rinlarida foydalana bilish o'quvchilar qalbida o'z mehnatlaridan zavqlanish hislarini tarbiyalab, navbatdagi jarayonning ko'tarinki ruhda o'tishini ta'minlaydi.

¹ Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili. (5-9-sinflar). – Toshkent: Yangiyo'l poligraph service, 2010. – 44-b.

² Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili. (5-9-sinflar). – Toshkent: "Yangiyo'l poligraph service", 2010. – 89-b.

³ Қўшжонов М. Қалб покчилиги. Ўзбек адабий танқиди – Тошкент: "TURON-IQBOL", 2011. – 77-б.

Bayon etilayotgan fikr-mulohazalar inobatga olinishi, qo'llab-quvvatlanishi o'quvchilarning tahlilda faol ishtirok etish va erkin fikrlashga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. Aksincha, e'tiborsizlik o'quvchilar intilishi va qiziqishining susayishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning o'ziga ishonchi orta borishi natijasida fikrini asoslab, himoya qila olish malakasi guruhlarda jamoa bo'lib ishlash orqali takomillasha boradi.

Puxta rejalashtirilgan ta'lim maqsadlari, tanlangan texnologiya, metod, usul va vositalar o'quvchilarning asar qahramonlari sezimlari, personajlar o'rtasidagi o'zaro ixtilof va kelishmovchiliklar sababini aniqlab, ulardan to'g'ri xulosa chiqarishlariga zamin hozirlaydi.

"Inson, shaxs jumbog'i, bu jumboqni yechishga intilish, inson hayoti mohiyatini anglashga, shaxs tabiati va ruhiyatini taftish va tahlil qilishga intilish – romanning, umuman, badiiy adabiyotning bosh vazifasi"¹ ekanligi nazarda tutilsa, tahlil jarayonida qahramonlar xatti-harakatlari, e'tiqodlari yo'lidagi kurashlari va kechinmalariga odamiylik nuqtayi nazaridan baho beriladi.

Jarayon avvalida "Zanjir" usuli asosida Muhammad Tarag'ay Ulug'bek hayoti va merosi yuzasidan taqdimot o'tkazilishi rejalashtiriladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida tayyorlanadigan slaydlar namoyishida alloma aql-idroki va zakovati, uning dunyo ilm-fani tamadduniga qo'shgan hissasi o'z aksini topmog'i zarur.

Navbatdagi bosqichda shaxsning individual kamol topishi uchun zarur bo'ladigan hayotiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan FSMU texnologiyasidan foydalanilishi maqsadga muvofiq.

Mazkur texnologiya o'quv dasturida o'rganilishi rejalashtirilgan bo'lim, bob, mavzular yoki mustaqil o'qishga tavsiya etilgan asar bilan to'liq tanishib chiqilganidan so'ng bahs-munozarali masalalar, muammoli vaziyatlarni hal etishda qo'llanilishi mumkin.

Texnologiyaning maqsadi mustaqil fikr yuritishga, o'z nuqtayi nazarini asoslab himoya qilishga yo'naltirishi, tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi fikrlarni bildirishi barobarida o'quvchilarning bilimlarini aniqlash, ijodiy qobiliyatlari va imkoniyatlarini namoyon etish hamda dunyoqarashlarini boyitishni nazarda tutadi.

Texnologiyaning vazifalari:

– o'quvchining individual xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan usul va vositalar to'g'ri tanlanishi;

¹ Куронов Д. "АДАБИЁТ НАДИР" ёки Чулпоннинг мангу саволи. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: "Zarqalam", 2006. – 105-6.

– oʻrganilayotgan fan boʻyicha davlat taʼlim standarti talablari koʻzda tutilishi;

– muammo tahlili jamiyatdagi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ulugʻlashga qaratilishi;

– fanlararo, dars va texnologiya bosqichlari oʻrtasidagi integratsiyaga amal qilinishi;

– mavzuga oid qoʻllanma, jadval va tarqatma didaktik materiallar tayyorlanishi zarur.

Oʻziga xos xususiyatlari:

– oʻquvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari eʼtiborga olinadi hamda bilish jarayonlari rivojlantiriladi;

– mavjud nazariy tushunchalar yordamida muayyan hayotiy koʻnikma va malakalar shakllantirilishiga erishiladi;

– doʻstona munosabatlar mustahkamlanadi, hamjihatlikda ishlashga odatlantiriladi.

Texnologiya bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

Oʻtkazish tartibi:

Birinci bosqich. Dastlab bahs mavzusi, muhokama qilinishi zarur boʻlgan muammoli vaziyatlar belgilab olinadi. Oʻquvchilarga har kim shaxsiy fikrini erkin bayon etishga haqliligi uqtirilgan holda avval yakka tartibda, soʻngra guruhlar va jamoa tarzida faoliyatlarini davom ettirishlari maʼlum qilinadi.

Ikkinchi bosqich. Oʻquvchilarga yakka holda ish yuritishlari eslatilib, texnologiyaning toʻrt bosqichi nomi qayd etilgan varaqlar tarqatiladi. Jumladan:

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringiz bayoniga biron sabab koʻrsating.

M – koʻrsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring¹.

Oʻquvchi qogʻozga munozara mavzusi yuzasidan texnologiyaning har bir bosqichiga tegishli nuqtayi nazarini yozma holda ifodalaydi.

Uchinchi bosqich. Vazifa bajarilgach, oʻquvchilar kichik guruhlarga birlashtiriladi. Har bir guruhga texnologiyaning toʻrt bosqichi yozilgan kattaroq hajmdagi qogʻozlar tarqatiladi. Guruhlardan toʻrt bosqich boʻyicha fikr-mulohazalarini umumlashtirib yozish soʻraladi.

¹ Ишмухамедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йуллари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2007. –11-13-б.

To'rtinchi bosqich. Kichik guruhlarda har bir o'quvchi avvalgi bosqichlarda yozgan fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtiradi. O'rganilgan fikrlar umumlashtiriladi. So'ngra FSMU to'rt bosqichining har biri yuzasidan fikrlar himoyasiga hozirlik ko'riladi.

Beshinchi bosqich. Guruhlarning umumlashtirilgan fikrlari himoyasi amalga oshiriladi. Har bir bosqichdagi muayyan mulohazalar guruh a'zolari tomonidan alohida o'qib eshittiriladi. Ayrim mulohazali vaziyatlar yuzasidan chiqarilgan xulosalarga oydinlik kiritiladi.

Oltinchi bosqich. Bahs-munozaraga yakun yasali, o'quvchilar bayon etgan fikrlarga o'qituvchining munosabati tinglanadi. Mashg'ulot mavzusi, maqsadidan kelib chiqib, o'quvchilarga savollar bilan murojaat qilinadi. Masalan:

1. Bahs-munozaralarning mavzusini aniqlang.

2. Murakkab vaziyatlarni baholashda qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?

3. Munozaradan o'zingiz uchun nimalarni kashf etdingiz? va hokazo.

Afzalliklari:

– muammo mohiyatiga xolisona yondashish imkoniyati yaratiladi;
– borliqdagi har bir voqea-hodisaga munosabat bildirish, qiyoslash va xulosa chiqarishga o'rgatiladi.

– fikr va g'oyalar eshittiladi, jamlanib guruhlanadi;
– yangi g'oyalar e'tirof etiladi, fikrlar rang-barangligiga erishiladi;
– o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi;
– o'z qarashlarini erkin bayon etish, asoslash, himoya qilish ko'nikma va malakalari shakllantiriladi;

– mantiqiy, tanqidiy, ijodiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi;

– o'zgalar fikrini tinglash, hurmat qilish, jamoa bilan ishlash tajribasi o'rtililadi;

– fikrlarini boshqalarga yetkazish mahoratiga ega bo'linadi;
– jamoatchilik ichida o'zini tutishga odatlantiriladi, nutq madaniyati o'stiriladi;

– qat'iylik, o'z maslagida sobitlik xislatlari tarbiyalanadi;

– oddiy tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi.

FSMU texnologiyasidan adabiy ta'lim jarayonida foydalanishning samarali jihatlaridan biri sifatida o'quvchilar asar g'oyasini teran anglashi va qahramonlar ruhiyatini chuqurroq taftish qilishga yo'naltirishdan iboratligini ta'kidlash joiz.

Bahs-munozarada ishtirokchilardan personajlar o'rtasidagi konfliktlar aks etgan o'rinlarni topib, fikr-mulohazalarini dalillar asosida isbotlashlari talab qilinadi.

Har qanday ta'lim texnologiyasi kabi FSMU texnologiyasidan foydalanish ham o'qituvchining bilimi, kasbiy kompetensiyasi va ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirganlik darajasiga bog'liq.

Badiiy asarlar tahliliga mazkur texnologiyani joriy etish adabiy ta'lim mazmunidan ko'zda tutilgan muayyan ko'rsatkichlarga erishishda, shubhasiz, ijobiy samara beradi. Jumladan, texnologiya "Ulug'bek xazinasi" romanini o'rganish misolida o'quvchilarni:

- sujetni harakatga keltiruvchi psixologik, ijtimoiy va shaxsiy konfliktlarni guruhlay olishga;

- personajlarning xarakterli jihatlarini ajrata bilishga;

- qahramonlar xatti-harakatlariga munosabat bildirish va his-tuyg'ularini idrok etishga;

- voqea-hodisalarni haqqoniy baholashga;

- fikrini og'zaki va yozma holda asoslash ko'nikmasini egallashga;

- murakkab vaziyatlarda qahramonlar o'rniga o'zlarini qo'yib, ulardan tegishli xulosalar chiqarishga;

- asarning eng muhim tarbiyaviy jihatlarini anglay bilishga;

- qahramonlarning ibratli jihatlaridan zarur hayotiy saboq olishga o'rgatadi.

Jarayon avvalida Mirzo Ulug'bekning insonlar o'rtasidagi oqibat-sizlikdan chekkan iztiroblari aks etgan o'rinlar aniqlanib, fikr-mulohazalar dalillar asosida isbotlanishi so'raladi. Tahlil shunday uyushtirilishi kerakki, o'quvchilar tengdoshlari fikriga qo'shiluvchi tinglovchi emas, balki o'z mulohazalarini matndan dalillar bilan asoslab bera oladigan faol va qat'iyatli ishtirokchiga aylansin. Masalan:

F – Bir guruh fitnachi amirlar bilan til biriktirgan shahzoda Abdullatif Samarqandga yurish boshlab, Movarounnahr taxtini egallaydi.

S – Farzandlik haqini ado etmagan johil o'g'il va Mirzo Ulug'bekdan go'yoki o'zini jabrlangan hisoblovchi ba'zi g'alamis saroy a'yonlari va din peshvolarining asl maqsadlari boylik orttirish va mansab egallash edi.

M – Dilbandi va yaqin insonlarining xiyonatini kutmagan Mirzo Ulug'bek ilojisiz ahvolda qoladi. Qaysi qal'aga bormasin, uning uchun darvozalar yopilgan edi. Dorug'a Mironshoh, turkman begi Ibrohim

Po'lat kabi nomard kimsalarning sotqinligidan afsus-nadomatlar chekadi. Dorussaltana darvozasi ochilmagach, ko'ksida tug'yonli alam bilan ot choptirib kelgan hukmdorni ichkarida berkinib olgan Sulton Jondor kalaka qilib, shaharga kirishiga izn bermaydi.

Amiming xoinligi va ikkiyuzlamachiligini kutmagan Mirzo Ulug'bek g'azabdan o'zini bosolmay deydi: "Voajabo! Bu mal'un lashkarni tashlab qochganda... dorussaltanaga kelgan ekan-da! Lekin qachon, qaysi yo'ldan o'tib keldi? Unga darvozani kim, nechun ochdi?.. Bu beimon kazzoblar qachon til biriktirgan? Bu diyonatsiz insonlar, bu amiru umarolar, arkoni harb va arkoni davlatlardan hazar, alhazar! Qayga bormang, hammayoqda makkorlik, razolat va riyokorlik!"¹.

U – Ko'rinadiki, ayrim odamlar o'ch olish, toj-taxt egallash, amal ilinjida odamiylikni unutilib, jinoyatdan tap tortmaydilar. Munofiqliklari oqibati yaxshilikka olib kelmasliklarini, qachondir qilmishlariga yarasha jazolanishlarini o'ylab ham ko'rmaydilar.

Topshiriqni shu taqlidda bajargan guruhlarda bir-birlarining javoblariga qo'shimcha va izohlar kiritib, fikr-mulohaza yuritish imkoni paydo bo'ladi.

Otani nohaq ranjitib, behurmat qilish, unga qarshi borish o'zbek xalqi mentalitetiga yot illat. Shu o'rinda farzandning ota-ona va oilasi oldidagi burchi haqida "Aqliy hujum" uyushtirilib, mavzu hayotga bog'lanib mulohaza yuritilsa, taniqli olim P.Shermuhamedovning quyidagi fikrlari o'z tasdig'ini topadi: "Yozuvchi qalamga olgan davrni chuqur o'rganishi, tarixiy haqiqatga to'la rioya qilishi, ayni zamonda voqealarning bugungi kunga hamohang tomonlarini bo'rttirib ko'rsatishi lozim. Aks holda, tarixiy voqealarga murojaat qilishning ahamiyati bo'lmaydi. Axir har bir badiiy asar bugungi kunimizga xizmat qilishi zarur-ku!"².

Navbatdagi bosqichda ota va o'g'il o'rtasida paydo bo'lgan ziddiyatlar ildizi aniqlanib, masalaning boshqa bir jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, shahzoda qilmishlari oqibatini faqat yengil hayotga ruju qo'yganligida deb emas, balki atrofni ma'rifatni bid'at biluvchi jaholatparastlar egallab olganligiga, bolaligidan olis yurtda, ota-ona mehridan benasib "...tirik yetimcha bo'lib, ko'ngli o'ksib"³ bobosi Shohruh Mirzo saroyida ulg'ayganligiga bog'lab sharhlash orqali

¹ Ёқубов О. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. Улуғбек хазинаси. – Тошкент: "Шарк", 2007. – 85-6.

² Шермухамедов П. Тарихнинг руҳий муаммоси. Ўзбек адабий танқиди. – Тошкент. "TURON-IQBOL", 2011. – 195-6.

³ Ёқубов О. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. Улуғбек хазинаси. – Тошкент: "Шарк", 2007. – 166-6.

Abdullatif tabiatidagi xudbinlik, bagʻritoshlik, oʻzgalar taqdiriga loqaydlik kabi illatlarni baholash mumkin boʻladi.

Xulosa qilganda, adabiy taʼlim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish mustaqil tafakkurli Barkamol shaxsni tarbiyalash va yosh avlodning jamiyat oldidagi fuqarolik burchini anglatishga xizmat qiladi.

I.2. Badiiy asar tahliliga tayyorgarlik bosqichlari

Ifodali, sharhli, badiiy oʻqish, hikoya qilish, suhbat oʻquvchilarni tahlilga tayyorlaydi va asar mohiyatini ochishga, yozuvchi mahorati haqida tasavvur uygʻotishga yordam beradi. Tahlil uchun oʻqituvchi qanday usulni tanlamasin, gʻoyaviy-badiiy muammolar, bosh qahramonlar, ularning taqdiri va muallifning hayotga qarashi diqqat markazida boʻlishi lozim.

Asar tahliliga kirishayotib oʻqituvchi ishning asosiy bosqichlarini belgilashi bilan quyidagi masalalarni hal qiladi:

- tahlilning maqsad va mazmunini (oʻquvchilar nimani va qanday maqsadda oʻrganadi) aniqlashi;
- ishni tashkil qilish rejasini tuzishi (mashgʻulot bosqichlarini rejalashtirish, topshiriqlar tizimini ishlab chiqish);
- oʻquvchilarning yosh xususiyatlari va bilish jarayonlarini eʼtiborga olishi kabilar.

Adabiyot oʻqitish metodikasida asar ustida ishlash, kirish va yakunlovchi mashgʻulotlar tahlilga tayyorlash bosqichlari sifatida qaraladi.

6-sinfda Mirpoʻlat Mirzoning “Irmoq”¹ sheʼrini mustaqil oʻrganish maqsadini belgilashda shoir poetik olamiga nigoh tashlash orqali umr haqidagi falsafasi anglanishi nazarda tutiladi.

Tahlilda A.Oripovning “Tilla baliqcha” sheʼri sujetiga asoslanish hamda taqqoslash metodidan foydalanib ish yuritish muallif koʻzlagan maqsad va gʻoyani yuzaga chiqarishda qoʻl keladi.

Sheʼrda tasvirlanishicha, nogoh osoyishta, bamaylixtir yoʻlida davom etayotgan zilol irmoq qarshisida shiddatli boʻtana paydo boʻlib, uni oʻz domiga tortadi. Lojuvard irmoq jonholatda oʻzini har yonga urib mavjlanmasin, choʻng nahrning shafqatsiz toʻlqinlari qarshisida ojiz qolib, loyqa muhitga qoʻshilib ketadi.

Shu zaylda mahv etilgan irmoq koʻz yoshi toʻka-toʻka qismatiga koʻnika boshlaydi. Chorasizki, na beayov bahri muhit ichida oʻz yoʻlini topa biladi, na daryo suvini toza qila oladi...

¹ Мирпулат Мирзо. Сайланма. Шеърлар. – Тошкент: “Шарх”, 2004. – 197-б.

Irmoq taqdirini xuddi baliqchaga ravo ko'rilgan hayot tarzi bilan qiyoslash mumkin. Muallif irmoq va daryo obrazlari orqali haqsizlik, zo'ravonlik inson hayotini tubdan o'zgartirib yuborishi, erksizlik ulkan halokat ekanligini majoziy yo'sinda aks ettiradi.

Tahlil bosqichlarini **“Birgalikda o'rganamiz” (“Koop-koop”)** usuli talablariga muvofiq quyidagicha rejalashtirish mumkin:

<i>Tahlil bosqichlari</i>	<i>Tahlil mazmuni</i>	<i>Ta'lim beruvchi faoliyati</i>	<i>Ta'lim oluvchi faoliyatining natijalari</i>
I bosqich	Asarni o'qish, tuzilishini o'rganish.	Sujet va kompozitsiya haqidagi ma'lumotlarni multimediy vositalari bilan uyg'unlikda tanishtiradi.	Ifodali o'qish malakalari rivojlantiriladi, asar qurilishiga oid tushunchalar o'zlashtiriladi.
II bosqich	Hissiyotlariga ta'siri yuzasidan suhbat o'tkazish.	Mavzuga oid savollar bilan murojaat qiladi.	Axloqiy fazilatlar, insoniy his-tuyg'ular kamol toptiriladi.
III bosqich	Matnning badiiy xususiyatlarini aniqlash.	Obraz, xarakter, tip, shakl va mazmun, detal, badiiy til, poetik sintaksis, janr, uslub kabi tushunchalarni asar tabiatidan kelib chiqib izohlavdi.	Qahramon kechinmalari, matn mazmunini ochishga yordam beruvchi tasviriy vositalar aniqlanadi.
IV bosqich	Ijodkor ifoda uslubi va mahoratini belgilash.	Mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltiradi.	Hayotning muallif ongidagi in'ikosi idrok etiladi.
V bosqich	Ifodalangan g'oya yuzasidan fikr-mulohaza vuritish.	Yozuvchi maqsadini aniqlashga yordam beradi.	Muayyan xulosalar chiqariladi, fikr almashinadi.

Asarni o'rganish tahlil bilan yakunlanmaydi. Undan keyin o'tkaziladigan sintez-umumlashma darslar o'quvchilarga asarni yaxlit idrok etishga, uning ichki tuzilishiga kirib borishiga yaqindan yordam beradi.

Adabiy asarning janr xususiyatiga ko'ra tahlili. Adabiyot o'quvchilarga turli davrlar, hayotiy voqealiklar, insoniy munosabatlar, xarakterlar bilan tanishish imkonini beradi, fikr yuritishga o'rgatadi. Ayniqsa, inson va jamiyat hayotining barcha qirralarini aks ettirishiga ko'ra nasr yetakchi mavqeda turadi. O'qituvchi tahlilning u yoki bu yo'lini o'rganilayotgan asar mazmuni, tuzilishi va hajmiga qarab tanlaydi hamda rejaga tayanadi. Badiiy asar yuzasidan tuzilgan savollar uning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochishga, hikoyaga mustaqil baho berishga imkon yaratadi. O'quvchilar topshiriqlar bo'yicha matndan tanlangan zaruriy materialni tahlil qiladi va mustaqil xulosalar chiqaradi.

"Lirik va dramatik asarlardan farqli, – deb yozadi professor M.Mirqosimova – epik turga taalluqli asarlarga qamrab olingan hayotiy hodisalar makoni kengroq, ularda voqealar va qahramonlarning nasriy yo'sindagi tasviri yoki talqini yetakchilik qiladi; ziddiyatlar, holatlar tasviri janr miqyosiga mos salmoqdor ma'nolarni ifoda etadi: qahramonlar qiyofasidan anglashiladigan mazmun esa ularning xatti-harakatlari bilan kurashlariga tuyg'ulari va maslaklariga bog'lanib, yaxlit holda asar g'oyasini yuzaga keltirishi haqida o'quvchilar to'la tasavvurga ega bo'lishlari shart"¹.

Yirik epik asarlar tahlili bir necha bosqichda amalga oshirilishi mumkin. Tahlil muammosini belgilash va o'quvchilarni o'rganilayotgan asarga qiziqtirish kirish mashg'ulotlarining asosiy maqsadidir. U asar ustida ishlashning umumiy rejasiga bog'liq holda tashkil qilinadi. Bu turdagi mashg'ulotlarining shaklan va mazmunan xilma-xil bo'lishi haqida professor B.To'xliyev shunday fikr yuritadi: "Ba'zan u bir-ikki muhim detallar tavsifi va bayonidan iborat bo'lsa, ba'zan muayyan tarixiy davr va sharoit, yozuvchining tarjimai holidagi eng muhim qirralar, muayyan asar atrofidagi muhim ijtimoiy-siyosiy va badiiy-estetik hodisalar tahlilidan iborat bo'lishi mumkin"².

Kirish mashg'ulotlarida asarning yaratilish tarixi, yozuvchi shaxsiyati haqida so'z boradi, roman yoki qissada yoritilgan hayotiy muammolarni asoslash ustida fikr yuritiladi. Jumladan, Z.Saidnosirovaning

¹ Миркосимова М.М. О'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan dok. diss... – Toshkent: 1995. – 147-6.

² Тухлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Toshkent: "Янги аср авлоди", 2006. – 59-б.

“Oybegim mening”, K.Qahhorovanning “Chorak asr hamnafas”, H.Qodiriyning “Otam haqida”, M.Ahmedovanning “Men qaytib kelaman”, N.Karimovning “Maqsud Shayxzoda”, M.Garning “Mahallamning oltin tuproqlari”, Sh.Usnatdinovning “Shoirning yoshligi” yoki “Rauf Parfi saboqlari” kabi manbalardagi xotiralar yozuvchi shaxsi, tafakkur dunyosi, ijodiga qiziqish uygʻotadi, asarni puxta oʻzlashtirishga imkon yaratadi.

Ayrim asarlari yuzasidan shunchaki fikr yuritish orqali biror yozuvchi maʼnaviy olamiga yetarlicha baho berib boʻlmaydi. Shu nuqtayi nazardan olganda, ijodkor xarakteri, dunyoqarashi va hayotiy maslagi yaratgan asarlaridagma emas, balki zamondoshlari, yaqin insonlariga yoʻllagan xatlari, yuritgan kundaligi-yu tundaliklari (A.Muxtor. “Uyqu qochganda”. 1997) ga chuqurroq nazar tashlash orqali yanada oydinlashadi.

Taniqli rus olimi V.G.Belinskiyning fikriga koʻra, yozuvchi ijodi oʻrganishga kirishilar ekan, eng avvalo, uning “shaxsiyati siri”ni anglash zarur. Aynan yozuvchi shaxsiyati va uni oʻrab turgan atrof-muhit bu holatda asar tahlilining tayanch nuqtasi boʻlib qoladi. Tahlil jarayonida ijodkor shaxsiyati, yashagan davr va tasvirlanayotgan hayot voqeligiga munosabatini ochib berish imkoniyati boʻlsa, tahlil maqsadiga erishish qiyin kechmaydi.

Uzluksiz adabiy taʼlim jarayonida maktublardan foydalanish muhim oʻrin tutadi. Xususan, umumiy oʻrta taʼlim maktablari 5-9-sinf adabiyot darslarida Gʻ.Gʻulom, A.Qahhor, Mirtemir, S.Ahmad, S.Zun-nunova, Oʻ.Hoshimov va boshqa adiblar ijodini oʻrganishda ularning oʻzaro yozishmalaridan foydalanish oʻquvchilarda iliq taassurot qoldiradi.

Aslida qadimdan ijod ahli orasida noma yozish anʼanasi mavjud boʻlgan. Noma oʻzbek mumtoz adabiyotida alohida janr sifatida shakllangan boʻlib, bu soʻz forschadan tarjima qilinganida “xat”, “maktub” maʼnolarini anglatadi.

1207-1273-yillarda yashab oʻtgan valiy Jaloliddin Rumiylar hazratlarining saljuqiylar sultonlari, davlat arboblari atalgan 147 xatdan iborat “Maktubot”i qadim Sharqda epistolyar janr taraqqiy etganidan yorqin namunadir.

Manbalardan Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi buyuk shoirlar oʻrtasidagi doʻstona rishtalarni olijanob maqsadlarga yoʻgʻrilgan yozishmalar yanada mustahkamlagani yaxshi ayon. Zero, “Xamsat ul-mutahayyirin” asarining “Ikkinchi maqoloti” mutafakkirlarning

mamlakat obodligi, yurt osoyishtaligi yoʻlidagi ezgu gʻoyalari tarannum etilgan bitiklardan tashkil topganligi bilan ahamiyatga molik.

Alisher Navoiy ijodida mazkur janr unumli qoʻllanilganligi Husayn Boyqaro va boshqalar bilan olib borgan yozishmalarini toʻplab “Munshaot” tuzganligida ham namoyon boʻladi.

Oʻquvchilar mashgʻulotlarda shoir hayoti ziddiyatlar va murakabliklar ichra kechganligi haqidagi tarixiy faktlarga duch keladilar. Jumladan, Abusaid Mirzo hukmronlik qilgan yillarda uning boshiga ham anchagina kulfatlar yogʻiladi. Abusaid Mirzo hokimiyatni egallaganidan soʻng taxtga daʼvogar Husayn Boyqaroning yaqin kishilariga zulm va tazyiqlar oʻtkazadi. Alisherlar oilasi ham bundan chetda qolmaydi. Shoirning ota merosi musodara qilinib, togʻalari Kobuliy va Gʻaribiylar qatl etiladi, oʻzi esa Hirotdan ketishga majbur boʻladi. Barcha koʻngilsizliklardan iztirobga tushgan Navoiy xalqning ogʻir ahvoli hamda oʻz kayfiyatini bayon etib, otasidek boʻlib qolgan Said Hasan Ardasheriga xat yozadi.

Darslarda “Xazoyin ul-maoniy” ning birinchi devoni – “Gʻaroyib us-sigʻar” inson shaʼnini ulugʻlab ustoziga yoʻllangan hasbi hol tarzidagi sheʼriy maktublardan iborat ekanligi mantiqiy izchillikda yetkazilsa, shoir shaxsiyati quruq gaplar emas, balki hayotiy voqealar misolida anglanishiga erishiladi.

Barcha davrlarda dunyo xalqlarini qiziqtirib kelgan epistolyar namunalar maʼlum darajada jamiyat manfaatlarini ifodalashi hamda muayyan soha taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan ham oʻziga xos xususiyatlarga ega.

Taniqli adib Muhammad Alining ilmiy izlanishlarida Movaroun-nahr, Turkiston, Markaziy Osiyo tarixiga oid masalalar yuzasidan rus sharqshunosi, Kembrij universiteti professori V.F.Minorskiy, amerikalik Devin de Vis, moʻgʻulistonlik akademik Shagdarin Bira, venalik nemis olimi Karel Yanlarning oʻzbek tarixchisi B.Ahmedov bilan oʻzaro yozishmalari misol qilib keltirilganini taʼkidlash mumkin.

“Meni Rashiddinning turkiy tarjimalari qiziqtirib keladi, – deb yozadi vengriyalik sharqshunos Ishtvan Vashari 1987-yil 2-noyabrda B.Ahmedovga yoʻllagan maktubida. – Qaydadir Gʻozi Olim Yunusning “Maorif va oʻqitgʻuvchi” (1929-y.) jurnalida bosilgan maqolasiga ishora oʻrgandim. Afsuski, bu jurnalni bizning tomonlarda topib boʻlmaydi, muallifning yozishicha, Rashiddinning turkiysi bor emish, Samar-

qandda... Tarjima Temuriylar zamonida ado etilgan... siz shu qo'lyozma haqida nima deya olasiz?..."¹

O'zbek adabiy tanqidchilik tarixi xususida so'z borganda, albatta, Fitratning "Yopishmagan gajaklar" (O'rtoq J.Boybo'latovga ochiq xat) nomli maqolasi tilga olinadi.

"Yopishmagan gajaklar" shunchaki nohaq bir tanqidga javobgina emas, – deb yozadi adabiyotshunos olim B.Qosimov "Alloma adib" nomli so'zboshisida, – go'zallikni, chinakam adabiyotni anglash, idrok etishdan uzoq nuqtayi nazarning, olmadan qurt qidirishning (A.Muxtor) jamiyat hayotida tobora kuch olayotganini teran his qilish va unga qarshi isyon edi. Noprofessionalizmga, Krilov aytgan etikdo'zning holva pishirib, holvapazning etik tikishiga qarshi isyoni edi. Gap shundaki, J.Boybo'latov Fitratning o'tmish adabiyot namunalarini bittama-bitta yig'ib, tozalab, saralab, izohlab o'quvchiga taqdim etishdek og'ir va sharaflı ishni dushmanlik, zararkunandalik hisoblagan va buni adibning butun faoliyati misolida "isbot" qilishga uringan edi"².

Oradan qancha vaqt o'tsa hamki, bugun olimlar "Yopishmagan gajaklar" xususida o'z so'zlarini aytishdan to'xtashgani yo'q. Jumladan, muxolifning asossiz malomatlariga Fitratning javob qaytarish mahorati, voqeliklarni real baholashga chaqirig'ini professor O.Safarov Belinskiyning "Gogolga xat"iga qiyoslaydi³.

Shu o'rinda rus klassiklari A.S.Pushkin, A.P.Chexov, I.S.Turgenov, F.M.Dostoyevskiylar maktubshunoslik maktablari boshqa xalqlar adabiyotida bu soha rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatganligini qayd etish zarur. Xususan, Sobit Muqonovning A.Tolstoy, A.Fadeyev, K.Fedin, N.Tixonov, V.Shklovskiy, L.Sobolyev, V.Rojdestvenskiy I.Erenburg, I.Shuxov, N.Fozilov, J.Kopeyev, Sh.Xudoyberdiyev kabi zamondoshlari bilan yozishmalari adib epistolyar merosi boy va rang-barangligidan dalolat beradi⁴. Ular qozoq adabiyotida yechimini kutayotgan dolzarb muammolar yoritilganligi va yozuvchining yaratilajak asarlariga xalqdan ma'lumot to'plash uslubi ekanligi bilan ajralib turadi.

Shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni ifodalashiga ko'ra xatlar turlicha guruhlanadi. Nemis adabiyotining yirik vakili Fridrix Shil-lerning zamondoshlari Y.V.Gyote, V.Humbold, V.Shligel, I.Kant, G.Kyorner, A.Iflandlarga yo'llagan xatlari adib ruhiy olami, dunyo-

¹ Мухаммад Али. Ўз-ўзингни англаб ет. – Тошкент: "Sharq", 2012 – 199-б.

² Абдурауф Фитрат. Чин севиш. –Тошкент: "Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти", 1996. – 20-б.

³ Сафаров О. Фитратнинг бир очик хати хақида. // "Ўзбек тили ва адабиёти". –Тошкент: 2012. № 6. – Б. 35.

⁴ Қулбек Эргүбек. Ёзувчи ижодхонаси. –Туркистон: Аҳмад Яссавий номидаги қозоқ-турк университети "Турон" басмахонаси, 2007. –55-б.

qarashi, ijodiy uslubi, yashash tarzi, mamlakatdagi siyosiy, madaniy hayot, adabiy jarayon haqida ham o'quvchida muayyan tasavvur uyg'otadi. Adib epistolyar merosi bilan tanishar ekanmiz, professor Sh.Karimovning xatlarni "milliy koloritga boy rang-barang realistik portretlar va lavhalar galereyasi"¹ tarzidagi e'tirofi qanchalik haqiqatga yaqinligiga guvohi bo'lish mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi Qo'qon adabiy muhiti vakillari Muqimiy, Furqat va Zavqiy o'rtasidagi bitiklarni shaxsiy mazmundagi maktublar sirasiga kiritish o'rinli bo'ladi. Furqatning yaqin do'stlariga Yorkent, Istanbuldalik chog'ida yozgan she'riy maktublari mazmuni ijodining yetakchi g'oyasi – ona yurtidan judolik alamlariga vobastaligi tasodifiy hol emas, albatta. Ular orasida, ayniqsa, Muqimiyga Bombaydan yo'llangan xat Hind o'lkasi tabiati, shahar aholisining turmush darajasi atroflicha tasvirlangani bilan xarakterlidir.

Mirtemir, I.Yusupov, S.Muqonov, Q.Malikovlar o'rtasidagi yozishmalarda tarjima san'ati masalalari qatori qalblari tutash qardosh xalq vakillari o'rtasidagi millatlararo hamjihatlik g'oyasi mujassamligini sezish qiyin emas. Ch.Aytmatovning T.Qayipbergenovga "Qoraqalpoq dostoni" trilogiyasi xususida yo'llagan "Insoniyat tarixi so'qmoqlarida"² mazmunidagi maktublarni adabiy, madaniy hamda siyosiy aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida tavsiflash mumkin.

XX asr o'zbek adabiyoti xazinasida yosh qalamkashlarni ijod sirlarini mukammal o'rganishga rag'batlantiruvchi mazmundagi maktublar salmoqli o'rin egallaydi. Endigina adabiy jarayonga kirib kelayotgan iqtidor egalariga G.G'ulom, A.Qahhorday hassos so'z ustalari yozgan xatlar ularga kelgusida o'z uslublarini belgilab olishlari uchun mezon bo'lganligini ta'kidlash mumkin. Shuningdek, yozishmalardan milliy adabiyot ravnaqi va istiqboli uchun qayg'urgan ustoz adiblarning odamiylik xususiyatlari ham o'quvchi tasavvurida jonlanadi.

Adabiy ta'limdan ko'zlangan maqsad – Barkamol shaxs tarbiyasini amalga oshirishda mashg'ulotlarni mavzuga oid maktublardan foydalangan holda tashkil etish ijobiy samarasini beradi. Jumladan, 7-sinf adabiyot darslarida A.Qahhor hayoti va ijodini xatlarga bog'lab o'rganish yozuvchiga xos sinchkovlik, g'amxo'rlik va talabchanlik jihatlarini yuzaga chiqaradi.

¹ Каримов Ш. Шиллер ва унинг эпистоляр мероси. // "Jahon adabiyoti" – Toshkent: 2014. № 11. – Б. 141.

² Курамбоев К. Туркий адабиётнинг забардаст адиби. Ўзбек адабий танқиди. – Toshkent: "TURON-IQBOL", 2011. – 261-б.

Ilk mashqi bosilib chiqqan talaba O‘.Hoshimovga yo‘llagan maktubi misolida yozuvchining kamol topayotgan iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlashi, ularga xayrixohligi namunasini sezish mumkin. Masalan:

“Cho‘l havosi”ni o‘qib. – deb yozadi Abdulla Qahhor, – suyunib ketdim. Birdan lov etib, alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porliq bo‘ladi. Qissa sof, samimiy, tabiiy, iliq, rohat qilib o‘qiladi. Qissaning xat shaklida bo‘lishi ko‘p o‘rinlarda sizni cheklab qo‘ygan. Asar bosh qahramon tilidan hikoya qilinganida ham shunday bo‘lardi. Kelgusida buni hisobga oling. Shu alanga hech qachon pasaymasin. Ijodingiz hech qachon tutamasin. Salom bilan, Abdulla Qahhor”¹.

O‘zbek adabiyoti tarixida shaxsiy hayoti va ma‘naviy fazilatlar bilan bugungi kun o‘quvchisiga o‘rnak bo‘la oladigan adiblar ko‘pchilikni tashkil etadi. Jumladan, taniqli hikoyanavis, O‘zbekiston Qahramoni Said Ahmad shunday ijodkorlardan biridir.

Kitobxonlarga yozuvchi ayni navqiron yigitlik chog‘ida ko‘plab o‘zbek ziyolilari qatori nohaq qatag‘onga uchrab, umrining besh yilini Qozog‘istonning Jezqozg‘on konlarida o‘tkazgani sir emas. Surgundalik yillari uning irodasi metinday toblandi, haqiqat hech qachon yengilmasligiga ishonchi ortdi. Shu bois el-yurt manfaati, istiqloli uchun butun umri, kuch-g‘ayrati, qalb qo‘rimi baxshida etgan insonlar nomi abadiyatga daxldordir.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining adabiyot fani o‘quv dasturida Said Ahmad umrbayoni va ijodi bilan tanishishga 6-, 8-sinflarda 2 soatdan vaqt ajratilgan.² Yozuvchi tarjimai holi u mahbusligida rafiqasi S.Zunnunovaga yozgan maktublar bilan uzviylikda o‘rganilsa, shaxsiyatining muhim qirralari, sho‘rolar davridagi muhitning biqirligi, adibning atrofidagi insonlar bilan munosabatlari haqida mustaqil fikr-mulohaza yuritishga zamin yaratiladi. Buning uchun esa maktublarga bag‘ishlangan sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Kutilgan natijalarga erishishida dastlab loyiha tayyorlanishi, ta‘lim maqsadlari puxta rejalashtirilishi, metod va usullar to‘g‘ri tanlanishi hamda o‘rganilayotgan mavzu mazmun-mohiyatini ochishga qaratilgan topshiriqlar tizimi ishlab chiqilishi zarur.

Mustaqil izlanishlarni tashkil etishda vazifalar qanchalik aniq bo‘lsa, o‘quvchilar faoliyati shunchalik yengil kechadi. Mashg‘ulotga qadar o‘quvchilarga xatlarning mavzusi, tuzilishi, g‘oyasini o‘rganish;

¹ Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида. – Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат наприёти”, 1987. – 260-6.

² Uzviylashtirilgan davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili. (5-9-sinflar). – Toshkent: “Yangiyo‘l poligraph service”, 2010. – 66, – 81-b.

badiiy tasvir vositalarini topish; taassurotlarini bayon qilish; o'tgan asr va mustaqillik davri adiblari ijodining farqli jihatlarini belgilash vazifalari topshiriladi.

Manbalarni topishda esa axborot-kutubxona fondidan foydalanishga doir tavsiyalar berilib, adabiyotlar ro'yxati ilova qilinadi. Vaqti-vaqti bilan topshiriqlar ijrosi yakka yoki jamoa tarzida savol-javob, suhbat usullarida nazorat qilib turiladi.

Mashg'ulot maqsadi murakkab insoniy his-tuyg'ular yuzasidan mushohada yuritish va muayyan xulosalar chiqarishni taqozo etadi. Shu bois o'quvchilardan muallif ichki kechinmalari aks etgan jummalarga ijodiy yondashishlari talab etiladi. Binobarin, yozuvchi xarakter xususiyatlari, tafakkur doirasi nafaqat asarlarida, balki maktublardagi har bir so'zda o'zining teran ifodasini topgan.

Yurakdan qog'ozlarga ko'chgan haroratli satrlar o'quvchilarning hayotga bo'lgan qarashlarini o'zgartirishi, qahramonning sermashaqqat, ammo havas qilishga arzigulik umr sahifalari esa ibrat bo'lishi, shubhasiz.

Botiniy ehtiyojlari mahsuli bo'lgan yozishmalarda bu juftlikning bir-biriga samimiy muhabbatlari, maqsadi yo'lidagi kurashlari va e'tiqod qo'ygan jamiyat adolatsizligidan norozilik ohanglari sezilib turadi.

Adib po'rtana misol tug'yon urayotgan hislarini g'oyatda nuqtadonlik bilan tasvirlab, "chinakam do'sti"ni yorug' kunlar kelishiga ishonтиради:

"... Yozgan xatingizda "hasratimni yozay desam, qalamga o't tushib qog'oz kuyib ketdi", debsiz.

O'sha kuygan qalam bilan qog'ozning yolqini mening ham qalbimda alanga olib ketdi. Qalamni kuydirmang. Hijron o'tida toblansin, chiniqsin. Qalam qancha qora bo'lsa oppoq qog'oz betida jonli manzaralarni yanada jonliroq yaratadi. Mana shu qog'ozlarda tasvir etganimiz manzaralardan poyondoz qilib kelajakka bormog'imiz kerak. Ha, birga bormog'imiz kerak. Ruhan tusha ko'rmang. Kitob bilan qalam ulfatingiz bo'lsin.

Men xuddi shunday qilyapman ...¹

Da'vatlariga javoban Saida Zunnunova Said Ahmad kutganidan-da, qat'iyatli bo'ldi va hech qachon nomard kimsalar oldida bosh egmadi. Xo'rliklar, ta'qiblar, "xalq dushmani"dan voz kechish kerakligi

¹ Борлигим, келажагим, тақдиримни баҳам кўрдим. Нашрга тайерловчи Нодира Саид Аҳмад қизи.
// "Saodat". – Тошкент: 2011. № 5-6. – Б. 15.

haqidagi da'volarga chidab, bardosh va sadoqatdan o'zbek ayoliga haykal qo'ya oldi.

Muallif o'zligini yuzaga chiqarishi barobarida maktublar begona tuproqda yurt sog'inchidan o'rtangan inson qiyofasini yaqqol gavdalandiradi:

“... Radio Toshkentdan eshittiryapti. Tanish ovozlari, konsert va nihoyat torda “Cho‘li Iroq”.

Butun vujudim bilan torning titroq sadolariga berilib ketdim, balki ko‘zimdan yosh ham chiqqandir, sezmadim ...”¹.

Kun kelib orzular amalga oshdi. Adib oqlandi va ozodlikka chiqdi. Vatani va xalqi oldida yuzi yorug‘ bo‘ldi. Bunga esa osonlikcha erishilgani yo‘q, albatta ...

Demak, xatlar bu juftlik ma'naviyati ko'zgusi, armonlari ro'yobi hamda haqiqat tantanasiga ilinij manbai bo'lganligini qayd etish mumkin.

Tahlildan kutilgan natijalarga erishishda savol-javoblar o'tkazish o'quvchilarda ijodkor shaxsiyatidagi evrilishlar yuzasidan paydo bo'lgan fikr-mulohazalar bilan o'rtoqlashish imkonini beradi.

1. Oilasi boshiga tushgan baxtsizliklarda adibning faqat o'zini aybdor sanashini to'g'ri deb hisoblaysizmi?

2. Bayram arafasidagi “Qutlov” maktubida “... Kechardim ertangi qolgan umrimdan, Kechardim jonimdan, bo‘lib minnatdor” satrlari ma'nosini izohlang.

3. Shoirning “Ajabmas, bir kun kelib Baxt qo'nsa peshonamga” misralarini qanday tuyg'ular mahsuli deb bildingiz?

4. Xatlardan biridagi “Cho'g'ni qog'ozga o'rab bo'ladimi?” jumlasining ma'nosini izohlang.

5. Ayol kishiga yulvorishni ojizlik va tubanlik deb bilishidan ijodkor tabiatidagi qaysi jihatlarni ilg'adingiz?

6. O'lis o'ika iqlimi, odamlari kayfiyati ham yozuvchi nazaridan chetda qolmaganligi nimadan dalolat beradi?

7. Nima sababdan Toshkent shahrida o'rnatilgan monumentda adib bilan umr yo'ldoshi yonma-yon ishlangan?

Demak, mustaqil va sog'lom tafakkurli, o'z maslagida sobit avlod tarbiyasida epistolyar janr namunalarini o'rganish o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantiradi.

¹ Борлигим, келажегим, тақдиримни бахам курдим. Наширға тайёрловчи Нодири Саид Аҳмад кизи. // “Saodat”. – Toshkent. 2011. № 5-6. – Б. 15.

Matn nafosatini anglash, ilmiy-badiiy tushunchalarni mustahkamlash va asar yuzasidan hal qiluvchi soʻzni aytishda yakunlovchi mashgʻulotlar taʼsirini qayd etmaslikning iloji yoʻq. Mavzuga xotima yasaydigan bu turdagi mashgʻulotlar boshqa darslardan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

a) avval qoʻllanilgan ish usullarga murojaat qilinmaydi;

b) asosiy eʼtibor matnni oʻrganish chogʻida ochilmay qolgan jihatlariga qaratiladi;

d) tahlilda hosil qilingan tushuncha va tasavvurlarni yanada oydinlashtiradi;

e) asar asosida yuzaga kelgan xulosa va taassurotlar salmogʻini oʻzida mujassam etadi;

f) obrazlarga singdirilgan gʻoya va maqsadni atroflicha yoritadi;

g) oʻquvchini yangi muammolar ustida fikrlashga undaydi.

Yakunlovchi mashgʻulotlar adabiy materialning janriy xususiyatiga muvofiqlikda viktorinalar, ifodali oʻqish tanlovlari tashkil etish; musiqali kompozitsiyalar tayyorlash; asarning yorqin lavhalari asosida insenirovka yoki kinossenariylar yaratish; kartina, illyustratsiya, miniaturalar ijod etish; hikoya tuzish va insho yozish kabi taʼlim shakllaridan samarali foydalanish orqali nihoyasiga yetkaziladi.

Adib shaxsiyati va ijodining muhim jihatlariga eʼtibor qaratish muallifning adabiy jarayondagi mavqeini belgilashga ham maʼlum darajada yordam beradi. Maʼlumki, 5-9-sinf "Adabiyot" darsliklarida muayyan shoir yoki yozuvchining ijodda faqat bir yoʻnalish bilan cheklanib qolmaganligi alohida tilga olinadi. Noyob isteʼdod sohibi A.Qodiriy faoliyati ham bundan mustasno emas, albatta.

A.Qodiriy oʻz davrida yozuvchi, shoir, dramaturg, jurnalist hamda tarjimon sifatida ham maʼlum va mashhur boʻlgan. Ammo eʼtibor qilinsa, boshqalardan farqli oʻlaroq, 7-, 9-sinf darsliklarida uning tarjimonlik faoliyatiga oid maʼlumotlar deyarli uchramaydi. Shu bois adib ijodiga bagʻishlanadigan yakunlovchi mashgʻulotlarda uning tarjima sohasidagi ishlariga mumkin qadar toʻxtalib oʻtish foydadan xoli emas. Bu borada tegishli adabiy-tanqidiy maqolalar mustaqil oʻqib-oʻrganishga tavsiya qilinishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotshunos N.Karimovning qayd etishicha, "Uylanish" komediyasining oʻzbekchaga oʻgʻirilishi yozuvchining "Gogol asari tarjimasiga gʻoyat ehtiyotkorlik va masʼuliyat bilan yondashib, muallifning nafaqat masxaraomuz, goh kinoyaviy, goh kulgili tili va uslubi, balki qahramonlarning individuallashtirilgan oʻziga xos nutqlarini

ham o'zbek tilida aniq va adekvat ifodalashga intilgan"ligidan dalolatdir.

Qodiriy tarjimada so'z va tafsilning badiiy matndagi o'rini baholar ekan, bu haqdagi nuqtayi nazarini Chexovning "Buqalamun" asari tarjimasi misolida amaliy jihatdan ko'rsatishga harakat qiladi.

O'tgan asrning 20-30-yillari kitobxonlari adib tarjimasida xorijlik Deni Didroning "Rohiba", Bockachchoning "Chopillo maxdum", Mazuchioning "Jirillama maxdum", "Alfons Dodening "Saodatli Avgustinning aziz duosi", Mark Tvenning "Rohiblarning karomatlari", Yaroslav Gashekning "Xudoga madhiya", "Evergard avliyoning karomati" hamda Emil Zolyaning "Lurd" va "Rumo" asarlari bilan yaqindan tanishishga muvaffaq bo'ladilar. Lekin yozuvchi "bugun biror badiiy va ma'rifiy qimmatga ega bo'lmagan bunday asarlarni tarjima qilishga yo siyosiy zug'um, yoki moddiy ehtiyoj orqasida majbur bo'lgan ko'rinadi"².

Garchi davrlar o'tib yuqoridagi kabi asarlar jamiyat mafkurasi talablari hamda kitobxon qiziqishlarini to'liq oqlamasa ham tarjimonlik bobidagi izlanishlari ijodkor qiziqishlari va intellektual imkoniyatining ma'lum darajadagi ko'rinishidir.

Asarni o'rganish yo'lini tanlash o'quvchilarning bilim darajasi, tahlil tajribasi, ko'zlangan maqsad, o'rganilayotgan mavzuning adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan dolzarbligi singari masalalarning butun bir majmuasi bilan asoslanadi. Ammo tahlil paytidagi nihoyatda qiziqarli metodik topilmalar shablonga aylanib qolsa, ular yaroqsiz bo'lib qolishi mumkin. Bunday noqulay holatga uchramaslik uchun o'qituvchi yengil yo'l qidirmasligi kerak. O'qituvchi uchun qulay bo'lgan holat ko'pincha o'quvchi uchun qiyin va noqulay bo'lishi mumkin.

Ta'limda "Piramida", "Nima uchun", "Baliq skeleti", "Nilufar guli", "Pog'ona" tarkibiy-mantiqiy chizmalari, "Qanday" ierarxik diagrammalari muammoni aniqlash, tahlil qilish, hal etishni rejalashtirishning optimal yo'llari va vositalari sifatida turkumlanadi.

Muammoni belgilash, unga muvofiq yechim izlash, taxminlarni shakllantirish, qo'shimcha ma'lumotlar yig'ish va taqqoslashda "Case-study" (inglizcha "case" – voqea, hodisa; "study" – o'rganmoq) texnologiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Asosini aniq vaziyatlar tashkil quluvchi mazkur texnologiya ilk bor Garvard biznes maktabida

¹ Каримов Н. Абдулла Қодирий – таржимон. // "Jahon adabiyoti". – Тошкент: 2014. № 4 – Б. 90-91.

² Каримов Н. Абдулла Қодирий – таржимон. // "Jahon adabiyoti". – Тошкент: 2014. № 4. – Б. 91.

ishlab chiqilgan. Tahlil uchun tanlangan holatlarda dolzarb mavzu va hal qilinmagan bir qator muammolar aks etishi, matn mazmuni mashgʻulot maqsadiga muvofiq kelishi, shuningdek, axborotlar hajmi yetarlicha boʻlishi talab etiladi.

Keysning amaliy, taʼlimiy va ilmiy tadqiqot kabi turlari mavjud boʻlib, ular zahirida oʻquvchilarning axborotlar bilan ishlash, kommunikativ, pragmatik kabi tayanch, analiz-sintez kabi xususiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasiga eʼtibor qaratiladi.

Texnologiyani joriy etishda dastlab oʻqituvchi tomonidan keys va tahlili uchun savol-topshiriqlar tayyorlanadi. Keyingi bosqichda kirish soʻzi, matn mazmunini oʻrganish, yakka tartibda yoki kichik guruhlarda ishlash, taqdimot, jamoa bahs-munozaralarini tashkil etish, rezyume, taʼlim oluvchilar bilimni baholash va yutuqlarni taʼkidlash kabi faoliyat turlari amalga oshirilishi koʻzda tutiladi.

Taklif etilayotgan keyslar “Blits – sorov”, “Aqliy hujum”, “Oʻylang – juftlikda ishlang – fikr almashing”, bahs-munozara usullari yoki sahnalashtirilgan koʻrinishlar yordamida muhokama qilinadi. Taqdimotda muammoning kelib chiqish sabablari izohlanadi, tasdiqlovchi dalillar keltiriladi, taqdim etilgan yechimlar isbotlanadi.

Taniqli ijodkor X.Doʻstmuhammadning “Panoh” asarini mustaqil oʻrganishda “Case-study” texnologiyasini qoʻllash qalamga olingan muammolarni hal qilishning toʻgʻri va muqobil variantlarini qidirish, keltirilgan farazlarga oydinlik kiritish, masalaning yechimini topish boʻyicha amaliy faoliyatni modellashtirishga imkon yaratadi.

Maʼlumki, zamonaviy oʻzbek nasrida milliy anʼanaviy tasvir yoʻnalishi yangi shakl va usludagi tamoyillar bilan yanada boyib, Sharq va Gʻarb adabiyotining maʼlum darajada sintezlashuviga olib keldi. Jumladan, O.Muxtor, M.M.Doʻst, X.Doʻstmuhammad, N.Eshonqul, E.Aʼzam, Sh.Boʻtayev, L.Boʻrixon, U.Hamdani kabi yozuvchilar ijodida inson shaxsining turfa rakurslardagi tadqiqini kitobxonni yangicha tafakkur yuritishga yoʻnaltiradigan adabiy hodisa sifatida eʼtirof etish mumkin.

Badiiy ijod hayot mohiyati va inson taqdiri tasvirlanishi jihatidan turli metod va oqimlarni taqozo etadi. Ularni qoʻllash esa, albatta, yozuvchi uslubi, shaxsiy pozitsiyasi, mahorati va intellektual imkoniyatlariga ham maʼlum darajada taalluqli.

XX asr boshlarida Yevropada “chindan ham betakror va original bitilgani uchun oʻqilishini istash oqibatida”¹ paydo boʻlgan modern

¹ Йуддоев Қ. Янги авлод овози. // “Шарқ юлдузи”. – Тошкент: 2013. № 6. – Б. 105.

adabiyotida hayotning real ifodasi, borliqdagi in'ikosidan ham ko'ra inson ruhiyati qatlamlarini tasvirlash maqsadi ustunlik qiladi. Doimo o'zgarish, yangilanishda bo'lgan realizm metodi esa xarakter va voqealarni haqqoniy aks ettirishiga ko'ra modernizmdan farqlanadi.

“Ong oqimi” – modernizmdagi ruhiy tahlilning bir turi. Bu estetik tadqiqot kitobxonni yozuvchining hammuallifiga aylantirib, ular o'rtasidagi faol muloqotni ta'minlaydi. Asarni yaxlit bir badiiy tizim, hayotni esa o'zaro bog'liq voqea-hodisalar silsilasi tarzida idrok etish darajasiga yetkazadi.

So'nggi yillarda realizm va modernistik tamoyillar omuxtalashib mukammal qiyofa aks etayotgani X.Do'stmuhammad ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Adibning “ong oqimi”ni tasvirlashdagi ifoda uslubi istiqloq davri o'zbek adabiyotida “modernlashgan realizmning konseptual asosda namoyon bo'lishi”¹ga yorqin namunadir.

Bu haqda adib o'zi e'tirof etganidek: “Millatning mentalitetidagi sifatiiy o'zgarishlar sezilishi juda qiyin bo'lganidek, yozuvchining uslubiiy yangilanishi ham og'ir kechadi. Bir umr o'zining bir xil uslubidan voz kecholmagan, uning iskanjasidan qutula olmagan va shuni to'g'ri va ma'qul deb hisoblagan yozuvchi-shoirilar bor. Shaxsan mening qarashlarim o'zgacharoq, ya'ni uslub o'zgarmasa, dunyoqarash, hayot murakkabliklarini badiiy idrok va ifoda etish yo'sinlari o'zgarmasa, shu yo'lda turfa tajribalarga qo'l urilmasa, bunday yozuvchi nafaqat milliy adabiyotda loaqal o'z ijodida ham biror yangilik yaratishi amri mahol”².

Yozuvchining “Nigoh”, “Oromkursi”, “Chayongul”, “So'roq”, “Hijronim mingdir mening”, “Kuza” kabi qissalarida real voqeliklar ramzlar orqali gavdalanitirilib, o'quvchini ongli ravishda fikr yuritishga, o'ylashga va faoliyat yuritishga majburlashi bilan badiiy qimmatga ega. “Ko'rinadiki, realist san'atkor hayot qa'rida yotgan haqiqatni kashf etuvchi, uning ko'p qirrali va qarama-qarshi tomonlarini ro'yi-rost ochuvchi, uni tadqiq va tahlil qiluvchi xislatga ega bo'lishi kerak; hayotning obyektiv manzarasini xolis tasvirlovchi yozuvchi bo'lishi lozim”³.

“O'zbek zaminida, sof milliy-etnik tushunchalar negizida shakllangan, tarbiya topgan o'zbekning o'zbekcha va o'zbekona fikrlashi ong jarayonini tadqiq etishi yurt, qadriyat, mehr-oqibat, sadoqat kabi nihoyatda insoniy tushunchalarning insonga panoj ekanligi haqidagi

¹ Ризаев Ш. Бадий тафаккур намуналари. // “Тил ва адабиёт та’лими”. – Тошкент: 2011. № 2. – Б. 43.

² Хуршид Дўстмухаммад. Беозор кушнинг қарғиши. – Тошкент: “Шарк”, 2006. – 4-б.

³ Умутов Х. Адабиёт назарияси. –Тошкент: “Шарк”, 2002. – 247-б.

yaxlit ibratli hissani ayonlashtirib beradi. – deb yozadi qissa haqida adabiyotshunos olim Sh.Rizayev. – ...“Ong oqimi” o‘zbekona ifodada o‘zbekona qadriyatlar tasdig‘iga, rivojiga xizmat qiladi. Yozuvchi tajribalarining muvaffaqiyati aynan shunda”¹.

Asar sujeti va kompozitsiyasi xuddi mozaikaga o‘xshash turfa shakl va ranglardan uyg‘unlashgani kabi – qahramon ongida ostin-ustun, aralash-quralash tus olgan chigal manzaralar, hodisalar, quroq xotiralar tasviridan yaxlit ko‘rinish oladi.

Sirtidan qaraganda mantiqsizdek tuyulgan voqea-hodisalarga sinchkovlik bilan e‘tibor qilinsa, uning zamirida teran ma‘no, ichki tartib mavjudligi oydinlashadi. O‘quvchi ijodkor g‘oyasini anglashida esa asar mutolaasiga qiziqish istagini uyg‘otuvchi diqqatdan keyingi ixtiyor hamda fikriy zo‘riqish kabi jarayonlarni boshidan kechirmog‘i zarur.

Qissada bosh qahramon Ahmadali shuuridagi mudroq tuyg‘ular Kimsan qiyofasidagi o‘zligi ta‘sirida uyg‘ona boshlaydi. Qahramon ma‘naviy olamidagi talotumlar ba‘zan shartaki, ba‘zan vazmin holda gavdalanuvchi Kimsan obrazi o‘rtasidagi achchiq kesatiqlar, tanbehlar vositasida ochib beriladi.

O‘quvchining dastlab Kimsan kim, u qayerdan paydo bo‘lib qolganini “hazm qilishi” oson kechmaydi. Bu obraz zimmasiga yuklatilgan vazifani idrok etishida o‘quvchidan asarni tushunib o‘qish va uqish malakasi talab etiladi. Shundagina yozuvchi Kimsan obrazidan voqeliklarga haqqoniy baho beruvchi hakam, Ahmadali xatti-harakatlari kuzatuvchisi sifatida foydalangani anglanishiga erishiladi.

Qahramon ruhiyati voqealar rivojida Kimsan bilan xayoliy tortishuvlar ta‘siri o‘laroq o‘zgarib, yuksala boradi. Ahmadali ichki va tashqi “men”idagi qarama-qarshiliklar ta‘sirida sobiq kuzatuvchi o‘rnini boshqasi egallaydi. Natijada qahramon o‘z borlig‘ini anglay boshlaydi.

Jur‘at, isyon va g‘urur tarzida bo‘y ko‘rsatgan yangi Kimsan obrazi Ahmadalini hayotga o‘zgacha nigoh bilan qarashga, insonga panoh bo‘luvchi qadriyatlar haqida tafakkur yuritishga majbur etadi. Shuningdek, o‘zbek xalqiga xos qadriyatlar Ahmadalining otasi Abdiali taqdiriga oid xotiralar bilan bog‘liqlikda talqin qilinishi asrlar davomida shakllanib e‘tiqodga aylangan tushunchalar zamiridagi ma‘noni yuzaga chiqaradi.

Tergovchining hatto oddiy o‘rik daraxti nomlanishidan illat izlab, bundan siyosiy ayb qidirishida zamonasozlik illatlari qoralanadi. Aslida e‘tibor qilinsa, bunday totemlar tagzaminida faqatgina ezgulik, ishonch,

¹ Ризаев Ш. Бадий тафаккур намуналари. // “Til va adabiyot ta’limi”. – Тошкент: 2011. № 2. – Б. 45.

yaratuvchanlik, tabiatga muhabbat, undan qarzдорlik hissi mujassamligini sezish qiyin emas.

“ – Uchala tup ham – Gulinur... Qiyg‘os gullasa tunda chiroqning hojati qolmaydi... Lekin otam “Yil og‘ir kelsa o‘rikklarni Toshdanak deb atash kerak” derdilar... Bu o‘rikklar bu yil gullamadi – ular bu yil – Toshdanak... O‘z nomi bilan atamasak ular kelgusi yili Gulinurga aylanmaydi... “Har narsani tabiat ato etgan nom bilan ata, bolam. Tosh bo‘lsa – tosh, de, gul bo‘lsa – gul...”¹.

Keys bilan ishlash jarayonida muammoli vaziyatlarni xolisona baholash imkonini yaratishi zarur. Muayyan obraz ichki dunyosiga zid savollar yo‘llash orqali norozilik hislarini uyg‘otish yoki, aksincha, tuyg‘ularni junbushga keltirish mumkin. Bunday usul orqali o‘quvchida o‘zgalarni tushunish va darddoshlik sifatllari shakllantiriladi.

O‘quvchilarda qahramonlar shaxsini tushunishga xohish uyg‘onib, notanish voqea-hodisalarga duch kelishganda fikr yuritishga ehtiyoj seziladi.

Texnologiya maqsadiga ko‘ra o‘quvchilar e‘tiboriga quyidagi vaziyatlarni baholash va tahlil qilish vazifasi yuklatilishi mumkin:

1. Qahramon ongida reallik va xayolot uyg‘unligidan paydo bo‘lgan o‘y-kechinmalarni o‘z nuqtayi nazaridan asoslash.

2. Sobiq va yangi Kimsan bilan g‘oyibona tortishuvlar zamiridagi haqiqatni baholash.

3. O‘tmish bilan bog‘liq voqealarni eslashga majbur qilgan omillarni aniqlash.

4. Qahramon shaxsidagi yangilanish, tozarish sabablarini topish va hokazo.

Jarayon so‘ngida keys natijalari ajratib ko‘rsatiladi, fikrlar umumlashtirilib aniq xulosalar muammo yechimi tarzida izohlanadi.

She‘riy asarlar tahlili. She‘riyat nasrda ifodalab bo‘lmaydigan murakkab insoniy kechinmalarni o‘zida ifoda etadi. Nazm birinchi o‘rinda insonning ichki dunyosini tasvirlashga qaratilganligi bilan epos va dramadan farqlanadi. Nazmni o‘rganishda shoir tuyg‘ulariga hamohang hissiyotlar kuchi va teranligini ochib berish o‘qituvchining bosh vazifasi bo‘lib qoladi.

She‘riy asarlar tahlili metodikaning murakkab masalalaridan biri. Nazm kishilar ongi va qalbiga katta kuch bilan ta‘sir qila oladi. She‘riy matnlar – emotsional-ifodaviy nutqning takomillashgan namunalaridir. Muallifning “men”i ko‘p hollarda lirik she‘rlarni o‘rganishda o‘qituvchi

¹ Хуршид Дустимухаммад. Қиссалар – Тошкент: “Sharq”, 2011. – 101-б.

va o'quvchi uchun ham ancha qiyinchilik tug'diradi. Boshqacha aytganda, kechinmalarning mustaqil, tugal obraz sifatida berilishi muallifning "men"iga yaqinlashishni taqozo etadi.

Lirik asarlar tahliliga bag'ishlangan izlanishlarda, xususan, M.Mirqosimovanning tadqiqot ishida she'r tahliliga yo'llash bosqichlari quyidagicha ko'rsatiladi:

a) ifodali o'qish davomida o'quvchilar taassurotlariga tayanib tahlil yuritish;

b) she'r matni ustida ishlash, asarning badiiy xususiyatlarini o'rganish;

d) o'quvchilarning ijodkorligiga tayanib lirik qahramon qiyofasini o'rganish, asar uslubini aniqlab, obraz yaratish mahoratini yoritish¹.

She'riy asarning umumlashma tahlili **maxsus reja** asosida amalga oshirilgani ma'qul. Reja kamroq kuch sarflab, aniq materialni xotirada tiklashga yordam beradi. Asar rejasini tuzish xaritaga sayohat marshrutini tushirib olishdek gap. U o'quvchini fanni chuqur o'zlashtirishga tayyorlaydi, mustaqil ishlashni, o'z nuqtayi nazarini ifodalashni va baho berishni talab qiladi. Izlanish muhiti ishni jonlantiribgina qolmasdan, qiziqarli ham qiladi. Bu esa, o'z navbatida, lirikaning o'quvchi shaxsiyatiga ta'sirini kuchaytiradi.

Mukammal tuzilgan reja badiiy matn tarkibini mazmunli ochish garovidir. Xususan, H.Xudoyberdiyevaning "Ayol o'tib borar" she'rini izchil reja tuzish orqali tahlil qilish maqsadga muvofiq.

She'rda dunyodagi eng mumtoz zotga xos ulug'vorlik sharqona falsafa, nozik ta'blik bilan ifoda etilganki, professor Q.Yo'ldoshev haqli ravishda e'tirof etganidek, "tasvirlanayotgan tuyg'ularning yirikligi o'qirmanni seskantiradi, ham o'ylantiradi, seskantirib o'ylantirish orqali yuksaltiradi"².

1. Bunda dastlab she'r matni ifodali o'qiladi.

Tahlil har qanday turdagi asarni ifodali o'qishdan boshlanishi haqida metodist olim M.Mirqosimova quyidagi fikrni ilgari suradi: "o'qish davomida ijodkor yaratgan tafakkur tarzi anglanadi, o'zlashtiriladi, muhokama qilinadi, kitobxon ko'z o'ngida yaratilgan poetik manzara yoki holat ham tashqi, ham ichki harakatlar, tuyg'ular orqali idrok etiladi, his qilinadi. O'sha ta'sirchan manzarani yaratishda shoir yo yozuvchi qo'llagan tasvir vositalariga sirtdan ahamiyat berilmaydi,

¹ Мирқосимова М.М. Уқувчиларда адабий таҳлил маънасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. док. дисс. ... – Тошкент: 1995. – 88-б.

² Қозоқбой Йўлдош. Буюк кўшнинг парвози. // "Ёшлик". – Тошкент: 2013. № 9. – Б. 36.

asosiy e'tibor o'qish jarayonida mazmunga, obrazning ichki ma'nolariga jalb etiladi"¹.

2. Ayrim so'z va iboralar sharhlanadi.

Jarayon "*Sen so'rama, men ham aytmayin Kuragimning singanini qars. Shovqin solma, men uyg'otmayin, Yuragimda yotar bir yo'lbars*"² misralarini sharhlashdan boshlangani ma'qul. O'quvchi e'tibori aynan qarsillab singan kurak, yurakni makon etgan jonzot tasviriga qaratilsa, muallifning asl maqsadi anglanishiga erishiladi. So'ngra lirik qahramon vujudidagi yo'lbars na'rasi qanday kechinmalar mahsuli ekanligi aniqlanishi zarur bo'ladi. Shu zaylda "o'kirayotgan yo'lbars" – junbushga kelgan qalb isyonlari ekanligi kashf qilinadi. Kashf etish lazzatini tuydirish esa "o'quvchi shaxsiyatida fikr kishisini tarbiyalaydi"³.

3. She'rdagi g'oyaga munosabat bildiriladi.

O'zbek ayoli shunday yaralganki, eng inja tuyg'ularini ko'ngil qa'rda pinhona saqlaydi, ozorlardan dili og'risa ham o'zgalarga "tishini yormaydi". Ba'zan mavj urib o'zaniga sig'magan hislari vulqondek otilib chiqadi-yu, hatto dunyolarni kuydirishga qodir bo'ladi. Garchand armon otlig' jallod tig'idan yuragi nimta-nimta bo'lsa ham viqor-la shodon odimlab, sho'x yellarga zulfini erkalashga izn beradi. G'am otashidan erib kul bo'lsa-da, ma'yusgina jilmayib bardoshga oshno tutinadi.

4. Obrazlar, badiiy tasvir vositalari aniqlanadi. Lirik qahramon, ayol va yo'lbars obrazlariga munosabat bildiriladi.

Tahlil chog'ida o'qituvchi muallifning "...badiiy tasvir vositalarini qo'llash orqali qanday maqsadni ko'zlagani va uning mazkur asarda nechog'li amalga oshganiga e'tiborini qaratsagina ijodkor yaratgan badiiy olamga yo'l ochiladi"⁴.

Lirik qahramon o'y-xayollari o'quvchini ummon tubidek sinoatlarga to'la ayol qalbidagi sokin manzaralar tahliliga tayyorlaydi. Sabrdan yaralgan qo'rg'on bekasi ruhiy olamiga nigoh tashlanar ekan, unda hokisorlik, keng fe'llilik fazilatlar barq urib turganiga guvohi bo'lish mumkin. Shu bois har qancha da'vo qilinsa-da, Yurak atalmish saltanat sarhadlariga daxlsizlikni yoqlashini tushunishga harakat qilamiz.

¹ Мирқосимова М. Уқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. –Тошкент: "Фан", 2006. – 18-б.

² XX аср ўзбек шеърияти антологияси. –Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – 220-б.

³ Хусанбосова Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент: "Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти", 2009. – 52-б.

⁴ Сафо Матжон. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1996. – 22-б.

Munisa siyratidagi yo‘lbars – yig‘ila-yig‘ila tog‘ qadar qiyofa kasb etgan iztirob suvrati. Dardchil kechinmalarning lovullagan alanga tarzida berilishi tashbihni, jonzot hayqirig‘i mubolag‘a san‘atini yuzaga keltirgan bo‘lsa, lirik qahramon o‘zligiga sayqal berishda tazod (so‘rama – aytmayman, o‘t yonish – sovutish, ich-ichida – sirdan) kabi tasviriy-ifodaviy vositalar imkoniyatlaridan unumli foydalanilgan.

5. Ijodkor kechinmalarini anglashga yo‘naltiruvchi savollar tuziladi va suhbat o‘tkaziladi. Masalan:

a) yurakdagi yo‘lbars qiyofasini qanday tasavvur etdingiz?

b) bu obraz zimmasiga qanday mas‘uliyat yuklangan?

d) ichda baland o‘t yonishi deganda shoira nimani nazarda tutadi?

e) muallif shaxsiyati aynan qaysi satrlarda bo‘y ko‘rsatadi?

f) nima deb o‘ylaysiz, hamma ayollar ham she‘rda tasvirlangandek matonatlimi? Fikringizni hayotiy misollar bilan asoslashga urinib ko‘ring.

Suhbatda xayolan lirik qahramon ruhiy olamiga sayohat uyushtiriladi, tuyg‘ulari taftish qilinadi.

Asarning yaratilish tarixi haqida o‘qituvchi hikoyasi tegishli emotsional kayfiyatni yuzaga keltiradi. Suhbat, hikoya, tasvir, yod olish, mustaqil ish singari faoliyat turlari maqsadga erishishning zarur vositalari bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun o‘quvchilar qofiya, radif, ohang, she‘r tuzilishi tizimi, badiiy tasvir vositalari singari tushunchalarni anglab olishi lozim.

Nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish orqali o‘quvchilar she‘rdagi nafosatni his qiladi, o‘zi uchun qandaydir yangilikni kashf etadi. Masalan, 7-sinfda Shavkat Rahmon ijodi yuzasidan tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning nazariy bilimlarini hayotiy kuzatishlari bilan bog‘lashga imkon yaratiladi. Shoir ijodi bilan tanishar ekan, o‘quvchi tabiatning kamalak yanglig‘ rangin jilolari lirik qahramonning nekbin tuyg‘ulariga hamohanglikda bo‘y ko‘rsatganligiga guvohi bo‘ladi.

Shoir tun, osmon, oy, tong, bulut, shamol, suv, daraxt kabi qator timsollarga zargarona ishlov berib, inson va tabiat o‘rtasidagi garmoniyaning topa bilgan. Jumladan, “ingroqlarga to‘lib ketgan tun”¹, “ko‘zlarimdan ko‘ra hayotni yelkalarim ko‘ribdi ko‘proq”² kabi chizgilarda inson ruhiyatining anglash mushkul bo‘lgan tiyiqsiz isyonlari o‘z aksini

¹ Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. –Toshkent: “Sharq”, 2009. – 338-b.

² Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V. Adabiyot. Umumta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. –Toshkent. “Sharq”, 2005. – 72-b.

topgan. Shavkat Rahmon ijodining xalqchilligi, o'ziga xos jozibadorligi asl maqsadini yashirin tarzda badiiy vositalar yordamida ifodalashiga bevosita daxldor. Shuning uchun ham shoir ijodidagi topilmalarni ruhiyat manzarasi tasvirining nodir kashfiyoti sifatida baholash mumkin.

Shoirning "Tong ochar ko'zlarin..." she'ri interaktiv "Ikki qismli kundalik" (Bertalf, 1981) metodi asosida o'rganilishi o'quvchilarning estetik didi, tafakkur darajasi, xayolot olami va idrok tarzini namoyon etishga yordam beradi. Shuningdek, ifodali o'qish, tushunish va tahlil qilish kompetensiyasini takomillashtiradi. Tahlil lirik qahramonning ichki kechinmalariga shaxsiy tajribalar va qiziqishlar asosida munosabat bildirishni taqozo etadi.

Texnologiya bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

Texnologiyani o'tkazish bosqichlari:

Birinchi bosqichda she'r o'qishga tavsiya qilinadi. Matn bilan to'liq tanishilganidan so'ng ikkinchi bosqich vazifasiga o'tiladi. Bu jarayonda daftar varaqlari vertikal chiziq bilan o'rtasidan teng ikkiga bo'linadi.

Navbatdagi bosqichda kundalikning chap tomoniga muallif g'oyalari – she'rdagi o'zlariga yoqqan yoki ma'qul bo'lmagan misralar yoziladi. Masalan:

<i>Birinchi qism</i>	<i>Ikkinchi qism</i>
<i>Tong ochar ko'zlarin erinib, Sevinchdan yig'laydi qiyloqlar. Chechaklar jilmayar sevinib, Shamolda cho'milar giyohlar¹.</i>	Subhidamda qiyoy gullarga shabnam qo'nishi, quyosh nurlari erkalab uyg'otgan chechaklar shodlikdan yaproq yozishi, o't-o'lanlarning shabadada tebranishlari go'yo shudringda cho'milayotgandek tasvirlanadi.

To'rtinchi bosqichda esa o'ng tomonga izohlanayotgan misralar, tasvir vositalarining shoir g'oyasini yoritishdagi ahamiyati, she'r haqidagi umumiy xulosalar yoziladi.

Mazkur she'rda mehnat qilishdan boshqasini bilmaydigan kishilarning ishonch va e'tiqodlari falsafiy yo'sinda aks ettirilgan. Atrofidagi go'zalliklardan bebahra kimsalarga hayotni faqat o'z qarashlari bilan o'lchamasligi ta'kidlanadi. Unda qo'llanilgan ramz – ko'chim san'ati-

¹ Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshibekov J. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. – Toshkent: "Sharq", 2009. – 339-b.

ning keng tarqalgan turi bo'lib, chumoli timsoli orqali zahmatkash va tirishqoq. lekin ayni vaqtda loqayd. hissiz kishilarga ishora qilinadi. Chumolining lirik qahramon tomonidan o'ziga jalb etuvchi maysalar go'zalligi (borliqning maftunkorligi)dan bahramand bo'lish, hayotdan zavqlanishga undalishi ritorik murojaatdir.

Keyingi bosqichda o'quvchilarning xohishlariga ko'ra bir nechtadan ko'chirmalar va izohlarni o'qish taklif etiladi. Izohlar o'qilayotganda savollar berish yoki bayon qilinayotgan masalalarga tengdoshlarining fikri bilan qiziqib ko'rish beshinchi bosqich sharti hisoblanadi. Jarayon justliklar yoki kichik guruhlarda ishlash orqali davom ettirilib, so'nggi bosqichga o'tilishi ham mumkin.

Dramatik asarlar tahlili. Istiqlol yillarida o'zbek milliy dramaturgiyasi sohasida ham ko'zga tashlanarli evrilishlar yuz berganligini U.Azimning "Bir qadam yo'l", E.Samandarning "Arabmuhammad Bahodirxon", A.A'zamning "Dugohi Husayniy", "Djek London hikoyasidan so'ng", O.Yoqubovning "Bir koshona sirlari", "Fotihi muzaffar yoki bir parivash asiri", T.Mirzoning "Amir Temur", A.Oripovning "Sohibqiron", I.Hasanning "Bir kam dunyo", H.Rasulning "Piri koinot", I.Rahimning "Farg'ona farzandi", Y.Sulaymonning "Al-Farg'oniy muhabbati" kabi asarlari misolida ko'rish mumkin.

E.Samandarning "Arabmuhammad Bahodirxon" tragediyasini so'nggi yillarda inson qadr-qimmat, o'zligini anglash mavzusida yaratilgan sara asarlardan biri sifatida tilga olish mumkin. Asarda o'z otalarining ko'zlariga mil tortish darajasigacha borgan nobop farzandlarning razilliklari o'z ifodasini topgan.

Ezgulik va yovuzlik, qanoat va nafs, ota va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlilga tortish misolida o'quvchilarda nutqiy, kommunikativ va kreativlik kompetensiyalari rivojlanirilishi ko'zda tutiladi. Bunda "Rolli o'yin darsi", "Teatrlashtirilgan dars" texnologiyalarining zarur elementlari qo'llanilsagina ijobiy natijalar qayd qilinadi.

Rolli o'yinlar hayotdagi real vaziyatlarni sahna ko'rinishlarida aks ettiradi. Bunda o'qituvchi tomonidan mavzuga oid ssenariy tuziladi, o'quvchilar o'yin jarayoniga tayyorlanadi, ekspertlar tanlanadi hamda zarur vositalar bilan ta'minlanadi. Taqsimlangan rollar ijrosi yuzasidan yo'l-yo'riqlar ko'rsatilib, jarayon mashqlar orqali mustahkamlanib boriladi. Texnologiya taqdimot muhokamasini o'tkazish, o'qituvchi va ekspertlar xulosasini tinglash bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Dramatik asar tahliliga tayyorlanayotib, o'qituvchi o'zi uchun matn ustida ishlashning markaziy muammosini belgilab oladi. Asosiy

ziddiyatni aniqlash jarayonida o'quvchilarning yetakchi qahramonlar bilan to'qnashuvi ro'y beradi, ular voqealar rivojida qanday o'rin tutishi belgilanadi. Dramada "voqelikning muayyan bir qirrasiga, ya'ni kulgili yoki fojiaiy tomoniga ko'proq e'tibor berilmasdan, hayot xuddi hayot holida, butun bir murakkabligi va turli-tuman jarayonlari bilan yaxlitlikda va atroflicha qamrab olinadi"¹.

8-sinf o'quvchilari mustaqil o'rganishlari mumkin bo'lgan Muhammad Rahmonning "Abadiy nido"² dramatik dostonida Detektiv laqabli yigit, fizik (o'qituvchi), taqvodor (domla imom), Uchar (aslida Ko'char, tijoratchi) kabi obrazlar xarakter xususiyatlari yuzaga kelgan o'zaro to'qnashuvlar ta'sirida ochilib, davrning muhim ijtimoiy-ma'naviy muammolari qamrab olinadi. Voqealar rivojida keskin tus olgan bahslashuv tijoratchi Ucharning alal-oqibat boshqalarga yon bosishiga, ma'naviy qiyofasida tub o'zgarishlar yasashiga asos bo'ladi.

"Abadiy nido" doston deyilgani bilan sahna ko'rinishlari, dialoglar mavjudligi bois dramatikdir. Muallif tomonidan ko'tarilgan hayotiy muammolar, ijtimoiy-axloqiy munosabatlar sabablari yuzaga kelgan ziddiyatlar tasviri vositasida badiiy talqin qilinadi.

Tijoratchi ismi aynan uning hayot tarzi, fikrlashi va xatti-harakatlariga monand Ucharga aylantirilishi bejiz emas. Shaxsiy manfaatni odamiylikdan ustun bilgan Ko'charning hech narsadan tap tortmasligi, hatto qabristonlarni daromad manbaiga aylantirish borasidagi tortishuvlari kuchli dramatismni yuzaga keltiradi. Uning qabristonlar kechasi tinch ko'ringani bilan o'g'rilar bu yerda tonggacha qimorbozlik, giyohvandlik va shariat qoidalariga zid ishlar bilan shug'ullanishi haqidagi fikrlariga munosabat bildirishi orqali o'quvchilar tafakkuriga ta'sir ko'rsatish, bu turdagi asarlar tahlilida e'tibor qaratish muhim bo'lgan jihatlar hisoblanadi.

Ucharning bunday qabihliklarga chek qo'yish uchun tuzgan "reja"siga ko'ra, qabristonlar baland devorlar bilan to'silishi, ustidan tikanli simto'rlar tortilib kuchli yoritgichlar o'rnatilishi, burchak-burchaklardagi vishkalarda o'ktam yigitlar soqchilik qilishlari zarur.

Dafn marosimida ulov, go'rkov, g'assol, hatto go'yandalar bilan ta'minlash xizmatini yo'lga qo'yish bilan kadrlarni ish bilan ta'minlash masalasi hal qilinadi. Agar mozorlarda issiqxona bo'lsa, qishda ham do'konlardan gullar arimasligi, haykal, sag'ana o'rnatish uchun sangtaroshlar sexini ishga tushirish, eng sara joylarni kimoshdi

¹ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: "Шарқ", 2008. – 310-б.

² Мухаммад Раҳмон Йўл кураётган одам. Сайланма –Тошкент: "Sharq", 2010.

savdosiga qo'yish "loyihasi" voqealarning shiddatli tus olib, qahramonlar ruhiyatidagi portlashlarga sabab bo'ladi.

Tanqidchi H.Abdusamatovning "Dramaning asosiy pafosi mavjud eski tartiblarni inkor etish, yangi paydo bo'layotgan ijobiy hodisalarni tasdiqlashga qaratilgan. Yangi hodisalar konflikt jarayonida dramatik xarakterni rivojlantirishda asosiy kuchga aylanib boradi"¹, degan fikrlari isboti sifatida xulosa qilish mumkinki, taqvodor, o'qituvchi, detektivning insoniylik haqidagi bahslashuvi tijoratchi kayfiyatida sodir bo'lgan tub evrilishlar bilan natijalanadi.

Asar boshlanishida avtoullov signallarining ishga tushib ketishi voqealar davomida necha bor takrorlanishi tasodifiy hodisa emasligi, balki ma'naviy tanazzulga yuz tutgan kimsalarga Yaratgan tomonidan yuborilgan ogohlantirish sadosi bo'lib, niyati buzqlikning o'zi katta gunohligini Uchar nihoyat tushunib yetadi.

Tijoratchi obrazining "Agar men ..." rol-i-ishchan o'yini talablariga muvofiq ko'rib chiqilishi xarakterining shakllanishi, odob-axloq mezonlarini tan olmasligi sabablarini aniqlash va ongiga o'rnatib qolgan zararli tushunchalarni atroflicha tahlil qilishga sharoit yaratiladi. Masalan, "Agar siz Ko'charning o'rnida bo'lib qolsangiz qanday yo'l tutar edingiz" savoli bilan murojaat qilinsa, o'quvchilar real voqelik tuzilishini chuqurroq idrok etishga, o'ziga yuklatilgan rol mohiyati aspektida mushohada yuritishga va aniq vaziyat doirasida faoliyat ko'rsatishga harakat qiladi.

O'tkazilish tartibi:

- ishtirokchilar maxsus belgilangan joydan o'rin egallashadi;
- davra stollardan xoli qilinadi va mavzuga aloqador muammo o'quvchilar e'tiboriga og'zaki, video roliklar yoki film shaklida taqdim etiladi;

- qatnashuvchilarga rollar taqsimlanadi;
- javoblar "Agar men ..." jumlasini bilan boshlanadi va har kim o'z rolidan kelib chiqib fikr-mulohazalarini asoslaydi;
- jarayon so'ngida o'qituvchi hamda guruhlar tomonidan umumiy xulosa va yagona to'xtamga kelinadi.

Mashg'ulot chog'ida ovoz chiqarib o'qish tahlilning birinchi bosqichi hisoblanadi. Asarni aktlar va kartinalarga taqsimlash bilan bog'liq dramatik shaklning o'zi ham o'qish chog'ida kichikroq tanaffuslar qilish, o'zaro fikr almashish imkonini beradi. Alohida sahnalar

¹ Абдусаматов Х. Драма – адабиётнинг гултожи. Ўзбек адабий танқиди. –Тошкент: "TURON-IQBOL", 2011. – 87-б.

birinchi va ikkinchi mashg'ulotlarda o'qiladi, shundan so'ng obrazlar tahliliga kirishiladi. Busiz dramatik asarni idrok etish amalga oshmaydi.

Obrazlarning dramatik xarakterini taftish qilish va baholashdan avval o'quvchilar u haqda aniq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Shuning uchun ham asarni o'qish paytida o'quvchilarda qahramonga nisbatan ma'lum hislarni uyg'ota olish kerak.

Birinchi akti o'qigandan so'ng "O'zaro savol yo'llash", "Tergovni bilimdonlar olib boradi" texnologiyalaridan biri asosida suhbat o'tkaziladi. Suhbat jarayonida "... sizga qanday ta'sir etdi?", "...dan qanday xulosalar chiqarish mumkin?", "... o'rtasida qanday farq yoki o'xshashlik bor?", "...ning kuchli yoki ojiz tomonini ko'rsating" tarzidagi savol va topshiriqlar qahramonlar xarakteriga yangicha qarash va baho berish imkoniyatini yaratadi, o'tgan davrni tasavvur qilishga o'rgatadi.

Tahlil o'quvchilar tomonidan mustaqil ishlarni bajarish bilan yakunlanadi. Ularda asar yuzasidan aniq tasavvurlar uyg'otiladi, nuqtayi-nazarlar shakllantiriladi. O'qish va suhbat chog'idagi kuzatishlar asosida qahramon haqida muayyan xulosalar chiqarish uyga vazifa tarzida beriladi.

Dramatik asarni tahlil qilish bilan bir paytda o'quvchilar personajlarning nutqi ustida ham ishlaydi. So'z talaffuzi ustida ishlash, nutq maromi va sur'atiga amal qilish, mantiqiy urg'uni to'g'ri qo'yish, monologik nutqni dialogik nutqqa aylantirib og'zaki hikoyalash — dramatik obrazni ochib berishning muhim vositasidir. O'quvchilardan jiddiy tayyorgarlikni talab qiluvchi teatrlashtirilgan rolli ko'rinishlarni sahnalashtirish ishning yakuniy bosqichi hisoblanadi.

Personajlar guruhi tahlili qahramonlarning asosiy xususiyatlarini ochib beruvchi umumlashtiruvchi xulosalar chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi. Xulosalardan asosiy fikrlar ajratib ko'rsatiladi.

1.3. Badiiy asar tahlili bilan bog'liq adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish

Adabiyotni nazariy o'rganib shaxsning hissiy-irodaviy jabhalari, bilish jarayonlari va ongiga ta'sir ko'rsatish mumkin. Adabiy ta'limning Davlat ta'lim standartida boshlang'ich sinf o'quvchilarida hikoya, she'r, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, xalq qo'shiqlari, latifa, rivoyat

hikoyat, masal, ibora, afsona, lof kabi turlarni janriga ko'ra farqlay olish sifatleri shakllantirilishi ko'zda tutiladi.¹

Yuqori sinflarda esa quyidagi nazariy bilimlarni egallash o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan zaruriy talablar ekanligi belgilab qo'yilgan:

5-sinfda adabiyot so'z san'ati, maqol, topishmoq, hadis, masal, rivoyat, xalq ertaklari, adabiy ertaklar;

6-sinfda adabiyot ma'naviyat xazinasi, hajviya, hikoya, sarguzasht asar, xalq qo'shiqlari, doston, hikmatli so'zlar;

7-sinfda qissa, doston, tashbih, hasbi hol, chiston, tabiat lirikasi, badiiy asarning inson ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi ahamiyatini tushunish;

8-sinfda didaktik adabiyot, tragediya (fojia), roman, doston, g'azal, tuyuq, musamman, irsoli masal, qofiya, radif;

9-sinfda xalq dostonlari va ularning turlari, she'riy roman, memuar asar, badiiy asarda milliy ruh ifodasi, ruhiy tahlil, adabiyotda komil inson tasvirining o'ziga xosligi, tashxis, musamman, lirik qahramon obrazi, tragik obrazlar va hayot haqiqati, so'z san'atining obrazlilik, o'rganilgan badiiy asarning mazmuni, ijodkorning hayoti va ijodiga oid asosiy fakt va hodisalar, tarixiy-adabiy jarayonga xos bo'lgan asosiy qonuniyatlar, mustaqillik davri adabiyotining xususiyatlari kabilarda².

O'quvchilarni adabiy-nazariy bilimlar bilan qurollantirish usullari haqida Q.Yo'ldoshevning quyidagi fikrlari e'tiborga molik: "Adabiyot nazariyasi bo'yicha beriladigan bilimlar ham o'quvchilar tafakkurini sinash va qiynash vositasi emas, balki badiiy asarni o'qish va tahlil etishga ko'mak beradigan ma'lumotlar tarzida qaraladigan bo'ldi"³.

Adabiy-nazariy tushunchalarni shakllantirish asosida har qanday o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan ma'lumdan noma'lumga, tushunarliklikdan notanishga o'tib borishdan iborat didaktik prinsip turadi. Odatda, o'quvchilar adabiyot fanidan umumiy va xususiy tushunchalar bilan tanishtiriladi. Umumiy va xususiy tushunchalarni uzviy bog'liqlikda o'rganish bilimning mustahkamligini ta'minlaydi.

Adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirishning birinchi bosqichida ularning muhim tomonlarini aniq ko'rsatuvchi misollar tanlanishi lozim. Masalan, metafora haqidagi ma'lumotlarni egallash u yoki bu

¹ Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. O'qish. Matematika. Atrofimizdagi olam Tabiatshunoslik (1-4-sinflar). – Toshkent: "Yangiyo'l poligraph service", 2010. – 43-45-b.

² Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili. (5-9-sinflar). – Toshkent: "Yangiyo'l poligraph service", 2010. – 46-52-b.

³ Илудомев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. –Ташкент: "Ўқитувчи", 1996. – 29-б.

hayotiy hodisani tasvirlashdagi ahamiyatini belgilash bilan bog'liq bo'ladi.

Metafora o'quvchidan u yaratayotgan obrazli emotsional samarani tushunish va his qilishni talab qiladi. Nazm va nasrda metafora nafaqat leksik ifodaviy vosita, balki obrazlarni tuzish usuli ham hisoblanadi. Binobarin "metafora narsa-hodisani shunchaki atabgina qo'ymaydi, balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflaydi, ongimizda atalayotgan narsa haqida jonli tasavvur – obraz yaratadi"¹.

Adabiyot nazariyasini o'rgatishda pedagogik texnologiyalar ta'lim vositalari (texnik, yordamchi va o'quv-uslubiy materiallar) bilan uyg'unlikda qo'llanilsagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Jumladan, diaproyektor, grafoproyektor, doska-bloknot, doska-stend, filpchart, yozuv taxtasi, kompyuter, kinofilm; mulyaj, grafika, diagramma, chizma, sxema, plakat, xarita, rasm, tarqatmalar kabi texnik va yordamchi vositalar o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish hamda ma'lum ketma-ketlikda yetkazib berishga xizmat qiladi.

Adabiyot nazariyasiga oid tushunchalarni o'zlashtirish hamda o'quvchilar faoliyati samaradorligini oshirishda o'quv-uslubiy qo'llanmalar muhim manbaa vazifasini o'taydi. Xususan, asarning janr xususiyati, badiiy tasvir vositalarini aniqlash, albatta, darslikka qo'shimcha tarzda "Adabiyotshunoslikka kirish", "Adabiyot nazariyasi" kabi qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish zaruriyatini taqozo etadi.

Nomoddiy (savol-javob, suhbat, hikoya qilish, yod olish kabi so'z orqali esga tushiriladigan manbalar) va moddiy (tasvirlanadigan, eshityladigan, audiovizual) vositalar adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Masalan, qog'oz, doskaga chizilgan yoki kompyuterda tayyorlangan slaydlar, chizmalar, diagrammalar, jadvallarni taqdim etish; yozuvchi nutqi, muayyan asardan o'qilgan parchalarni magnit tasmalari, kompakt disklardan eshittirish; mavzuga oid filmlar, spektakllarni AKT vositasida namoyish etish orqali o'quvchilarning ko'rish, tinglash, qabul qilish, xotirada saqlash kabi bilish jarayonlari rivojlantiriladi.

Uzluksiz adabiy ta'lim tizimida adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganishga doir metod va usullar badiiy asarning murakkablik darajasiga qarab tanlanadi. Jumladan, "Grafik organayzerlar" yuqoridagi talablarni o'zida mujassam etishi bilan samarali hisoblanadi.

Grafik organayzerlar – ta'lim-tarbiya jarayonida bayon qilina-yotgan fikrlarni ko'rgazmali taqdim etish, o'rganilayotgan tushunchalar

¹ Каримов О. Метафора – поэтик асоси. // "Jahon adabiyoti" –Тошкент: 2014. № 8. –188-6.

o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yish vositasidir. Ammo vizual (ko'rgazmali) va audiovizual (eshitish va ko'rish) vositalarini qo'llashda me'yorning ortib ketishi o'quvchini dars mavzusi maqsadidan chalg'itishi mumkin. Shu bois ulardan o'quvchi yosh xususiyati va sezgi a'zolariga ta'sirni ko'zlab foydalanish tavsiya etiladi.

Adabiy-nazariy tushunchalar kompyuterning "MS Word", "MS Power Point", "Paint", "MS Excel" dasturlari imkoniyatlari doirasida hosil qilingan grafik organayzerlar bilan uyg'unlikda yetkazilsa, o'quvchilarning axborotlarni qabul qilish, xotirada tiklash, tahlil qilish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida xalq og'zaki ijodi namunalari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Xususan, Tog'ay Murodning ajdodlar badiiy tafakkuri sarchashmasi – milliy qadriyatlar, folklor durdonalari bilan ijodiy oziqlantirilgan asarlari o'zbek adabiyotida takrorlanmas hodisa bo'lib, originalligi va xalqchilligi bilan ajralib turadi. Uning "Yulduzlar mangu yonadi" asari bilan tanishishga 6-sinf adabiyot o'quv dasturida uch soat vaqt ajratilgan¹.

O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlaridan kelib chiqib, 9-sinfda adibning "Oydinda yurgan odamlar" qissasi yuzasidan mustaqil o'qishni tashkil etish orqali qahramonlar xarakteri, millat ruhiyatini yoritishda azaliy udumlar, xalq ijodiyoti namunalaridan unumli foydalanganligi bilan diqqatga sazovorligi anglanishiga erishiladi.

Adib asarda ikki qalbning samimiyatga yo'g'rilgan pokiza tuyg'ularini O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad munosib baholaganidek, "oydindagi oy nuriga o'rab tasvirlaydi"².

Muallif farzandsizlik insoniyatning baxtsizligi ekanligini asar qahramonlari Qoplon va Oymomo qismlari misolida talqin etadi. Qissada boy ma'naviy meros buloqlaridan suv ichgan, milliy an'ana va udumlar bilan hamnafas ulg'aygan adib shaxsiyatiga xos xususiyatlar yaqqol sezilib turadi.

Asar mutolaasi o'quvchilarda umummadaniy – xalqning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrash kompetensiyasini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qahramonlar tabiati, ruhiyati va turmush tarziga singdirilgan folklor an'analari tagzaminidagi yashirin hayotiy haqiqatlarni topish va ularga munosabat bildirish tahlil maqsadi tarzida belgilanadi. O'qituvchining o'quvchilar e'tiboriga havola

¹ Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili. (5-9-sinflar). –Toshkent "Yangiyo'l poligraph service", 2010. – 69-b

² Тоғай Мурод. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: "Шарк" 2008. –7-бет. Кейинги кучирмалар ҳам шу напшрдан олингани учун саҳифаси кавс ичида кўрсатилади.

qilinayotgan masalalarga reja asosida puxta hozirlanishi topshiriqlar oralig'idagi uzviylik va izchillikka xizmat qiladi.

Asarda uchraydigan xalq og'zaki ijodi namunalarini "Kunga-boqar", "Klaster", "Toifalash", "Konseptual jadval" kabi grafik organeyzerlardan foydalanib tahlil qilish ma'lumotlarni tarkibiy ko'rib chiqish, fikrlarni ajratish, taqqoslash yoki umumlashtirish uchun qulay vositalardir.

Jumladan, "Toifalash jadvali"ida ma'lumotlar jadval ko'rinishida rasmiylashtirilib, g'oyalar xususiyatlariga ko'ra toifalanadi, fikrlar yagona tizimga keltiriladi. Toifalar sharhini tuzishda quyidagi qoidalariga amal qilinishi rejalashtiriladi:

a) ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas;
b) bir guruhning toifalarga ajratishi boshqalarnikidan farqlanishi mumkin;

d) o'quvchilarga avvaldan hozirlangan toifalarni berishga yo'l qo'yilmaydi.

Masalan:

O'zbek folklorining tur va janrlari¹			
Epik tur	Lirik tur	Dramatik tur	Maxsus tur (paremalar)
Mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, terma, doston va boshqalar.	Marosim folklorining deyarli barcha ko'rinishlari, bolalar folklorining ko'pgina turlari, qo'shiqning hamma xillari, ashula va shu kabilar.	Og'zaki drama, qo'g'irchoq o'yin, askiya, xalq teatrlari va hokazo.	Maqol, matal, topishmoq shular jumlasidan.

Tahlil avvalida o'quvchilar diqqati qahramonlar ruhiy olamini tasvirlashda unumli foydalanilgan xalq qo'shiqlarining mohiyatini ochishga qaratiladi. Qissa sujetida mustahkam o'rin tutgan muhabbat va befarzandlik muammosi kitobning ilk sahifalaridanoq o'quvchi qalbiga ham ko'chadi.

¹ Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. -Toshkent: "Sharq", 2011. - 17-b.

Bosh qahramon Oymomoning farzandsizlikdan chekkan iztiroblari folklor asarlariga xos an'anaviy usulda talqin etilishi qissa ta'sirchanligini ta'minlagan omillardan biridir. Tirnoqqa zorligi tufayli chekkan azoblari Oymomoni es-hushidan ayirgan. Dunyodan benasl o'tib ketish qayg'usi uning qalbini kemirib, beadam qiynoqlarga soladi. Dard-alamlarini kimgadir ezilib-ezilib aytgisi, shu yo'l bilan yuragini bo'shatgisi keladi. Asarda tilga olingan xalq qo'shiqlari aynan uning ana shu ruhiyatiga yaqin va hamohangdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 6-sinfida "Xalq qo'shiqlari" mavzusini o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotlar jarayonida ham aynan qissadagi qo'shiqlarga murojaat qilish orqali bu janrning xalqimiz hayotida muhim o'rin tutganini anglashlari mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, sog'im qo'shiqlari turkumiga mansub "Turey-turey"lar zamirida sovliqni iydish uchun uni "esli molim", "yelkamdagi kokilim", hatto, "bog'da ochilgan gulim" kabi sifatlar bilan madh etib, erkalatish ohanglari yetakchilik qiladi. Qimmatbaho terisi uchun qorako'lchilikda qo'zisi barraligidayoq so'yiladigan ona qo'yni sog'ish vaqtida aytiladigan qo'shiqlarda esa unga xayrixohlik, hamdardlik bildirish, achinish tuyg'ulari ifodalanadi.

Qissada adibning aynan shu mazmundagi qo'shiqqa murojaati boisini (282-bet), avvalo, chorvachilik Surxon vohasi kishilari hayotining ajralmas qismi ekanligini ko'rsatish; ikkinchidan momo yuragini tub-tubidan yemirib borayotgan farzandsizlik azoblarini yoritish tarzida izohlash mumkin.

Oymomoning yillar davomida qalbini o'rta kelayotgan dardlarini odamlarga emas, tilsiz jonzotlarga to'kib solishida ramziy ma'no mujassam. Parchadagi taskin ohangidagi "buncha kuyma", "taqdiringni ko'ndirgin" iboralari momoning qo'shiq kuylash bilan nafaqat sovliqni tinchlantirib, ko'proq sut sog'ib olishga, balki taqdirga tan berib, o'zini ovutishga uringani o'quvchini befarq qoldirmaydi.

So'ngra o'quvchilar faoliyati bolalar folklorining betakror javohiri – hayotbaxsh allalar zamiridagi ma'nolar nozikligi, qahramonning botiniy kechinmalarini ilg'ashga yo'naltiriladi. Go'daklarni yupatib, uxlatish maqsadida ijro etiladigan allalarda onaning farzandi kamolini ko'rish haqidagi yuksak orzu-umidlari, tuganmas mehr-muhabbati qatori qayg'u-alamlari va armonlari ham tarannum etilishi Oymomoning dard-hasratlarga to'la ichki dunyosini tasvirlashda qo'l kelgan.

Ayollarning shaxsiy hayotidagi quvonch va qayg'ularning betakror ifodasi bo'lgan allalar asarda qahramonlarning ruhiy olamiga chuqur

nazar tashlash imkonini beradi. Shu o'rinda tahlil ishtirokchilari "baxt" tushunchasining qora rangda ifodalanishi sabablari ustida izlanishlari zarur bo'ladi.

Asar mutolaasi va hayotiy kuzatishlarga tayanib beriladigan javoblardan onalik Tangri taoloning ayol zotiga benazir inoyati, bu ne'matdan bebahralik esa baxtiqarolik, degan xulosaga kelinadi. Natijada o'quvchilar ko'z o'ngida qahramonning kamsitishlar, mulzam qilishlar, ta'na-malomatlardan ozurda ko'nglida kechgan nolalar jonlanadi. Nadomat to'la mungli misralar hatto dunyodan ko'z yumar chog'i ham farzand ko'rish ishtiyoqi bir zumga ham so'nimagan mushtipar ayolning ruhiy holatidan ogoh etadi.

Qo'shni go'dakning jannat iforlariga qiyoslangan tarovatidan totingan momo beixtiyor xazin va mungli qo'shiq xirgoyi qiladi. Oymomo allaning mo'jizaviy ohanglari ta'sirida umrining so'nggi lahzalarida bo'lsa ham onalik saodatini tuyadi. Hamsoyasining beshikdagi yosh bolasini erkalatib, allalagan momoning ko'ksiga sut keladi va jon beradi. Asarda qo'shiqdan nainki qahramon hissiyotlarim yuzaga chiqarish vositasi, balki ma'lum ma'noda armonlari ijobati sifatida foydalanilganligini qayd etish joiz.

Tahlilning navbatdagi bosqichida boqiy dunyoga rihlat qilgan momoning vidolashuv marosimidagi yig'i-yo'qlovlar ma'nolari izohlashga o'tiladi.

"Yosh-yalanglar momomlab-momomlab yig'ladi: *Osmondagi qirg yulduz Qiyalab ketadi botgani. Voy momom-ovv, momom-ovv!..* (338-bet).

Yoshi qaytmishlar onamlab-onamlab yig'ladi: *Hovlimizning tolini Tobut bo'lsin debmidik? Voy enam-ovv, enam-ovv!..*" (339-bet).

Marsiyaning birinchi bandida inson umrining poyoniga yetishi majoziy obrazlarda yulduzlarning botishiga muqoyasa qilinadi. Binobarin, "Marsiyaning asosiy vazifasi hayotdan ko'z yumgan shaxsning butun fazilatlarim esga olib, ro'y bergan musibatga munosabat bildirishdir"¹.

Ma'lumki, o'zbek folklorida daraxt totemi bilan bog'liq turli mifologik qarashlar mavjud. Jumladan, o'zbeklarning dafn marosimida marhumni so'nggi yo'lga kuzatishga otlangan jigargo'shalari toldan tayyorlangan hassalarga tayanishadi. Hassakashlarning novdalarni qabr atrofiga ekib qaytishlari zamirida kishi vafot etgach, uning joni hassa orqali daraxtga ko'chadi, degan ishonch bo'lgan.

¹ Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: "Sharq", 2010. – 94-b.

D.Gadoyevaning tadqiqotlarida mazkur taomilga “ruhning abadiyligi, ya’ni kishi ruhining daraxt sifatida yashashni davom ettirishi bilan bog‘liq e’tiqodlarni o‘zida ifoda etishi”¹ tarzida baho beriladi.

Daraxt bilan aloqador totemlar yuzasidan ma’lumot berish barobarida o‘quvchilar e’tiborini ikkinchi bandda tol novdalarining yaxshi kunlarga emas, balki so‘nggi manzilga eltuvchi “yog‘och ot” bo‘lishga yaraganidan afsuslanish ohanglari yetakchilik qilishiga qaratmoq joiz. Zero, mevasiz daraxt bo‘lgan toldan tabiatni yashnatish, soyasida dam olib, hordiq chiqarish, ro‘zg‘or anjomlari yasash kabi ezgu maqsadlar yo‘lida foydalanilish, shuningdek, og‘ir damlarda yaqinidan ayrilgan kishilarga suyanchiq va hamrohlikka yaraganidan uni musulmonlar muqaddas deb bilishlarining ramziy ma’nosini ham izohlash mumkin bo‘ladi.

Tog‘ay Murodning san’atkorlik mahorati har bir personajga xos xususiyatlarni paremlar zimmasiga yuklay bilishida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Parema, paremiya (yun. paroimia – masal, ramzli hikoya) ma’lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan turg‘un ibora; maqol, matal”².

Qissa sahifalarini bezagan “Aslini bilmay, so‘z demaslar, naslini bilmay, qiz bermaslar”, “Ko‘ngling bilan eshit – quloq aldaydi, aqling bilan ko‘r – ko‘z aldaydi”, “Qozon to‘la osh bo‘lsin, yosti to‘la bosh bo‘lsin”, “O‘z uyim – o‘lan to‘shagim”, “Elakka bormish ayolning ellik og‘iz gapi bor”, “Etni tirnoqdan ayirib bo‘lmaydi”, “Og‘zingdan chiqib, yoqangga yopishsin”, “Ichini it tirnaydi”, “Qildan qiyiq axtaradi” kabi maqol, matal va iboralar asarning falsafiyligini kuchaytirishga, hayotiyiligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardandir.

Asarda adibning paremalarni qo‘llashdan maqsadi nafaqat qahramonlar fe‘l-atvori, balki o‘zgalarning ular bilan munosabatlarini ko‘rsatishdan ham iborat.

Tahlil davomida Qimmat momo toifasidagi o‘zgalar diliga ozor berishdan huzurlanib, rohatlanadigan toshbag‘ir va andishasiz kimsalar tabiatini baholashda “Yomondan qoch-da qutul, yo, ton-da qutul”, “Balchiqqa tosh otsang, betingga sachraydi”, “Bedana tezotar bo‘lsa, o‘z boshini o‘zi yoradi” qabilidagi maqol va iboralarga munosabat bildiriladi.

¹ Гадоева Д. Дархат билан боғлиқ тотемистик қарапшлар. // “Ўзбек тили ва адабиети”. – Тошкент: 2012. № 2. – Б. 39.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллии энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – 222-б.

Muallif Oymomoga hamdard va xayrixoh insonlar ma'naviy qiyofasini o'ziga xos purma'no maqol va matallar vositasida ochib berishning uddasidan chiqqan. Masalan, Barchin xolaning dugonasi qalbida umid uchqunlarini alangalatishga intilishlari, armonlari ushalishga ishonch tuyg'ularini uyg'otishi, Qimmat momo yanglig' ayrim g'alamislarning fisq-u fasodlari o'tkinchiligi uning nutqidagi "Bir qishning bir yozi bo'ladi, qarg'aning qag'illagani qoladi, Oymomo do'stim!" (290-bet) tarzidagi dalda va tasallilarida namoyon bo'ladi.

Ota-onasining farzandi kelajagi haqida qayg'urishi, el-yurt oldidagi obro'sini o'ylab xatti-harakatlar qilishi ularning fikrini sayqallab, qissadan hissa chiqarishga undovchi maqol va iboralarda o'z aksini topadi. Qoplonga: "– Sen qatorilar bolali bo'ldi, – dedi otasi. – O'g'li borning o'zi bor, qizi borning izi bor. – Umr o'tayapti. Bo'laringda bo'lib o't, bo'z yo'rg'aday yelib o't" (244-bet).

Ko'rinadiki, asarda paremlar vositasida nutq lo'nda va ta'sirchan bo'lishiga erishilgan.

Yozuvchi folklordan samarali foydalanganligini Qoplonning ezgulik va hojatbarorlik timsoli Xizr alayhissalom bilan uchrashishi lavhasi; So'fi Olloyor hazratlari, Navro'z ayyomi, sumalak pishirish marosimi bilan bog'liq rivoyat va afsonalar salmoqli o'rin egallaydi. Navro'z sayliga aloqador Muqaddas Buqa haqidagi rivoyat tahlili o'quvchilarni mehnatkash xalqning yuksak orzu-umidlari, tasavvurlari, ishonch-e'tiqodlaridan xabardor qiladi.

Qissada topishmoqlar ham ma'lum bir maqsad bilan keltirilib, ular qahramonlar dunyoqarashi, tafakkur darajasini ko'rsatishga xizmat qilgan. "Kichkina qozonning oshi shirin" (yong'oq), "Bukri momom buk etdi, yugurib uyiga kirib ketdi" (sichqon), "Anavi tog'dan qaragan, manavi tog'dan qaragan, o'zinga yarashar deb balxi ro'mol o'ragan" (buzoqboshi), "Tog'ni talaydi" (bolta), "It emas, irillamas, odam emas, uyga qo'ymas" (qulf), "Uydamisan, marjon, eshikdamisan, marjon, oyoq-qo'ling ko'rinmas, qulfdamisan, marjon" (o'tov uyi bog'ichi) (271-272-betlar) kabi rang-barang mavzudagi topishmoqlar asarning qiziqarliligi, o'qishliligini ta'minlab, jozibadorlik baxsh etgan.

Mavsumiy marosimlarning mohiyatini yoritishga uyg'un qo'llanilgan topishmoqlar Surxon vohasi ayollarining aql-u zakosi, so'zga shaydolik hissi haqida o'quvchida tasavvur uyg'otadi. Masalan, sumalak pishirish marosimida gurunglashib topishmoqlar aytish lavhasi tahlil ishtirokchilarini Barchin vorislarining ta'bi nazmi, hozirjavoblighi, topqirlighi, zehni, did-farosati kabi xususiyatlaridan voqif etadi.

“El og‘zida yurmish topishmoqlardan aytish boshlandi.

Aytishuvni Xoldon momo boshlab berdi.

– Men aytsam, uzun-uzun o‘z ketdi, uzun bo‘ylik qiz ketdi – qasvasi qarsillab, manglayi yerga tarsillab. Bu nima?” (271-bet)

Topishmoqning javobidan o‘quvchilarga o‘zbek ayollari orasida keng tarqalgan o‘rmak o‘rish – sholcha yoki gilam to‘qishga xos mehnat jarayoni badiiy gavalantirilganligi ma‘lum bo‘ladi.

Xulosa qilish mumkinki, kitobxon “Oydinda yurgan odamlar” qissasi tasvirida keltirilgan xalq og‘zaki ijodi namunalari tahlili misolida ajdodlari tomonidan yaratib qoldirgan boy ma‘naviy merosdan cheksiz bahra oladi, badiiy-estetik tafakkuri yuksaladi.

Sinflar yuqorilagan sari nazariyaga oid tushunchalar mazmunan murakkablashib boradi. Jumladan, 7-sinfda roman turlari, 8-sinfda roman shakllari, 9-sinfda roman janri, she‘riy romanlar haqidagi ma‘lumotlarni o‘rganishda soddadan murakkabga tamoyili talablari o‘z aksini topadi. Shunga ko‘ra mashg‘ulotlarda grafik organayzerlardan mavzuni yoritishdagi imkoniyati, o‘quvchining yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlarini e‘tiborga olib qo‘llash maqsadga muvofiq.

Ma‘lumki, roman tarixiy, falsafiy, siyosiy, maishiy, biografik, fantastik, detektiv kabi mavzu yo‘nalishlarida yaratiladi; nasriy va she‘riy turlarga bo‘linadi; necha kitobdan iboratligiga ko‘ra dilogiya, trilogiya, tetralogiya, pentalogiya, epopeya kabi nomlar bilan tavsiflanadi. Roman haqidagi nazariy tushunchalarni **“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim”** grafik organayzeri asosida o‘rganish bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” jadvali o‘quvchilarning ma‘lum mavzu, bob va bo‘limlar yuzasidan izlanishlar olib borish, tizimli fikr yuritish, tahlil qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Texnologiyani qo‘llashda quyidagilar inobatga olinadi:

a) dastlab jarayon tartibi tushuntiriladi, jadval yakka tartibda yoki guruhlarda rasmiylashtiriladi;

b) vertikaliga uch ustunga ajratilgan jadvalning birinchi va ikkinchi bo‘limlariga “Mavzu yuzasidan nimalarni bilasiz?”, “Yana qanday ma‘lumotlarni bilishni istar edingiz?” savollari qayd etiladi;

d) ma‘ruzalar tinglanadi, mustaqil fikrlarga munosabat bildiriladi;

e) ish nihoyasida individual yoki guruh tarzida jadvalning uchinchi bo‘limi to‘ldiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfida A.Oripovning "Sohibqiron" dramasidan parchalar o'rganilishi jarayonida O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining "Ulug' saltanat" romani tarixiy mavzuda yaratilgan tetralogiyaga misol qilinadi.

Asar mustaqil o'qish tavsiya qilinib, muallif mahoratini baholash, shakl va mazmun uyg'unligini aniqlash vazifasi topshiriladi. Shu yo'l bilan o'quvchilarga milliy davlatchiligimiz asoschisi Amir Temurning nafaqat davlatni boshqarish salohiyati, balki ma'naviy qiyofasi bilan to'liq tanishishga imkoniyat yaratiladi. A.Oripov dramasida sarkardani o'y-xayollar girdobida uchratgan o'quvchi "Ulug' saltanat"da uning xarakteri qirralarini yarq etib ochuvchi shaxsiy hayotidagi turfa voqea-hodisalarning ham guvohi bo'ladi.

Asarga ilova tarzda she'rlar, doston, tarixiy romandan parchalar, esselar, publitsistik maqolalardan iborat "Oshiq bo'lmay, Haq diydorin ko'rsa bo'lmas", "Amir Temur chamani" kitoblarini mutolaaga tavsiya qilish ham Amir Temur va temuriylar davriga oid qimmatli ma'lumotlarga hamda asar muallifining Sohibqiron siymosini yaratish borasidagi ko'p yillik izlanishlariga qiziqtirish imkonini tug'diradi.

O'quvchilarga mazkur kitoblarni qo'shimcha tarzda mutolaaga tavsiya qilish orqali jahon adabiyotida Amir Temur haqida yaratilgan asarlar va ular saqlanayotgan mashhur kutubxonalar haqida ma'lumotlar olish; Buyuk Britaniya qirollik Shekspir teatri to'rt yuz yildan buyon o'z mavsumini Kristofor Marloning "Buyuk Amir Temur" (1587) tarixiy asari bilan boshlashi ingliz xalqining bobomiz shaxsiga ehtiromlari ramzi ekanligiga qiziqtirish imkoni tug'iladi.

Asar o'quvchilar tomonidan to'lig'icha mutolaa qilinganiga ishonch hosil qilinganidan so'ng tahlilga bag'ishlangan sinfdan tashqari o'qish mashg'uloti tashkil etiladi. Tahlilda o'quvchilar e'tibori tarixiy romanlarga xos quyidagi xususiyatlarga qaratilishi zarur bo'ladi:

1) asarning obyekti sifatida xalq va jamiyat hayotida eng muhim sanalgan davrlar, voqealar va ko'zga ko'ringan shaxslar hayoti olinishi;

2) tasvirlanayotgan davr va undagi voqealar, tarixiy shaxslarga nisbatan yozuvchi ilmiy-estetik konsepsiyasining bo'rtib turishi lozimligi, davr ijtimoiy-siyosiy xarakteristikasini yaratish;

3) yozuvchi bilan tasvir obyekti o'rtasida jamiyat taraqqiyotining muhim bosqichlari bilan izohlanuvchi davriy masofaning mavjud bo'lishi;

4) tasvirlanayotgan voqealar va shaxslar hayotining chuqur badiiy tadqiq etilishi, tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga o'sib chiqishi shart ekanligi¹.

Mashg'ulotda adabiy qahramonlar kechinmalarini his qilishlari uchun o'quvchilar tasavvurida Amir Temur davri ruhini jonlantirish ham muhim hisoblanadi. Buning uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari yordamida oldindan tayyorlangan Sohibqiron va uning avlodlari davrida bunyod ettirilgan me'moriy obidalar tasvirlari, asarning muayyan bobidan o'qilgan parchalarni magnit tasmasidan qo'yib eshittirish yoki u haqda yaratilgan filmlardan lavhalar namoyish qilish mumkin. Masalan, o'quvchilar xayolot olamida olis zamonlar voqea-hodisalarini gavdalantirish uchun quyidagi parcha o'zbek xalq kuylaridan biri uyg'unligida o'qib eshittirgan ma'qul:

“Navro'zi ayyom arafasida o'ttiz to'rt yoshli Temurbekning qo'shini Jayxundan o'tib, Balxdan uzoq bo'lmagan Bo'yyo deb atalgan mavzeda chodir tikdi. Tarix hijriy 771-yil kirib kelmoqda edi. Har Navro'z bayramini dilkash Kesh yurtida xesh-aqrabolar bilan o'tkazishni xush ko'radigan Temurbekning odatini tark qilib, safarga otlanishiga yetarli asoslar bor edi...”².

Amir Temurga piri Mir Sayyid Baraka tomonidan hokimiyat timsoli bo'lgan nog'ora va bayroqning topshirilishi kabi hayajonli lavhalarni nay navolari jo'rligida og'zaki hikoyalatish usuli ham tahlil ta'sirchanligiga xizmat qiladi.

Tahlil avvalida o'quvchilarga savollar berilib, ularning asar mazmunini qanchalik o'zlashtirganliklari aniqlanadi. Masalan, Muhammad Ali “Ulug' saltanat” romanida Sohibqiron timsoliga qaysi jihatdan yondashgan, degan savol bilan murojaat qilish o'rinli bo'ladi.

Amir Temur – murakkab tarixiy shaxs. Shuning uchun folklor asarlaridagina emas, balki yozma adabiyotda ham bu ulug' zot siymosiga turli jihatdan yondashilganini kuzatish mumkin. Shunisi e'tiborliki, har bir ijodkor Amir Temur obraziga o'z tushunchasi, dunyoqarashi va qiziqishi nuqtayi nazaridan baho beradi. Xususan, B.Ahmedov “Amir Temur” (1994) asarida tarixiy faktlar orqali buyuk sarkarda timsolini yaratishga jazm etgan bo'lsa, P.Qodirov (“Ona lochin vidosi”. Qayta ishlangan nomi “Shohruh va Gavharshod” 1996), A.Oripov (“Sohib-

¹ Каттабеков А. Тарихий роман хусусида баҳслар. Ўзбек адабий танқиди. –Тошкент: “TURON-IQBOL”, 2011. – 290-б.

² Мухаммад Али. Улуг' салтанат. Биринчи китоб. Жаҳонгир Мирзо. –Т.: “Шарк”, 2003. – 3-бет.

qiron”. 1996), X.Davron (“Samarqand xayoli”. 1991) lar ko‘proq badiiy tarzda gavalantirishga harakat qilganligi ko‘rinadi.

Nafaqat o‘zbek, balki chet el ijodkorlaridan, jumladan, O‘rta Osiyo tarixi yuzasidan uzoq yillar izlanishlar olib borgan angliyalik muallima Hilda Hukhemning “Yetti iqlim sultoni” qissasida sarkarda hayoti va faoliyati tarixiy manbalar asosida ilmiy yoritilganini kuzatish mumkin.

Sir emaski, sarkarda hali hayotlik chog‘idanoq uning shaxsi, harbiy yurishlari, davlatni boshqarish usullari dunyo xalqlarini qiziqtirib kelgan. Shu bois jahon va qardosh xalqlar adabiyotida ham Amir Temur obrazining munosib o‘rni bor. Masalan, amerikalik Edgar Poning “Buyuk Temur” (1827) poemasi, olmon adibi Iogann Bolfgang Gyotening “Temurnoma” (“G‘arbu Sharq devoni” asarining bitta fasli), Abdulloh Fotihning “Temurnoma”, (forsiy tildagi “Xamsa” asarining beshinchi dostoni), ozarbayjon adiblari Mammad Said O‘rduboyning “Temur va Yildirim Boyazid” (1916), Husayn Jovidning “Amir Temur” (1924) kabi dramalarida esa turkiy xalqlarni birlashtirishga harakat qilgan fothligi badiiy talqin etiladi.

Sohibqiron obrazi hatto G‘arb san‘atshunoslari diqqat markazida bo‘lganligini nemis kompozitori Georg Fridrix Gendelning 1724-yilda yaratgan “Amir Temur” operasi yoki bugungi kunda o‘zbek musiqashunoslari tomonidan ilk bor o‘rganilgan italyan bastakori Franchesko Gasparinining “Temur” (“Tamerlano”. 1717) musiqiy asari ham dalolat beradi¹.

Xorijda Amir Temur shaxsini o‘rganish yuzasidan ilmiy izlanishlar davom etayotganligini fransuz olimi Lyus‘en Kerenning 2006-yilda nashr ettirgan “Samarqandga. Amir Temur davriga sayohat” tadqiqoti misolida ham guvohi bo‘lish mumkin.

“Badiiy asarni u yaratilgan davr voqeligiga bog‘lab qo‘yishlik unga noijodiy yondashishning natijasidir. Holbuki, badiiy kommunikatsiyaning yakunlovchi bosqichi – asarning o‘qilishi va uqilishi ham tom ma‘nodagi ijodiy jarayondir. O‘quvchining diqqat-e‘tibori asar badiiy voqeligining real voqelikka nechog‘li mosligiga emas, uning zamiridagi MA’NOga qaratilishi lozim. O‘quvchi o‘z voqeligidan kechib badiiy asar voqeligida to‘laqonli yashasagina ijod onlarida san‘atkorga ruhan yaqinlashadi, shundagina o‘sha san‘atkor MA’NO vositasida anglagan olamu odam mohiyati unga ochilishi mumkin bo‘ladi. MA’NOning “skeleti” bo‘lmish mohiyat o‘zgarmas tabiatga

¹ Турсунова Р. 9 апрель – Амир Темур таваллуд топган кун. // “Jahon adabiyoti”. –Тошкент: 2014. № 4. – Б. 202.

egadirki, uning vositasida o'quvchi o'z *zamonasini, zamondoshlarini, o'zini* teranroq idrok etadi"¹.

Bugun matbuot sahifalarida olimlarning tetralogiyada Sohibqironning Turkiston zamini vatanparvar o'g'loni, qudratli saltanat bunyodkori sifatidagi xususiyatlari badiiy to'qimalar bilan yanada boyitilgan holda asosiy e'tibor qismatidagi qayg'uli va quvonchli kunlarga qaratilganiga, suronlar to'la jang-u jadallaridan ham ko'ra ko'proq oilasi, yaqin kishilari davrasida kechgan umr sahifalari tasvirlanishiga oid chiqishlari kuzatilmoqda².

Adabiyotshunos I.Yoqubov esa mutaxassislarning masalaga faqat shu nuqtayi nazardan yondashishlarini to'liq oqlamaydi. Uning fikricha, bu xildagi qarashlar yozuvchi ko'zlagan maqsad ko'lamini ancha toraytirib, asar falsafasiga putur yetkazishi mumkin. Bu boradagi da'volar ma'lum darajada o'rinlidir. Albatta, tarix zarvaraqlarida Amir Temur nomi tarqoq ellarni birlashtirgan muzaffar, markazlashgan davlat asoschisi sifatida abadiyatga muhrlangan. Biroq sarkarda tetralogiyada "... azbaroyi saltanat ilinjida oilaga bo'lgan mehr va ardog'ini ongli tarzda jilovlashga intilgan inson sifatida"³ gavdalanitirilgan qabilidagi xulosalari biroz munozara talabdir.

Masalaga yozuvchining quyidagi fikrlariga murojaat qilish orqali aniqlik kiritish mumkin:

" – Asarda iloji boricha Amir Temurning oilaviy hayotini yoritishga harakat qilingan. Maqsad – millatning otasi haqida – uning ibratli insoniy fazilatlarini, namuna bo'lgulik hayoti lavhalarini o'quvchiga yetkazish. Axir dunyoda sarkardalar, davlat arboblari kam o'tganmi, nega hanuz Amir Temur shaxsi barcha zamonlar va xalqlarni hayratga solib keladi, dersiz. Bizning bobomiz jahongirligidan tashqari Buyuk Inson degan tushuncha-mezonga to'la javob bera olgan siymodir... Men asarimda sohibqiron bobomiz siymosini o'quvchiga yanada yaqinlashtirish yo'lidan bordim"⁴.

Mashg'ulotda Amir Temurga, avvalo, tarixiy shaxs, tirik inson nuqtayi nazaridan yondashilishi maqsadga muvofiq. Tahlilda o'quvchi qahramonni jonidan ortiq suygan farzandlari tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratgan padari buzrukvor sifatida tasavvur qilishi zarur. Otadan ibrat olgan o'g'illarning kelajakda qat'iyatli, mard, jasur va halol yigitlar

¹ Курунов Д. "АДАБИЁТ НАДИР" эки Чўлпоннинг мангу саволи. Адабий-танқидий мақолалар. –Тошкент. "Zarqalam", 2006. – 38-39-б

² Ҳазратқулов Ж. Адибнинг мухташам "Улуғ салтанат"и. // "Шарқ юлдузи". –Тошкент: 2013. № 2. – Б. 170.

³ Ёқубов И. Умумий диллар залвори. // "Ёшлик". –Тошкент: 2015. № 1. – Б. 62.

⁴ Муҳаммад Али. Амир Темур чамани –Тошкент: "Ўзбекистон", 2009. – 158-б.

bo'lib kamol topishi lavhalari bugungi kun yoshlari uchun o'ziga xos maktab vazifasini o'tashi, tabiiy.

Kichik malika Sulton Baxt begimni kamon otish, qilich ushlash hunarlariga o'rgatishi, zarur bo'lganda janglarda qatnashishiga izn berganligi sarkardaning xotin-qizlarga nisbatan ishonchini, ayollarga ojiza sifatida qaramaganligini isbotlaydi. Bu haqda "Yetti iqlim sultoni" asarida ham qator qiziqarli faktlar uchraydi. Muallif qissada tarixchi Arabshohning ko'chmanchi ayollarga xos jangovar ruhi haqidagi hikoyasini keltirishi ham bejiz emas: "Temurning lashkaridagi ayollar ham erlaridan qolishmasdi. Ular jangu jadal avjiga chiqqan paytda maydonga tushishar, nayza, shamshir va kamonni mohirona ishga solib, dushmanning ne-ne zo'r yigitlarini mag'lub etishardi"¹.

Sohibqiron avlodining davomchilari sog'lom bo'lishi uchun o'g'il uylantirib, qiz uzatayotganda nasl tozaligiga jiddiy e'tibor qaratganligi masalasini bugungi kunga bog'lab talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, yosh avlod ma'naviy va jismoniy barkamolligi muammosi barcha davrlarda ham dolzarb sanalgan. Hukmdor to'ng'ich shahzoda Jahongir Mirzoning Xorazm malikasi Xonzoda xonimni jufti halollikka tanlaganidan mamnunligini yashirmasligi sabablarini ham aynan shu omillarga bog'lab izohlash tahlildan kutilgan natijalarni beradi.

Farzandi arjumandi Jahongir Mirzoni tuproqqa topshirib, bu yorug' dunyoga sig'may yurgan kunlarining birida opasi bilan diydorlashgan sarkardaning hasratlarga to'la so'zlarini misol tarzida keltirishlari orqali uning butun hayoti, odamiylik xususiyatlari ko'zgudagidek ravshanlashadi:

“ – Dunyoning yumushlari chigal ekan, uchi-keti yo'q katta savdolarga otilg'on ekanmiz, opajon!.. Anglamaydurmen, ne yozug'im bor erdiki, parvardigor menga shunday mehribonchilikni ravo ko'rdi? Nechun endi arslonday dilbandimni, dunyoga kelib, hali yashashning ma'no-mazmunini anglab yetmag'on, umr lazzatini totib ulgurmag'on pokiza xilqatni bag'rimdan yulib oldi?.. Qaysi gunohlarim uchun?..”².

Tahlil ishtirokchilari e'tiborini Amir Temur hayotidagi qayg'uli va quvonchli kunlarga qaratish juda muhim hisoblanadi. Binobarin, jigargo'shalaridan ayrilganida lolu hayron bo'lib qolishi bilan bog'liq sahnalar buyuk Sohibqiron xarakteri takomilida muhim o'rin tutadi. Mazkur jarayonda o'quvchilar dunyoda yaqinlarini yo'qotishdan ortiq

¹ Хилда Хуккэм. Етти иқлим султони: Хужжатли-тарихий қисса. Русчадан Ҳ.Турабеков ва Ш.Сокин таржимаси. –Тошкент: “Адолат”, 1999. – 58-б.

² Мухаммад Али. Улуғ салтанат. Иккинчи китоб. Умаршайх Мирзо. –Тошкент: “Шарк”, 2006. – 61-б.

judolik yoʻq ekanligini dildan his qiladilar, oilasi, yor-birolarlari, bir soʻz bilan aytganda, Insonni qadrlashga oʻrganadilar.

Maʼlumki, beshafqat taqdir uni birin-ketin suyangan qoʻrgʻonlaridan ayiradi. Avval oʻgʻli Jahongir Mirzo, keyin sevimli qizi Oqa Begi, egachisi Qutlugʻ Turkon oqa, singlisi Shirin bika, zavjasi Dilshod oqalar dunyodan koʻz yumib, azoblarga tashlab ketadi. Temurbek yuragiga yaqin kishilarining daldalari bilan qismatidagi koʻrgiliklarni yengib, oʻzida yashashga kuch topa bilishi oʻquvchilarni hayotda irodali boʻlishga undaydi.

Tahlil jarayonida sarkardaning toʻngʻich farzandi tugʻilishi, oʻgʻil uylantirib orzulari ushalgandagi xushnudliklari, ilk bora bobo boʻlish lazzatini tuygan daqiqalari, Jahongir Mirzodan yodgor Muhammad Sultonni qoʻliga olgan lahzalardagi hayajonlari, nabirasi Pirmuhammad Jahongirning toʻyini oʻtkazishning shirin tashvishlari va yana yigirma besh yillarcha oldin yoʻqotgan muhabbatini topgani – Tuman oqani uchratgan onlari... Bari-bari Amir Temur hayotining eng unutilmas damlari tarzida qalamga olinganligini ham unutmasliklari kerak.

Oʻzgalar taqdiriga befarq qaramasligi lavhalarini oʻquvchilar xotirasida tiklash orqali Amir Temurning hayotga boʻlgan munosabati kashf etiladi. Amir Husayn bilan juvonmardlik haqida boʻlib oʻtgan bahsdan keyingi voqea bunga yana bir karra guvohlik beradi.

Amir Husayn oʻz navkarining qahraton qishda muzdek suvga shoʻngʻib kelishini fidoyilik namunasi sifatida baholasa, undan farqli oʻlaroq, navkariga baland minoradan yerga sakrashni buyurgan Temurbek bir kun oldin yigitning joni omon qolishi chorasini koʻrib qoʻyishi askarlarida unga boʻlgan sadoqatini yanada mustahkamlaydi.

Tahlil davomida oʻquvchilardan Amir Temurning insonlar oʻrtasidagi oqibatsizliklardan chekkan iztiroblari aks etgan oʻrinlarni topib, mulohazalarini dalillar asosida isbotlashlari talab qilinadi. Xususan, quyidagi lavha tahlili uning ruhiyatini his qilishlarida muhim oʻrin tutadi:

“– Nima uchun odamlar bir-birlarini yomon koʻradilar, xiyonat qiladilar, yolgʻon soʻzlaydilar, toʻgʻri gapirib teskari ish koʻradilar, yaxshilikka yomonlik bilan javob beradilar?... – Tobakay musulmonlar munofiqlardan aziyat chekadilar? Nega? Nega?...”¹.

Soʻngra oʻquvchilar faoliyati qoʻl ostidagi amirlarining xiyonati-dan ozor chekkan sarkarda ahvolini taftish qilishga yoʻnaltiriladi.

¹ Мухаммад Али. Улуғ салтанат. Иккинчи китоб. Умаршайх Мирзо. –Тошкент: “Шарк”, 2006. – 271-б.

“Ota-o‘g‘il” tutinish yo‘li bilan To‘xtamishxonga bir necha bor o‘z mavqeini tiklab olish imkonini berishi Amir Temurning Jo‘ji ulusi, Dashti Qipchoq kabi hududlar osoyishtaligini ta‘minlash, har qanday masalada “yetti o‘lchab, bir kesish”i, uzoqni ko‘zlab ish yuritishi siyosati tufayli, deb tushunmoq mumkin. Biroq o‘quvchilar tomonidan Amir Kayxusrav, Mahmudshoh Buxoriy, Abu Is‘hoq Yasovuriy, Odilshoh jaloyir kabi xudbin amirlar xoinliklarni qayta-qayta avf etishi, ularni yuqori darajadagi mansablar bilan siylashi Temurbekning qat‘iyatligi, jahongashtaligi kabi fazilatlariga soya solgandek tuyulishi haqidagi mustaqil fikrlar bildirilsa, tahlil samaradorligi yanada ortadi.

Mashg‘ulot yakunida “Klaster” (“tutam”, “bog‘lam”) grafikli organayzeri imkoniyatlaridan foydalanib, roman qahramonlariga xos xususiyatlar umumlashtiriladi va mustahkamlanadi.

“Klaster” metodi – axborotlar xaritasini yaratish yo‘li. U biron mavzuga oid g‘oyalar mohiyatini muayyan omil atrofida birlashtirishga yordam beradi. Yangi mavzu bilan yaqindan tanishishda avval egallagan ma‘lumotlarni izchillikda ifodalash, tizimlashtirish va faol fikrlashga yo‘naltiradi, shuningdek, o‘tilganlarni takrorlash hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni chizma ko‘rinishida tarmoqlab aks ettirishga zamin yaratadi.

“Insert” grafik organayzeri materialni samarali o‘rganish va mantiqiy fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi bo‘lib, mustaqil o‘qish vaqtida olingan bilimlarni tizimlashtirishga, ehtiyoj sezilganda g‘oya va fikrlarga izoh berish, qo‘shimchalar kiritish zaruriyatini taqozo etadi.

“Insert” – o‘zlashtirishning kompleks vazifalarini hal qilish va mavzuni mustahkamlash, kitob bilan mustaqil ishlash malakasini rivojlantirishga qaratilgan o‘qitish usulidir.

Yapon yozuvchisi Sin‘iti Yukining “Xazon qoplagan bog‘” hikoyasi sujeti yoki kompozitsion xususiyatlari “Insert” usuli asosida ko‘rib chiqilishi o‘quvchilarning masalaga individual tarzda yondashishi qatori axloqiy muammolar, umumbashariy qadriyatlar yuzasidan mu-lohaza yuritish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, asar mazmun-mohiyati, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini idrok etish, undagi jozibani ilg‘ay olish va his qilish o‘quvchilar tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan zaruriy talablardan ekanligi adabiyotdan Davlat ta‘lim standartida alohida belgilanishi bejiz emas.

Hayotning real qiyofasi, turfa xarakterlar, voqeliklar, murakkab insoniy munosabatlar, ijtimoiy ziddiyatlar, his-tuyg‘ular tasvirida asar

tili, sujetning tarkibiy qismlari, kompozitsion vositalar, adabiy tur va janrlar kabi vositalar katta ahamiyatga ega.

“Sujet hayotning obyektiv oqimini, tarixini oddiy tasvirlash (chunki san’atkor, nusxa ko’chiruvchi shaxs emas) bilan yuzaga kelmaydi, balki yozuvchi tomonidan eng xarakterlilari tanlangan, ishlov berilgan, mohiyatini ochib beradigan, g’oyaga muvofiqlashtirilagan voqealardir”¹.

Ma’lumki, sujet (fransuzcha “sujet – “narsa”, “mavzu”, “mazmun”) kompozitsiya talablariga mos holda namoyon bo’ladi. Bu tushuncha haqida so’z yuritganda, dastlab asar markaziga qo’yilgan muammoga qanday nuqtayi nazardan yondashilganiga hamda ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim, prolog va epilog kabi o’zaro bog’liq qismlar orasidagi mantiqiy izchilikka munosabat bildirilishi maqsadga muvofiq. Binobarin, sujet qismlari barcha asarlarda ham to’liq uchrayvermaydi.

Kompozitsiya atamasi lotinchadan o’zbekchaga tarjimada “compositio” – “tuzib chiqish, “tartibga solish” ma’nosini bildiradi. Adabiyotshunos E.Xudoyberdiyev ta’rificha “Adabiy asarning barcha qismlarini o’zaro birlashtiruvchi, muayyan hayotni yaxlitlikda va muallif nuqtayi nazariga mos holda obrazli aks ettirishga yordam beruvchi qurilishi kompozitsiya, deb ataladi”².

Kompozitsion markaz, asar qismlarining o’zaro joylashuvi, ularning yozuvchi g’oyaviy maqsadiga mosligi, obrazlarning yagona tizimga birlashtirilishi, tasvirdagi me’yor tahlilda alohida so’z yuritishini talab etadigan tamoyillar tarkibiga kiradi.

“Xazon qoplagan bog’” hikoyasi insonning yashashdan maqsadi, yoshlarning davlat, jamiyat oldidagi burch va mas’uliyati qalamga olinishi bilan kitobxonni faol ruhiy tahlilga tayyorlaydi.

Asar sujetida bosh qahramon Kayama umrining so’nggi davriga tayaniladi. Tabiat hodisalari qahramon taqdiri in’ikosi sifatida bo’y ko’rsatib, mavsumiy o’zgarishlar, fasllar almashinishi, marhumlar yodi, daraxtlar va toshlar tarixi ichki dunyosiga bog’liq holda talqin qilinadi.

Sujet xarakter tarixi ekanligi nazarda tutilsa, muayyan obraz faoliyatiga tayanib fikr yuritish o’ta muhimdir. Chunki asar mazmunidan kelib chiqadigan asosiy g’oya personajlarning shakllanib, takomillashib boruvchi fe’l-atvori, xatti-harakatlari orqali yanada oydinlashadi.

¹ Умуров Х. Адабиёт назарияси. –Тошкент: “Шарк”, 2012. – 129-б.

² Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. –Тошкент: “Шарк”, 2008 – 86-б

Kayama ellik ikki yoshida xotini vafot etadi. O'g'li va qizi oila qurib, Tokioga ko'chib ketishganida u oltmish yoshda edi. Hayotini mahzun ohanglarga to'ldirgan yolg'izlik azobidan qariyani faqat bog' yaratish ishtiyoqigina xalos qila oladi.

Kayamaning ezgu maqsadiga bog'bon Sudo, toshfurush va uning o'g'li kamarbastalik qiladi. Yaqin kishilarining sa'y-harakatlari bilan bog' boshqa yerlardan ko'chirib keltirilgan anvoyi daraxtlar, antiqa qadimiy toshlar bilan bezatilib, yanada ulug'vor va ko'rkam qiyofa kasb etadi.

Aytish mumkinki, asar nafaqat inson ruhiyati chizgilari, balki yapon xalqining bog' yaratish san'ati xususida ham muayyan tasavvur uyg'otadi. O'zbek va yapon millati qadriyatlari o'rtasidagi mushtarak jihatlarni namoyon qiladi. Dunyoda yaponlarchalik tabiatni sevib, e'zozlaydigan xalq kamligiga o'quvchini ishontiradi.

Sudo vafotidan so'ng Kayama xayolan bir zamonlar yong'in sodir bo'lgan uyda halok bo'lgan ayol ruhi bilan ovunadi. Endi tabiat hayotining ajralmas bo'lagiga aylangan, zerikish va quvonchlardan xoli umrguzaronlik qilardi.

Yomg'irli kunlarda allaqayerlardan kelib qolgan chumchuqlar galasining ulkan moviy tosh ko'ksida yig'ilib qolgan suvdan to'yib ichishlari, chanqog'ini qondirgach, qanotlarini qoqib mayin raqsga tushishlari unga o'zgacha rohat bag'ishlar, kamgakda to'planib qolgan yaproqlarni tomosha qilgani sayin yuragida o'tli hissiyotlar jo'sh urardi.

Vaqt o'tishi bilan xuddi boshqalar kabi Kayamaga ham tabiat qonuniyatlari shafqatsiz hukmini o'tkazmay qolmadi. U endi yolg'izligidan cheksiz iztirobga tushar, o'zidan bog' qolayotganidan ortiqcha zavqlanmas, faqatgina sevimli toshini narigi dunyoga olib ketishning iloji yo'qligi haqida qayg'urardi, xolos.

“Xazon qoplagan bog'” hikoyasi qismlarini tiriklik va o'lim, xotira va yod etish, yaratuvchanlikka ruhlantirish haqidagi yetakchi g'oyalar birlashtiradi. Asar nomi, lirik chekinish (Kayamaning bog' yaratishga kirishgunga qadar o'tgan kunlari haqidagi tanishtiruv), qahramonlar portreti, detal (qora siyohga botirilgan mo'yqalam, kumushrang zog'orabaliq), peyzaj kabi kompozitsion vositalarning asar mazmuni va yaxlitligini ta'minlashda o'z o'rni mavjud. Jumladan, savdogar toshfurushning yo'l-yo'lakay tilga olingan “qizil yuzi, qiyiq ko'zlari, oppoq tishlari, qo'ng'iz mo'ylovi”¹ voqealar davomida uning

¹ Синъити Юки. Хазон қоплаган бог. Рус тилидан О.Отахон таржимаси. // “Jahon adabiyoti”. –Тошкент: 2014. № 10. – Б. 143.

xarakter xususiyatlari, ichki dunyosini to'laqonli yoritish vositasiga aylangan, deyish mumkin.

Tahlil yakunida asarning badiiy xususiyatlari yoki kompozitsiya amoyillari quyidagi tizim asosida belgilanishi va rag'batlantirilishi raqsadga muvofiq:

“V” – Buni bilaman.

“+” – Yangi axborot.

“–” – Bilganlarimga zid.

“?” – Meni o'ylantirib qo'ydi. Bu masala bo'yicha qo'shimcha axborot kerak.

№	Ma'lumotlar	“V”	“+”	“–”	“?”
1	Yaponlar tabiat go'zalliklarini asl holicha saqlash tarafdori. Shuning uchun manzara yaratishda ikebana san'atidan foydalanishadi.		+		
2	Keksa ota-onasini qarovsiz qoldirish farzand uchun kechirilmas gunoh.	V			
3	Toshlardan tog' daryolarining shovullagan ovozi eshitilgandek tuyulishidan qariya ularga tirik mavjudot sifatida qaravdi.			–	
4	Xazon qoplagan bog' – yolg'izlikka chulgan umr.				?

Jadvaldan ko'rinadiki, “V” belgisi o'quvchi bilim darajasini ilasa, “+” qiziqish va imkoniyatlarini namoyon etadi.

Munozara talab “–” belgisi bahslashishni taqozo etadi, chunki har o'quvchining ko'rilayotgan masala yuzasidan shaxsiy qarashlari uch.

“?” belgisi esa ehtiyojlarini aniqlaydi, adabiyotlar bilan mustaqil ish, qo'shimcha ma'lumotlar izlab topish, yangi g'oyalar taqdim va xulosalarini asoslashga sharoit yaratadi.

O'quvchilarning adabiy-nazariy bilimlarga qiziqishlarini oshirish, bir ishga ijodiy yondashish va novatorlik kompetensiyasini antirishda **“Tushunchalar tahlili”** jadvali ham yaxshi samara beradi. Masalan, 9-sinfda Ch.Aytmatovning **“Asrga tatigulik kun”** asari ruhidan kelib chiqib pafos haqidagi ma'lumotlar berilgan¹.

¹rev Q Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 9-sinfi uchun darslik. II qism. – “Yangiyo'l poligraf servis”, 2014. – 182-b.

Badiiy asar pafosi quyi sinflarda egallangan nazariy bilimlarning davomi sifatida “Tushunchalar tahlili” grafik organayzeri asosida oʻrganilishi:

a) muayyan atama etimologiyasi, qoʻllanish va tatbiq etish oʻrni, hissiyot va fikr birligini taʼminlashiga koʻra atroflicha bilim beradi;

b) muallif nuqtayi nazarini, ijodiy yoʻnalishi, asar ruhi va mazmun-mohiyati haqida tasavvur uygʻotadi;

d) yozuvchi bilan hamfikir boʻlishga, uning maslagini anglashga yoʻnaltiradi;

e) badiiyat va hayotni taqqoslash asosida real xulosalarni shakllantiradi. Masalan:

Tushunchalar nomi	Sizningcha bu tushuncha nimani bildiradi?	Biror asar misolida ushbu tushunchaning ruhiyatingizga taʼsirini belgilang	Qoʻshimcha maʼlumot bering
Pafos	“Pathos” yunon tilidan olingan soʻz boʻlib, “ehtiros”, “hissiyot” va “iztirob” kabi maʼnolarni anglatadi.	Masalan, E. Vohidovning “Oʻzbekim” qasidasidagi oʻtli va joʻshqin misralar oʻtmishdan saboq olishga, yurt tarixi, ajdodlar merosidan faxrlanish tuygʻularini kamol toptirish, kelajakka ishonch bilan qadam tashlash, Vatanni sevish, insonni qadrlash va xalqparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.	Mazkur atamani fanga Gegel olib kiritgan. Qadimgi yunonlarda ritorika (notiqlik) dan kelib chiqqan boʻlib, yozuvchining dunyoqarashi va gʻoyasini yuzaga chiqaradi.

Maʼlumki, Alisher Navoiy ijodi umumiy oʻrta taʼlim maktablarining barcha sinflarida oʻquvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, “Iyerarxiya” – oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga oʻtish usuli asosida oʻrganiladi.

Mutafakkir umrbayoni bilan tanishish jarayonida oʻquvchilar bolalik chogʻlaridanoq kitobga oʻzgacha mehr qoʻygan buyuk isteʼdod sohibi mutasavvuf shoir Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarini sevib mutolaa qilganligi, hatto boshdan oxir yod olganligi, “Bir umr bu

asar ta'sirida yurib, hayotining so'ngida unga "tarjuma rasmi bila" javob aytgan"ligi¹, ya'ni "Lison ut-tayr"dek chuqur falsafiy bir dostonning dunyoga kelishiga zamin yaralganligi haqidagi ma'lumotlarga duch kelishadi.

Shuningdek, 5-sinfda tarixchi adib M.Osimning Navoiyga bag'ishlangan "Zulmat ichra nur" qissasidan keltirilgan parchani o'rganishlari davomida ham "Mantiq ut-tayr" yosh Alisher qalbini o'ziga tamomila rom etganligi, allanechuk xayolparast, odamovi bo'lib qolgan o'g'lining ruhiyatidagi o'zgarishlardan xavotirlangan ota-onasi bu kitobni o'qishni man etib, uni yashirib qo'yganligi haqidagi lavhalar yuqoridagi ma'lumotlarning badiiy in'ikosi sifatida o'quvchilar ko'z o'ngida gavdalanadi.

Tarjimai holi bayoni va "Qushlar tili"da tasvirlangan voqealar o'zaro uyg'unlashib, bo'lajak shoir ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatgan asar va uning muallifi haqida o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi, shubhasiz. Shuningdek, o'quvchilarning Attor ijodini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirish borasida uning "Ilohiynoma" kitobida zikr etilgan quyidagi hikoyatni so'zlab berish orqali ham ko'zlangan maqsadga erishish mumkin:

"Naql qilishlaricha, burungi o'tgan zamonda bir badavlat odam yashagan ekan. U umr bo'yi yiqqan boyliklarini oltin tangalarga aylantirib, bir hamyonga to'plab yurar ekan. Ittifoqo o'sha davlatmand vafot etibdi. Kunlardan bir kun o'g'illari tush ko'rsa, otasi mushukka aylanib qolgan emish.

– Bu yerda nima qilib yuribsiz, sizni kim bu ko'yg'a soldi, otajon? – so'rabdi o'g'li.

– Kimda kim dunyo moliga hirs qo'yib yig'sa, shu xasis mushuk sichqonni poylagandek, boyligi atrofida sargardon yuradi, – debdi otasi. Shundan so'ng o'g'illari otadan qolgan boylikni beva-bechoralaru, madrasa talabalariga taqsimlab berib, nafs ammorani cheklab, ishq ilohiy yo'lida fidoiylilik bilan riyoat chekib yashay boshlabdilar².

Bunday usullarni qo'llash sinf va sinfdan tashqari o'qish o'rtasidagi uzviylik va izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'qituvchi mashg'ulotlarni o'quvchilarda tabiiy ravishda paydo bo'ladigan istak va moyilliklarni nazarda tutgan holda rejalashtirishi zarur.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 9-sinf "Adabiyot" darsligida Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoniga qo'shimcha tarzda

¹ Очилов Э. Ҳикмат маърифати (Сўзбоши). Фаридулдин Аттор. Ҳикматлар ва ҳикоятлар (Форсийдан Жамол Камол таржумаси). –Тошкент: "Мухаррир", 2010. – 3-б.

² Ҳамиджон Ҳомидий Тасаввуф алломалари. –Тошкент: "Шарк", 2009. –150-б.

komil inson haqidagi nazariy ma'lumot berilgan. Unda tasavvuf tushunchasi badiiy adabiyotda komillik timsoli sanalgan Farhod obrazi misolida yanada kengroq yoritilgan¹. Binobarin, bu ikki tushunchani o'rganish uchun asosli mushtaraklik mavjud.

Qadimdan yurt tinchligi, xalq manfaati, jamiyat taraqqiyoti ma'naviy yetuk insonlar qo'liga ishonib topshirilishi bejiz emas, albatta. Komil inson tarbiyasida esa tasavvuf ta'limotiga ehtiyoj seziladi.

Istiqlof mafkurasi va jamiyat ma'naviyati shakllanib, oyoqqa turishida muqaddas islom dini ta'sir kuchini e'tirof etmaslikning iloji yo'q. Shu bois mamlakatimizda olib borilayotgan mustaqillik ma'naviyati siyosati ildizlari bevosita tasavvuf g'oyalari bilan sug'orilgani sir emas.

Tasavvuf – VIII asr o'rtalarida paydo bo'lgan diniy-falsafiy oqim. U dastlab zohidlik harakati ko'rinishida Bag'dod, Basra, Kufa, Damashq shaharlariga keng tarqalgan. So'fizm ta'limotida inson shaxsiy xohish va istaklarini yengish orqali kamolotga erishadi, degan g'oya ilgari suriladi. Tasavvuf ahli qalban pok va go'zal bo'lishga, Haqni tanishga va haqiqatni bilishga intilgan.

“Insoniy niyatlar bilimdoni” maqomiga sazovor bo'lgan Hasan al-Basriy tasavvuf asoschilaridan biridir. O'z davrining taniqli nazariyotchisi Imom G'azzoliy tasavvuf g'oyalarining rasman tus olishida alohida jonbozlik ko'rsatgan. U insonning axloqiy yetukligini Qur'oni karim va Hadisi sharifda belgilangan shartlarni bajarishiga bog'liq, deb biladi.

O'rta Osiyoda so'fizm ta'limoti Yusuf Hamadoniylar rahnamoligida shakllangan. Uning shogirdlaridan biri bo'lgan Ahmad Yassaviy XII asrda yetishib chiqqan ilk tasavvuf tariqati asoschisi hisoblanadi. Yassaviy tariqatining o'z aqidalari bo'lgan. Ular turkiy-zabon shoirlarning “Hikmat”larida mufassal bayon etilgan.

Yassaviy yozgan she'rlarida halol mehnat qilib kun kechirishning afzalligini yoqlaydi, jaholat, nodonlik, mol-dunyoga haddan ziyod ruju qo'yishning zararli oqibatlarini qoralaydi. U Haq Taolo diydoriga yetishmoqlikni botiniy va zohiriy mukammallikda ko'radi.

Xorazmlik ilohiyotchi olim, mutafakkir Najmiddin Kubro ham yirik mutasavvuf bo'lib, zamondoshlari tomonidan “Abu-Jannob”, “Valiytarosh” va “Tomatul Kubro” nomlari bilan ulug'langan. Uning aqidasi, “o'lmaydigan shaxsning yodi uning nafsini mag'lubiyatga

¹ Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 9-sinfi uchun darslik. I qism. – Toshkent: “Yangiyo'l poligraf servis”, 2014. – 93-94-b.

uchratgan sifatlarida yashaydi”¹. Shayx Kubro tasavvufda “keng fe’llik” tariqatiga asos solgan.

XIII asr oxirlarida shakllanib, XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoga keng quloch yoygan “Naqshbandiya” tariqati buxorolik Xoja Muhammad Bahouddin Naqshband nomiga bevosita daxldor. Naqshbandiya yassaviylik tariqatining uzviy davomi. U oʻz ichiga shariat, tariqat, maʼrifat va haqiqat kabi toʻrt tadrijiy yoʻlni olib, asosida inson botinini tarbiyalash muammosi yotadi.

Shariat – islomning diniy huquqi, urf-odat, marosimlar, aqida va taqvolarni izchil tarzda amalga oshirish. U tanni va koʻngilni poklaydi.

Tariqat – nafsni tiyish, mudom Yaratganni yodda tutish, oʻzdan kechish. Bu faoliyat qalbni yoritadi.

Maʼrifat – Alloh butun borliq moyasi. Bunda inson oʻz mohiyatini anglab yetishi kerak. Manmanlik, kibr, ortiqcha hoyu havaslarga berilish maʼnosiz ekanligini tushunsa orif – donishmand sanaladi va Haqni taniydi.

Haqiqat – soʻfiy Tangri vasliga erishadi, u bilan birlashadi.

Naqshbandiylik tariqati mohiyatiga “Qoʻl ishda, Alloh dilda boʻlsin” gʻoyasi singdirilgan.

Oʻquvchilar tasavvuf haqida yetarlicha bilimga ega boʻlishlari uchun bu taʼlimot mohiyati chuqur singdirilgan Farididdin Attor asarlariga murojaat qilinishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul oʻz tadqiqotlarida tasavvufning “bashariyat havas qiladigan va qiziqadigan eng yorqin va ilgʻor jihatlarini yoki tamoyillarini qunt bilan oʻrganib, oʻzlashtirish” zarurligi xususida atroflicha fikr yuritib, unga “ishtiyoq va qiziqish millatning tafakkur rivoji, madaniy saviyasiga zarracha ham xalal bermaydigan darajada keng va yuqori boʻlmogʻi lozim”² ligini eʼtirof etadi.

Mazkur talablardan kelib chiqib, mashgʻulotlarda axloqiy-taʼlimiy va falsafiy mavzulardagi adabiyotlardan foydalanish koʻzda tutiladi. Oʻqituvchining shoir hayoti va adabiy merosi, shuningdek, mustaqillik yillarida bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar, hikoyatlardan tarjimalar, chop etilgan maqolalar yuzasidan yetarlicha xabardor boʻlishi oʻquvchilarga zarur adabiyotlarni tavsiya qilishda muhim sanaladi.

¹ Yoʻldoshev S., Qodirov M., Usmonov M. Ajdodlarimiz merosi – mafkuramiz gavhari. –Toshkent: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”, 2001. – 78-b.

² Иброҳим Ҳаққул. Тақдир ва тафаккур. –Тошкент: “Шарк”, 2007. – 295-б.

Adib ijodini o'rganishga bag'ishlangan sinfdan tashqari o'qish mashg'uloti "Tavsiyalar", "Izlanishlar" va "Natijalar" deb nomlangan uch bosqichda amalga oshirilishi rejalashtiriladi.

Dastlabki bosqichda milliy va umuminsoniy muammolar talqiniga keng o'rin berilgan bir qancha asarlar mustaqil mutolaaga tavsiya qilinadi.

"Izlanishlar" bosqichida esa quyidagi usullarni qo'llash orqali tavsiya etilgan adabiyotlar o'quvchilar tomonidan qay darajada o'qib-o'rganilayotgani aniqlanadi:

1. "Davomini siz ayting" usuli. Mazkur usuldan adabiyot darslarida uyushtiriladigan "Lirik chekinish"lar chog'ida foydalanish mumkin. Buning uchun dastlab o'quvchilar badiiy-estetik tafakkuri, mustaqil kitobxonligini shakllantirishga ahamiyatli sanalgan asarlar tanlanadi. So'ngra asarlarning ayrim o'rinlari o'qituvchi tomonidan yoddan o'qiladi yoki magnit tasmasiga yozib olinib, o'quvchilar e'tiboriga havola qilinadi.

O'quvchilar bu lavha ijodi o'rganilayotgan adibning qaysi asaridan olinganligi; agar matn dialog shaklida bo'lsa, suhbat kimlarning o'rtasida bo'lib o'tganligi; monolog tarzidagi matn qaysi qahramon nutqiga tegishli ekanligi; hikoyat kim tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinganligi; keltirilgan parchadan so'ng voqealar davomi qanday yakun topganligini qisqacha hikoya qilib berishlari, shuningdek, asarda ilgari surilgan g'oyani izohlashlari va xulosalarini bayon etishlari zarur bo'ladi.

Masalan, o'qituvchi tomonidan ifodali o'qilgan "Ko'karmasdan burun meva bergan daraxt" parchasi DVD diskidan qo'yib eshittiriladi va unga mos slaydlar namoyish etiladi. Attorning "Ilohiynoma" dostonidan keltirilgan parchada Sharq xalqlari orasida adolatli hukmdor deb nom qozongan No'shiravon va donishmand chol o'rtasidagi muloqot jarayoni aks ettiriladi. Asar o'zbek kitobxonlariga shoir Miraziz A'zam tarjimasida taqdim etilgan.

Asarda yoshi anchaga borib qolgan qariyaning cho'lni obod etib, bog' barpo etishi tasviri orqali olijanoblik va bunyodkorlik g'oyalari ulug'lanadi. Inson xoh u shoh bo'lsin, xoh oddiy fuqaro o'zidan nom qoldirishi uchun savob ishlar qilishga da'vat etiladi. Har qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar, o'zgalarga yaxshiliklar sog'inishi, ko'ngillarni shod aylash ishqi bilan yashashi insoniylik belgisi ekanligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, unda ajdodlar kelajak avlodlar uchun o'zlaridan ma'naviy va moddiy meros qoldirishga mas'ulligi haqidagi g'oya ham ilgari suriladi. O'quvchilarda hikoyat mazmunan o'zbek xalqining "Yaxshidan bog' qoladi" maqoliga yaqin va hamohangdir, degan xulosa shakllantiriladi.

Hikoyat davomi shu tarzda nihoyasiga yetkaziladi va unga 4-5 daqiqa vaqt sarflanishi ko'zda tutiladi.

2. Navbatdagi usul **"Kim nimani bilib oldi?"** deb nomlanadi. Bunda o'quvchilarning mustaqil o'qishlari darsdan tashqari vaqtlarda maxsus so'rovnomalar o'tkazish yo'li bilan aniqlanadi. Savol va topshiriqlarda quyidagilar aks etadi:

1. Ism-familiyangiz?

2. Tavsiya etilgan asarlardan qaysilarini o'qidingiz?

3. O'zingizga manzur bo'lgan hikoyat va hikmatlardan namunalar keltiring.

4. Qaysi qahramonlarning xatti-harakatlari sizga ma'qul bo'ldi?

5. Voqealar bo'lib o'tgan joylardagi tabiat manzaralarini tasvirlang.

6. Asarning o'zingizga yoqqan lavhalaridan misollar keltiring.

Sahifa yakuniga "Qiziqsangiz, bir o'qib ko'ring..." jumalari qayd etilib, har bir o'quvchi uchun muayyan asardan alohida tanlab olingan parchalar taqdim etiladi. Jumladan: *Ali yo'lda borarkan shasht ila to, Chumoliga ziyon etkazdi nogoh. Chumoli qo'l-oyoq silkirdi nolon, Ali ko'rdi va bo'ldi ko'ngli vayron...*¹.

Bir beozor jonzotga behosdan aziyat yetkazib qo'ygan hikoyat qahramonining ko'nglidan nimalar kechganligini bilish istagidagi o'quvchi, albatta, kitob varaqlashga kirishishi, shubhasiz.

Izlanishlari samarasini belgilab beruvchi mashg'ulot ko'rinishidagi **"Natijalar"** bosqichi o'quvchilar bilimlarini sarhisob qiladi va umumlashtiradi.

Attor ijodiy yo'nalishi "Pog'ona" tuzilmaviy-mantiqiy yoki "Piramida" chizmalaridan foydalanilish yo'li bilan chuqurroq o'rganilishi mumkin.

"Piramida" grafik organayzerining mavzuga tatbiqi asosida:

a) g'oyalar quyidan yuqoriga tadrijiy rivojlaniriladi va boyitiladi;

b) shaxsiy qarashlar mantiqiy izchillikda bayon etiladi va qo'shimcha ma'lumotlar bilan taqqoslanadi;

¹ Фаридулдин Аттор. Ҳикматлар ва ҳикоятлар (Форсийдан Жамол Камол таржимаси). –Тошкент: "Мухаррир", 2010. – Б. 253.

d) mavjud zaxira bilimlar miqdori kuzatiladi va baholanadi;

e) masalaga oid yangi g'oyalar tizimi yaratiladi.

Piramida tasvirini hosil qilishda, avvalo, belgilangan asosiy muammo, g'oya va vazifalar qayd etiladi. Keyingi bosqichda muammolar darajalanib, "kichik shoxcha"lar chiqarish orqali batafsil ko'rib chiqiladi. Jarayon ish natijalari prezentatsiyasi orqali nihoyasiga yetkaziladi.

Mashg'ulotning kirish qismida daho so'z san'atkorining hayot yo'liga nazar tashlanadi. Adabiyotshunos olim E.Ochilovning ta'kidlashicha, yoshligidan ilm tahsiliga qiziqqan Muhammad islom dini asoslari, tasavvuf ta'limoti, til va adabiyot, hikmatu kalom, nujum, tib va dorishunoslik fanlarini chuqur o'zlashtirib, o'z davrining peshqadam kishilaridan biriga aylanadi.

U so'fiylik muhiti va tasavvuf ahli orasida yashaganidan bu ta'limot unga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ilohiy bilimlarni egallagan mutafakkir alloma o'rganganlarini o'z dostonlarida kuylab, boshqalarga yetkazganligi bois "Dinning yagonasi" – Farididdin maqomiga sazovor bo'ladi.

Do'kondorlik bilan shug'ullanishi barobarida g'azal va ruboiylar yozishni mashq qilgan Attor badiiy ijod sohasida ham kamolga yetadi. Xalq orasida "Muxtorнома", "Mantiq ut-tayr", "Ilohiynoma", "Asror-noma", "Xusravнома", "Bulbulнома", "Ushturnoma", "Pandнома", "Javhar uz-zot" va "Tazkirat ul-avliyo" kabi ijod namunalari bilan tanilgan shoirga bu asarlari keyinchalik mislsiz muvaffaqiyatlar olib keladi.

Adib bu asarlarida "bir tomondan, so'fizm ta'limotidagi tavakkul, ishq, ma'rifat, shariat, tariqat, shukur, rizo, qanoat, nafs, tavhid, haqiqat, adolat, himmat, xayr, saxo, javonmardlik singari talab va yo'llarni tashviq etadi; Haqqa yetmoq uchun zahmat, riyozat chekmoq shartligini ta'kidlaydi; ikkinchi tomondan esa, o'z ilmiy fikrlari ta'limotini asoslash, tasdiqlash uchun tarixiy voqealardan, o'z hayotiy tajribalaridan, o'tmish mashoyixlari kechmishlaridan yuzlab hikoyatlar, masallar, ma'vizalar keltiradi".¹

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda Attor ijodini o'rganish yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, adib asarlari N.Komilov, M.Kenjabek, J.Kamol, M.A'zamlar tomonidan fors tilidan o'zbekchaga o'girilib, keng kitobxonlar ommasi hukmiga havola etildi.

¹ Хамиджон Ҳомидий Тасаввуф алломалари. –Тошкент. "Шарк", 2009. –152-б.

Shoir adabiy merosini o'rganishga bag'ishlangan jarayon avvalida "Mantiq ut-tayr" asari xususida alohida mushohada yuritiladi. O'quvchilarga Alisher Navoiyni cheksiz hayratlarga solgan va "Lison ut-tayr" dostonini yaratishga ilhom baxsh etgan bu go'zal san'at asarining mazmun-mohiyati haqida muxtasar ma'lumotlar berib o'tilishi maqsadga muvofiq.

Dostonda o'zlariga rahnamo izlash yo'lida mashaqqat chekib, Simurg'lik darajasiga erishgan o'ttizta qush sarguzashtlari bayoni orqali Haq Taoloni tanimoq, anglamoq (irfon), uning vasliga bo'lgan ilohiy ishq tuyg'ulari tasvirlanganligini alohida ta'kidlamoq joiz.

Bu borada taniqli olim Ibrohim Haqqul mashhur tasavvufshunos Abu A'lo Afifiyning quvidagi fikrini o'rinli keltiradi: "Mantiq ut-tayr"dagi qushlar inson nafslaridir. Simurg' esa Haq Taolo erur. Vodiylar so'fiy yo'lidagi maqomlardir. Dostondagi qushlar na ko'z ila ko'rilar, na qo'l bila tutilur... Ularning yo'lciligi ma'naviy vodiylardagi butunlay yo'lcilikdir. Bu sayru sayohat asnosida, nafsning g'aroyibliklari, hollar va ulardagi qorong'ulik, nur, dunyo ishlariga bog'lanish, "eng muqaddas ilohiy Yor" ishqiga taslim bo'lish kabi holatlar mushohada etilur.

Darhaqiqat, Attor dostonidagi bosh maqsad, avvalo, nafsni tanish, nafsga qarshi kurashish va uni poklash yo'li bilan Haqqa yetishishdir... Qushlar timsolida Attor buni nihoyatda yorqin va ta'sirchan manzaralarda tasvirlab bergan"¹.

Adib asarlarini o'rganish "Pir ila shoh" hikoyati tahlilidan boshlanmog'i ma'qul.

Qadim zamonlarda mol-mulki haddan ziyod bir podshoh yashagan bo'lib, hatto yetmish yoshga kirganida ham o'y-xayolini boylik to'plash orzusi tark etmagan edi. Shu o'lkada dovrug'i yetti iqlimni tutgan piri komil faqirona umrguzaronlik qilar, ilm-u hunaridan esa el-ulusga ko'p foydasi tegardi.

Kunlarning birida haligi shoh ul zotning huzuriga kelib, ikkisidan qaysi biri ustunligi, unda o'zinikidan afzalroq nimasi borligini so'rabdi.

Shu o'rinda o'quvchilar bilan qanoat va nafs haqida munozara yuritish orqali bu ikki tushunchaning inson ma'naviy kamolotidagi o'rni anglanishiga zamin yaratiladi.

¹ Иброҳим Ҳаққул. Навоийни мафтун айлаган китоб (Сузбоши). Шайх Фаридулдин Агтор. Мантикут тайр (Куш тили). Форсийдан Жамол Камол таржимаси. —Тошкент: "Фан", 2006. — 6-б.

O'ziga sabr-toqat va shukronalikni kasb etgan pir komillik timsoli. U nafsoniy istaklarni riyozaat ila mahf etib, o'z izmiga bo'ysundira olgan va Haq diydoriga musharraf bo'lmoqlikni ixtiyor etgan solik.

Hayot mazmunini faqat moddiy boyliklarda deb bilgan podshoh esa shaytoniy qutqularga uchgan xudbin bir kimsa. Foni dunyo hoyu havaslariga ortiqcha ruju qo'yish uni o'zligidan judo etib, nafs botqog'iga botiradi.

Qanchalik bisyor bo'lmasin shohning davlatidan o'zgalarga zarracha naf yetmaydi. Pir esa yurt koriga yarash, qalblarni ilm ziyosi bilan nurafshon etish kabi xayrli amallar istagida yashaydi. Buning evaziga boshqalardan hech narsa ta'ma qilmaydi. Ikkisining farqli jihatlari ham ana shunda.

Ko'rinadiki, pir kamtarlik, himmat va saxovat bobida shohdan ancha pog'ona yuqori turadi. Hikmatda inson nafsini yengishi orqaligina ruhan poklanishga da'vat etiladi.

Demak, asar tahlilidan qanoat va ma'rifat insonni maqsad sari eltuvchi shamchiroq, kibr-u havo, johillik va ilmsizlik unga monelik ko'rsatuvchi bid'atdir, degan xulosaga kelish mumkin.

Munozara adibning boshqa hikoyatlariga munosabat bildirish asnosida davom ettiriladi. Mashg'ulot yakunida Attor asarlaridan olingan taassurotlar bilan o'rtoqlashiladi.

Shunday qilib, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganishda grafik organeyzerlardan foydalanish samarasi quyidagilarda aks etadi:

- ko'rilganlar eshitilganga nisbatan bir necha marta tez o'zlashtirilib, uzoq vaqt xotirada saqlanib qoladi;

- ko'rgazmali vositalarni belgilangan tartibda qo'llash muammoli vaziyatlarni tashkillashtirish, o'rganilayotgan narsa va tushunchalar haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi;

- bilim o'quvchilar tafakkuriga faqat asos, dalil, timsol va qiyofalar orqali singdiriladi.

Demak, "Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish... bu bilimga nisbatan ma'lum munosabat hosil qilishni, hissiy kechinmalar uyg'otishni ham o'z ichiga oladi"¹.

"Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvga doir tahlil usullari" bobi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Adabiy ta'limda "SWOT – universal tahlil" texnologiyasidan unumli foydalanish muayyan qahramon taqdiri misolida o'quvchilarning kommunikativ, qadr-qimmat va e'tiqodlilik kompetensiyalari rivojiga

¹ Зиёмухаммадов Б. Комиликка элтувчи китоб. – Тошкент: "TURON-IQBOL", 2006. – 280-6

hissa qo'shadi. Faqat insongagina xos eng nozik kechinmalar anglanishiga, iztiroblariga sheriklik, darddoshlik tuyg'ulari shakllantirilishiga erishiladi.

2. "FSMU" texnologiyasi o'quvchilar faoliyatini asar mazmun-mohiyati, qahramon botiniy qiyofasi, personajlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni chuqurroq taftish qilishga yo'naltiradi. Mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga amal qilish kompetensiyasini rivojlantirishda dolzarblik kasb etadi.

3. Nasriy asarlar tahlili o'quvchilarda mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga; masalani tahlil qilishda xolislikni ta'minlashga; nazariy va amaliy bilimlarni uyg'unlashtirishga; muammoni konkretlashtirib, yangicha shakllantirishga; ko'rib chiqilayotgan vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashga; atrofidaqilar fikrini qabul qilish va o'z fikriga boshqalarni ham ishonтира olishga; qabul qilingan qarorlar uchun mas'ullik hissini tarbiyalashga xizmat qiladi.

4. Keys bilan mustaqil ishlash o'quvchilarda matn bilan chuqurroq tanishish; turli vaziyatlarni o'rganish, muhim qismlarni ajratish; asosiy muammo va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, ular o'rtasidagi aloqadorlikni ko'rsatish; bartaraf etishning maqbul yo'llarini topish, hal etish imkoniyatlari mavjudligini qayd etib borish; yechimlarni asoslash, qarorlar qabul qilish va xulosalar chiqarish ko'nikmalari shakllantiriladi.

5. Lirik asar ustida ishlash chog'ida o'quvchilarning poetik eshitish qobiliyati rivojlantiriladi, she'r qurilmasiga e'tibor qaratish orqali nazmni idrok etish madaniyati rivojlantiriladi.

6. Voqealar rivojini kuzatish, kulminatsiyani topish, to'qnashuvlarni belgilash, qahramonlarning xulq-atvorini baholash asnosida dramatik asarni idrok etish amalga oshiriladi.

7. Adabiy-nazariy tushunchalar adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular o'quvchilarda matn ustida ishlash, kuzatish va izlanishlar asosida muayyan mezonlar hamda turli adabiy hodisalarni solishtirish natijasida vujudga keladigan davriy aloqalar tizimini ishlab chiqishga yordam beradi.

II bob. ADABIY TAHLIL METODIKASI

II.1. Adabiy ta'lim jarayonida mustaqil mutolaa usullari

“Metod” soʻzi yunoncha “metodos” soʻzidan olingan boʻlib, “bilish yoki tadqiqot yoʻli”, “nazariya”, “taʼlimot” kabi maʼnolarni anglatadi.¹ Metodikaning (yunoncha methodike) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yigʻindisi yoki oʻqitish usullari haqidagi taʼlimot²ligi nazarda tutilsa, uni taʼlim berish metodlari, yoʻllari va vositalari haqidagi fan deya taʼriflash mumkin.

Didaktikada metod tushunchasi taʼlimning ikki yoqlama mazmunini taʼminlovchi, oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi oʻzaro uzviy aloqa tizimi sifatida belgilanadi. Masalan, “oʻquvchilarning taʼlim mazmunini oʻzlashtirishlarini taʼminlovchi oʻquv-biluv faoliyatini tashkil etish yoʻlida oʻqituvchining maqsad sari qaratilgan amaliy harakatlari (amallari) tizimi”³ yoki “oʻqituvchi va oʻquvchilarning hamkorligida tashkil etiladigan taʼlim jarayonida qoʻyilgan maqsadga erishish yoʻli”⁴ va hokazo.

Ammo metodika va unga yaqin boʻlgan boshqa fanlarda taʼlim metodi biroz boshqacharoq, xususan, “biror harakatni amalga oshirish yoʻli, usuli yoki koʻrinishi”⁵ kabi mazmunda izohlanishi hollari ham kuzatiladi. Umumiy tarzda yondashilganda esa metod taʼlim-tarbiya jarayonini maqsadli, tizimli amalga oshirishni tartibga soluvchi hamkorlik yoʻli boʻlib, taʼlim sifati natijalanishi bilan xarakterlanadi.

Metod tushunchasiga tarixiy nuqtayi nazardan qaralganda bu kategoriyaning taʼlim maqsadi, mazmuni va shakliga qarab oʻzgarib turishi kuzatiladi. Shu boisdan har bir tarixiy davrning taʼlim metodlari haqida oʻz tushunchasini ilgari surishini tabiiy hol, deb tushunmoq kerak.

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдди. 5-жилд. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. – 613-6.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 2-жилд. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. –582-6.

³ Ниёзметова Р.Х. Ўзлуқсиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. –Тошкент: “Фан”, 2007. – 90-6.

⁴ Юлдошева Н. Педагогик технология, метод ва усул. // “Kasbiy fanlar metodikasi”. –Тошкент: 2013. № 3. – Б 15.

⁵ Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Замоначий педагогик технологияларни амалиётта жорий этиш. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2008. – 25-6.

Bugungi kunda ta'limning aqliy hujum, guruhlarda ishlash, rolli o'yin, taqdimot, klaster kabi ba'zi usul, shakl va texnologiyalarini ham metod deb yuritish odat tusiga kirgan. Aynan shu holat bunday "metod"larning stixiyali ravishda ko'payishiga olib keldi.

Mustaqillik yillarida pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish borasida talay muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilgan bo'lsa-da, hanuzgacha nutqda metod va texnologiya tushunchalari farqlanmay qo'llanishi, amaliyotda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yish hollari aniqlanmoqda.

Taraqqiyot natijasida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida fanga kirib kelgan texnologiya atamasi yunoncha "techné" – "san'at", "mahor-rat", "logos" – ta'limot¹ ma'nolarini ifodalaydi. Lekin u o'zida zamonaviy texnologik jarayonni to'liq aks ettira olmaydi. Pedagogik texnologiya tushunchasi texnologik jarayon bilan uzviylikda talqin qilinadi. Texnologik jarayon – "mehnat qurollari bilan mehnat obyektlari (xom-ashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina)ning faoliyatidir"².

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy muammosi ta'limdan ko'zlangan maqsad orqali ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashdir.

Pedagogik texnologiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, soha mutaxassislari unga o'z aspekti doirasida yondashadilar. Jumladan, taniqli faylasuf B.Ziyomuhammadov tadqiqotlarida pedagogik texnologiya mohiyatini xalqaro YUNESKO tashkiloti ta'rifi, rossiyalik V.M.Monaxov, V.P.Bespalko, M.V.Klarin, I.Ya.Larner, yaponiyalik Sakamoto, o'zbekistonlik N.Saydahmedov, A.Ochilov kabi olimlar fikriga tayangan holda izohlashga harakat qiladi.

Olim taklif etgan ta'rifga ko'ra pedagogik texnologiya bu – "o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchi yo talabalarga, muayyan dastur asosida, maqsadga yo'naltirilgan tizimli ta'siri natijasida, ularda jamiyat uchun zarur va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni shakllantiruvchi ma'rifiy tadbir"³.

Professor Z.Ismoilovning fikricha, "o'qitish (ta'lim va tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 4-жилд. –Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриети, 2006. – 81-б.

² Умаров С.Б. Таълим технологияларининг назарий асослари. // "Maktab va hayot". –Тошкент: 2012. № 2. – Б. 4.

³ Зиёмухаммадов Б. Компилиққа элтувчи китоб. –Тошкент: TURON-IQBOL, 2006. – 285-б

orqali ularda oldindan rejalashtirilgan sifatlarni jadal shakllantirishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni" pedagogik texnologiyadir¹.

Metodistlar Z.K.Kudasheva va S.S.Magdiyevlar esa mazkur tushunchani izohlashga quyidagicha yondashadilar: "o'quvchilarning o'quv faoliyati va o'qitish shakllarini tashkil etish metodlari, usullari bo'lib, o'qitish nazariyasiga tayanadi va rejalashtirilgan natijalarni ta'minlaydi"².

Demak, yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, bu tushuncha o'zida o'qituvchi kasbiy kompetentligi darajasi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan rag'batini kuchaytirishga qaratilgan tashkiliy-uslubiy vositalar majmuini ifoda etadi.

Ko'pincha metodga o'qitish usullarning majmui sifatida qaraladi. Bunda usul metodning qismi, ayrim ko'rinishi, detali sifatida tushuniladi. Ammo metod va usul orasiga aniq chegara qo'yilmaydi. Negaki, agar usuldan doimiy ravishda foydalanib, ta'lim asosi qilib olinsa, u qonuniy metod darajasiga o'sib boradi.

Ta'limda ma'ruza, suhbat, ijodiy o'qish, reproduktiv, evristik, tadqiqot, ekskursiya, mustaqil ish kabi metodlar keng ommalashgan. Kitobxon tuyg'ulari, kechinmalariga ta'sirini nazarda tutib, adabiy ta'limda badiiy so'zni hissiy-obrazli anglash metodi ham amal qiladi. Shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro aloqasi xususiyatiga ko'ra illyustrativ-tushuntirish, axborot berish, muammoli bayon, qisman izlanish, badiiy sharhlash, tanqidiy-publitsistik kabi metodlar imkoniyatlariga tayaniladi. Tabiiyki, bu metodlarning barchasi alohida-alohida, sof holda qo'llanilmaydi. Mustaqil o'qishni tashkil etishda ulardan kompleks foydalanish tabiiy zaruratdir.

O'qitish metodlari bir-biridan o'ziga xos belgilar orqali farqlanadi. O.Yu.Bogdanovanning ko'rsatishicha, didaktik olimlar M.N.Skatkin va I.Ya.Lernerlar bu belgilarni metodlarning ta'lim maqsadini ifodalashi, o'quvchilarning o'zlashtirish hamda o'qitish usullarining o'zaro aloqadorligini ta'minlashi nuqtayi nazaridan tavsiflaydi³.

Adabiy ta'lim metodlarini tasniflashga bunday yondashuvlar ularni umumiy (faqat adabiyotni emas, balki boshqa ko'pgina fanlarni

¹ Исмоилова З.К. Педагогик технологиялар ҳақида замонавий қарашлар. // "Kasb-hunar ta'limi". –Тошкент: 2012. № 6. – Б. 11.

² Кудашева З.К., Магдиева С.С. Методика преподавания литературы. Учебное пособие для учителей и студентов педагогических университетов и институтов –Ташкент: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. ст. – 41.

³ Богданова О.Ю., Леонов С.А., Чертов В.Ф. Методика преподавания литературы. Под редакцией О.Ю. Богдановой. Учебник для студентов пед. вузов. – Москва: Издательский центр "Академия", 3-е издание, 2004. ст. – 89.

o'qitish jarayonida ham qo'llanadi) va xususiy (faqat ma'lum o'quv fanida qo'llanadi) fan metodlariga taqsimlash imkonini beradi.

“Ta’lim metodlari faqat ma’lumotni qanday berishni belgilamaydi. Ular materialning tizimi va uni ayni shu yo’l bilan ishlashga tayyorlashni ham nazarda tutadi. Ya’ni u o’quv materialiga singdirilgan bilimni o’quvchi o’zlashtira oladigan tarzda berishni, bolalarda bilim olish qobiliyatini rivojlantirishni ham qamrab olgan bo’lishi kerak”¹.

Sinfdan tashqari o’qish mashg’ulotlarida adabiy ta’limning, asosan, ijodiy o’qish metodiga murojaat qilinadi va u kitobxonning asarni badiiy idrok etish jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi.

Ayonki, har bir metod muayyan usullar yig’indisidan tashkil topadi. Xususan, ijodiy o’qish metodi o’z ichiga o’qituvchi va badiiy so’z ustalarining ifodali o’qishi, sharhlab o’qish, suhbat, ijodiy topshiriq singari turli usullarni qamrab oladi. Ifodali o’qish, yod olish, reja tuzish, hikoya qilish, og’zaki tasvirlash, inssenirovka qilish, kinossenariy yozish kabilar ijodiy o’qish metodi doirasida o’quvchilar bajaradigan faoliyat turlari hisoblanadi.

O’qituvchi o’z ijodiy tajribasi va tashabbusiga tayanib yuqoridagi usullarni boyitishi mumkin. Agar o’qituvchi so’z san’ati asoslarini egallamasa, o’quvchilarga ifodali o’qish ko’nikma va malakalarini singdira olmaydi. Binobarin, ifodali o’qish intonatsiya – ohang yordamida badiiy asarning g’oyasi va jozibasini to’g’ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilish mahoratini anglatadi.

Ifodali o’qishga asarning g’oyaviy-badiiy mazmunini idrok etish, munosabat bildirish, yozuvchining ifoda uslubini anglab yetish, o’z ovozi imkoniyatlaridan to’g’ri foydalana olish kabi talablar qo’yiladi.

O’qituvchining ifodali o’qishga tayyorgarligi quyidagicha bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

- yozuvchi hayoti va ijodining o’ziga xos xususiyatlari, asarda aks etgan nuqtayi nazari haqida ma’lumotlar to’plash;

- badiiy asar tili ustida ishlash, tushunilishi qiyin so’zlarni belgilab olish;

- o’qish texnikasi ustida ishlash;

- har bir epizod va alohida sahnalarni o’qishda o’quvchilar oldiga qo’yiladigan vazifalarni belgilab olish.

Ifodali o’qish o’quvchilar tomonidan to’laqonli idrok etilishi uchun qahramon roliga kirish; aks ettirilgan voqelikni o’z tasavvurida

¹ Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омилли. –Тошкент: “Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси наприёти”, 2009. – 62-б.

jonlantirish; matn mazmuniga nisbatan his-tuyg'ular uyg'ota olish talabiga ko'ra matndagi notanish so'zlarni izohlash; asarni qismlarga bo'lib o'qish, mazmunini tahlil qilish; ko'tarilgan muammoga munosabat bildirish kabi tayyorgarlik ishlari olib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ko'p yillik pedagogik faoliyatimiz davomida o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish murakkab jarayon bo'lib, asar janri, tavsif uslubi, yozuvchi nuqtayi nafari bilan bog'liq usullarni qo'llash ijobiy samara beradi, degan xulosaga keldik.

O'qituvchining ifodali o'qishi o'quvchilar faoliyatida o'z aksini topishi uchun quyidagi usullarni qo'llash samarali hisoblanadi:

– audio va video yozuvlar orqali yozuvchi yoki badiiy so'z ustalari tomonidan o'qilgan badiiy matnni tinglash; (bunda Zulfiya, E.Vohidov, A.Oripov, O.Hojiyeva, O.Matjon, M.Yusuf, S.Sayyid, F.Afro'z, E.Shukurlarning radioeshittirish va teleko'rsatuvlarda o'qigan she'rlaridan foydalanish mumkin);

– o'zaro bog'liq matnlarda nutqning to'g'ri ohangini ishlab chiqish (intonatsiya, marom, pauzalarini o'z o'rniga qo'yish, mantiqiy urg'uni aniqlash);

– ko'chirmalar, maqollar, matallar, aforizmlarni yoddan ifodali o'qishga o'rgatish; (televideniyaedagi ko'rsatuvlar oralig'ida o'zbek xalq maqollari, iboralar ma'nosi yuzasidan beriladigan sharhlardan foydalanish shaklida).

Ma'lumki, 5-sinfda maqollarga bag'ishlangan mashg'ulotlarda ko'chma ma'no bu janrning yetakchi xususiyatlaridan biri ekanligiga e'tibor qaratiladi. Jumladan, "Qatorda noring bo'lsa, yuking yerda qolmaydi" maqoli tahlili orqali insonning sadoqatli do'stlari ko'p bo'lsa, ularning qo'llab-quvvatlashi, yordami bilan mushkullari oson bo'lishi, har qanday qiyinchilikni osonlikcha yengib o'tishi haqidagi fikr ilgari surilgani anglab yetiladi. Aslida ham shunday: katta karvon hamrohligida safarga chiqqan kishi ko'zlagan manziliga hech bir talofatsiz yetib olishi shubhasizligi o'z ma'nosida qo'llangan.

Ifodali o'qishga o'rgatishning dastlabki bosqichida o'qituvchi ovoz xususiyati va sur'ati haqida tushuncha berishi lozim. Matndagi ta'kidlovchi so'zlarni ajratib, intonatsiya bilan talaffuz qilish asarning g'oyaviy-obrazli mazmunini ifodalashda katta ahamiyatga ega. Bunda mantiqiy urg'unining o'rnini muhim bo'lib, unga ovozni ko'tarish yoki pasaytirish orqali amal qilinadi. Mantiqiy urg'u matndagi hurmat, samimiylik, g'azab, kesatq, jirkanish singari turli hissiy holatlarni ochishga yordam beradi.

Masalan, Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” asaridan olingan parchalarni ifodali o‘qishga o‘rgatish jarayonida o‘quvchi asarda aks ettirilgan jamiyat qiyofasi, inson taqdiriga mas’ullik tuyg‘usini anglashi kerak. Mantiqiy urg‘u asar ruhini his qilish, obrazlar ichki dunyosini yoritishga xizmat qilishi quyidagi parcha misolida ko‘rib chiqiladi:

“Alisher o‘z huzuriga *boshi xam*, (mungli ovozda o‘qib, qisqa pauza qilish) *ko‘zida yosh kelgan sarson-sargardon kishilarga (hayajon bilan)*, qanday yordam berishni bilmay, (kichik pauza) *qattiq qayg‘uga cho‘mgan edi*”¹. (afsuslanish ohangida o‘qish, ovoz ko‘tariladi va tushadi).

Parchadagi mantiqiy urg‘u tushishi mumkin bo‘lgan so‘zlar talaffuzida ovoz imkoniyatlari ishga solinib, ifodali o‘qilishidan buzg‘unchilikka qo‘l urgan qarovsiz va yetim bolalar yaqinlarining mustarligi va Hirot zamini farzandlari kelajagidan kuyunayotgan Shaxsning o‘ksik qalbini to‘lig‘icha tasavvur qilish imkoniyati yuzaga keltiriladi.

So‘zlarni aniq talaffuz qilish; talaffuzda bo‘g‘inlarga e’tibor berish; nutq maromi (tez, o‘rta, sekin)ni o‘zgartirib turish; ovoz balandligi (past, o‘rta, yuqori)ga ahamiyat qaratish orqali his-hayajonni ifodalay olish, (buning uchun aynan bir so‘zni turli ohanglarda talaffuz qilish) ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirishga zamin yaratadi.

“Karvon sokin bir salobat va marom bilan ilgarilaydi, har kim o‘z o‘y-xayoli bilan band... Faqatgina Mahmud Zamaxshariy bilan yonmayon borayotgan gurganjlik zargar Jaloliddin tinmay gapiradi...”².

P.Shermuhamedovning “Yaxshilar bahori yoxud Mahmud Zamaxshariy dahosi” asaridan olingan mazkur parchaga vazmin ohang yuklab salmoq bilan o‘qilishi o‘quvchilarning haj safariga otlangan Zamaxshariy va hamrohlarini, Jidda bilan Makkai mukarrama orasidagi bepoyon dashtlardagi xurmozor bog‘lar yonidan asta-sekinlik bilan odimlayotgan tuyalar karvonim tasavvurida jonlantirishga, ziyoratchilarning tashqi va ichki portretini idrok etishga yordam beradi.

Ifodali o‘qish texnikasi ustida ishlashni to‘g‘ri talaffuzning eng sodda usullari, jumladan, savodli nutqdan boshlash zarur. Nutq savodini (to‘g‘ri nafas olish, urg‘uni o‘rnida qo‘llash, aniq talaffuz) o‘qituvchi mashg‘ulot jarayonida ko‘rsatib beradi. Asosiysi – ovoz bilan fikr va hislarning turli tovlanishlarini bera olish ko‘nikmasidir. Aynan turli

¹ Омон Мухтор. Навоий ва рассом Абулхайр. –Тошкент: “Шарк”, 2006. –206-б.

² Шермухамедов П. Яхшилар баҳори ёхуд Маҳмуд Замаҳшарий даҳоси. –Тошкент: “Noshir”, 2010. – 99-б.

intonatsiyalarning mavjudligi ifodali va oddiy nutqni bir-biridan ajratib turadi.

Har bir belgi soʻz, soʻz birikmalari va gap turlarining qanday maʼno ifodalashiga xizmat qiladi. Yakka tinish belgilari butunni qismlarga ajratadi va ular orasidagi chegarani belgilaydi. Nuqta gap tugaganligi, uning maʼno jihatdan yakunlanganini koʻrsatadi, koʻp nuqta esa fikrning davomiyligini bildiradi. Ikki nuqta ogohlantirish intonatsiyasini anglatadi. Qoʻshtirnoq oʻzgalar nutqi, qavslar ikkilamchi fikrni ifodalaydi va hokazo. Demak, tinish belgilari poetik fikrni taʼsirchan ifodalash vositasidir. Masalan, Muhammad Alining quyidagi fardida qoʻllanilgan tinish belgilari ayrim kaltabin, nokas kimsalar vaziyatga qarab buqalamun kabi qiyofasini oʻzgartirishi, ezgulikni qadrlay olmasligini baholashga zamin yaratadi:

Yelkamga oyoq qoʻyishib, yana:

“Yelkang qattiq!” – deya qilurlar taʼna!..¹

Adabiy talaffuzni toʻgʻrilash uchun oʻquvchilarga oʻqituvchi va suxandonlar nutqini diqqat bilan tinglash, soʻz talaffuzini orfoepik lugʻatdan tekshirib olish tavsiya etiladi. Badiiy matn ustida ishlayotganda oʻquvchilar ifodali oʻqishga, muallif fikrini intonatsiya bilan bera olishga, qalamga olingan voqea-hodisalarni fikran tasavvur qilishga oʻrganadilar.

Aynan bir iborani turlicha marom va intonatsiya bilan talaffuz qilish mumkin. Fikr bildirish maromi matn mazmuniga koʻra quvonchli, qaygʻuli, tantanali, ishonchli, daʼvatkor, iltimos singari turli ohangda ifoda etiladi.

Ogʻzaki nutqda maʼnosi muhimroq boʻlgan soʻz, ibora yoki gaplar ovozni balandlatish – mantiqiy urgʻu bilan ajratib koʻrsatiladi. Ovoz chiqarib ifodali oʻqish his-tuygʻularni ifodalash madaniyatini tarbiyalaydi.

Oʻqish texnikasi taʼlimning barcha bosqichlarida matn mazmunini tushunish koʻnikmasi bilan bir paytda roʻy beradi. Ifodali oʻqish koʻnikmasini mustahkamlash va takomillashtirib borishda alohida mashgʻulotlar tashkil qilish, bunga tayyorgarlik jarayonida oʻquvchini shoir yoki yozuvchining hammuallifi boʻlib qolishiga ishonitirish muhim oʻrin tutadi.

¹ Мухаммад Али. Фардлар. XX аср ўзбек шеърлари антологияси. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. –Тошкент – 176-б.



9-sinfda Ikrom Otamurodning “O‘rin” dostonini ifodali o‘qishga mustaqil o‘rgatishda olam va odamning yarialishi, hayotda har kimning o‘z o‘rni borligi yoki aksinchaligi anglanishiga erishiladi. Asarda bir-biriga zid tushunchalar orqali ko‘ngil manzaralarining yaxlit suvrati chiziladi.

Muallif kun va tun, yer va osmon, botin va zohir, sobitlik va lafzsizlik, diyonat va nafs, ibtido va intiho, chidam va toqatsizlik, keksa va yosh kabi mazmunan zid tushunchalarni yonma-yon qo‘llash orqali inson hayotining dramatik holatlarini aks ettirishga urinadi. Masalan: *Andisha* nochor *kibor* tovidan. *Qadr* dog‘lanadi ilashsa *jabr*. *Burd* yo‘qolgaydir *beburd* sovidan. Dilga madaddir dildagi sabr¹.

Dostonda lirik qahramon yuragini qiymalab og‘riq berayotgan dard-alamlar qisqagina “... Nimadir... .. Qachondir... .. Kimdir...” misralariga mohirona singdirilib, ohangdorlik va kompozitsion ixchamlikni vujudga keltirgan

Mutolaada so‘roq va gumon olmoshlaridagi ohangni ilg‘ab, satrlar boshi va oxiridagi uch, bandlar orasidagi ko‘p nuqtalar mavjud o‘rinlarda sukut saqlab, to‘xtamlarga rioya qilib ifodali o‘qilishini ta‘minlash dunyoning o‘tkinchiligi haqida insoniyatga shu kungacha jumboq bo‘lib kelayotgan va yechimiga javob izlanayotgan muammolar haqida mushohada yuritishga chorlaydi. Shuning barobarida koinotning cheksizligi, osmon jismlarining harakatlari, zamon va makon o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida o‘ylashga davat etadi.

Shoir ijodida tuyg‘ular tasviri aksariyat hollarda ko‘p nuqtalar zimmasiga yuklatilishi “Yarador umid otlari”, “Yobondagi yolg‘iz daraxt”, “Ichkari... Tashqari”, “Aning umidi”, “Sopol siniqlari”, “Ko‘pchilik yurgan yo‘l...” kabi doston va she‘rlari misolida kuzatiladi.

Belgilarni qo‘llash usuli – *sukut* ko‘pincha qalb iztiroblarining so‘zsiz izhori chog‘ida qo‘l keladi. Masalan:

...Xokisorgina keksa bir odam,
Tiqilinch ahvolin unutdi.
Manziliga mushtoq xos chidam
o‘ylovining og‘rig‘in yutdi...

.....
.....
.....²

¹ Ikrom Otamurod. Ўрин. // “Шарқ қолдузи”. –Тошкент. 2013. № 3. – Б. 32.

² Ikrom Otamurod. Ўрин. // “Шарқ қолдузи”. –Тошкент. 2013. № 3. – Б. 32.

Dostonda ayrim bandlar orasidagi har uch misraning faqat nuqtalar takroridan hosil bo'lishi o'quvchini xayolan shoir bilan baravar qadam tashlashga – dard chekib, ruhan azoblanishiga va shu orqali chuqur mulohaza yuritishga majbur qiladi. Natijada har bir kitobxon bu belgilar ma'nosidan o'zi uchun zarur hayotiy va ma'naviy ehtiyojni topishga intiladi.

Ifodali o'qish rejasi o'qituvchining yoddan o'qishi, asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida suhbat o'tkazish, nutq kompozitsiyasi ustida ishlash, intonatsiya va maromni aniqlash, qayta hikoyalash kabi faoliyat turlarini ko'zda tutgan holda tuziladi.

Asarni ifodali o'qish doim uning tahlili bilan bog'liq. Tahlil badiiy asarning o'ziga xosligi haqida o'quvchilar tasavvurini chuqurlashtiradi, undagi nafasatni his qilishga imkon beradi. Masalan, 6-sinfda o'quvchilarni Hamid Olimjon ijodi bilan chuqurroq tanishtirishga mo'ljallangan mashg'ulotlarda adabiyotshunos olim N.Karimovning "Hamid Olimjon" nomli ma'rifiy-biografik romanidan unumli foydalanish o'quvchini shoir shaxsiyatining noma'lum qirralaridan voqif etadi.

O'qituvchining kirish so'zi "Eng gullagan yoshlik chog'imda", "Xayolimda bo'lding uzun kun", "O'rik gullaganda" kabi she'rlarning yozilish tarixi bilan boyitilsa, shoir ijodiy ustaxonasi haqida kengroq tushunchaga ega bo'linadi.

"O'rik gullaganda" – tabiatning yaratuvchanlik qudratidan junbushga kelgan shoir qalb tuyg'ulari mahsuli. She'r 1937-yilning 30-martida yozilgan. Qozog'iston safaridan qaytgan kuni saharlab uyg'ongan shoir ilohiy mo'jiza qarshisida lol qoladi. "Derazadan quyosh yog'dusi emas, balki allaqanday pushtirang shu'la tushib, uning ko'zini qamashtirib yubordi. Kuni kecha u Olmaotaga yo'l olganida, hali mast uyquda yotgan o'rik daraxti chaman bo'lib ochilgan edi"¹.

Shoirni to'lqinlantirgan bu latiflikdan ohorli tashbehlar dunyoga keladi: "Novdalarni bezab g'unchalar, Tongda aytdi hayot otini..."

Ushbu voqea hikoya qilingach, she'r yoddan ifodali o'qilishi, unga bastlangan qo'shiq eshittirilishi o'quvchilarni xayolan lirik qahramonning o'sha paytda tuygan holatni chuqurroq anglashga, asar g'oyasini idrok qilishga yordam beradi. Turli janrdagi asarlarni idrok etish asosida o'quvchi so'z zamiridagi ma'no tovlanishlaridan zavqlanadi, inson ruhiyati bilan bog'liq sir-sinoatlarni anglash sari qadam qo'yadi.

Sharhli o'qish. Sharhlab o'qish samaradorligi o'qituvchining darsga tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi. Bunday tayyorgarlik

¹ Karimov N. Hamid Olimjon. – Toshkent: "Sharq", 2013. –144-b.

maqsadni aniqlash, matndan sharhlashni talab qiladigan soʻzlar, iboralar, muammoli masalalarni belgilash, savol-javoblar asosida talqin etish kabi tizimni nazarda tutadi. Sharhlab oʻqish aynan lugʻat ustida ishlash emas, balki tarixiy, afsonaviy, sarguzasht, memuar, baʼzan zamonaviy mavzudagi asarlarda uchraydigan izoh talab masalalarni oʻz ichiga oladi.

Oʻquvchilar boshlangʻich sinf “Oʻqish”, “Odobnoma”, 5-sinf “Adabiyot” darslarida odob-axloqqa doir hadis namunalari bilan tanishtirilib boriladi. Hadislar mavzusiga bagʻishlangan sinfdan tashqari oʻqish mashgʻulotlarida oʻquvchilarning yosh xususiyatlari Qurʼoni karim, hadis, muhaddis, vahiy, sahih, nosahih, roviy kabi ayrim soʻzlar sharhlanishini taqozo etadi. Jumladan, forscha “paygʻambar” soʻzi izohlanishi jarayonida “Islom eʼtiqodiga koʻra xudoning xohish-irodasini, buyruqlarini insonlarga yetkazuvchi zot, nabi, rasul”¹ degan maʼnoni anglatishi, turli dinga mansub xalqlarning paygʻambarlari haqida batafsil maʼlumot berilishi oʻrinli hisoblanadi. Masalan:

Hadis – Qurʼondan keyin turuvchi ikkinchi muqaddas manba. Insonni ezgulikka, komillikka eltuvchi maʼnaviy xazina sifatida qadrlanuvchi hadislarda Paygʻambarimiz Muhammad alayhissalomning hayotlari va odatlari, diniy va axloqiy koʻnikmalari oʻz aksini topgan. Ularda birodarlik, qarindoshlik, ota-ona va farzandlar haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat, insof kabi insoniy fazilatlar targʻib qilinadi. Shu bilan birga yolgʻonchilik, manmanlik, adovat, zulm kabi illatlar qoralanadi. Muhammad paygʻambar hayoti va hadislarini insonlarga ibrat namunasidir.

Oʻqituvchi uchun adabiy materialni tanlash, lugʻat bilan ishlash jarayonida notanish soʻzlar va iboralarni tushuntirish ishlari ancha qiyinchilik tugʻdiradi. Oʻqituvchi oʻquvchilar bilan asarni oʻrganishning birinchi bosqichidayoq undagi koʻpgina muammolar haqida gaplashib olishga imkon tugʻiladi.

Badiiy asar matnini oʻrganish amaliyotida sharhning quyidagi turlari qoʻllaniladi:

- lingvistik (notanish soʻz va iboralarni izohlash);
- tarixiy-maishiy (tarixiy fakt va voqealar bilan tanishtirish, nomlar va ismlarni, maishiy va etnografik tushunchalarni izohlash);
- tarixiy-adabiy (davr va adabiy oqimlar tavsifi);
- gʻoyaviy-uslubiy (asarning obrazli va gʻoyaviy-tematik tizimini kuzatish).

¹ Berdak Yusuf Mumtoz adabiy asarlar lugʻati. – Toshkent: “Sharq”, 2010. – 315-b.

Matnni o'qishdan oldin sharhlash usuliga murojaat qilish kirish mashg'uloti oldiga qo'yiladigan talab – idrok etishga tayyorgarlik bilan bog'liq vazifani bajaradi. O'qish jarayonida matnning g'oyaviy-badiiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan ba'zi detallari, asarning qanday sharoitda, qay tarzda yaratilgani o'qituvchining kirish so'zi sifatida qisqa sharhlanadi. Masalan, 9-sinfda O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani bilan tanishish jarayonida muallifga turtki bo'lgan bir voqea, albatta, tilga olinishi zarur.

Xotiralarda yodga olinishicha, Ulug'bek kutubxonasidagi kitoblar shogirdlari tomonidan Urgut tog'lariga yoki Shahrisabz yaqinidagi bir g'orga yashirilganligi taxmin qilingan maqola bilan tanishgan muallif "Samarqandga yo'l oladi. Go'ri Amir va Ulug'bek madrasalarining g'ira-shira, nim qorong'u yo'laklarida kezadi, atoqli riyoziyotchi Qozizoda Rumiy va Ulug'bek navjuvon talabalariga saboq aytgan mashhur madrasaning ulkan, o'sha vaqtdagi yarim vayrona xonasida o'yga cho'madi. Necha daf'a buyuk rasadxona xarobalarini titroq va hayajon bilan ko'zdan kechiradi"¹.

Asar yaratilgan vaqt va voqealar kechgan davr o'rtasidagi tafovutlarni sharhlash jarayoni nafaqat o'tmishga qaytishga, balki hozirgi kunning eng dolzarb muammolarini yoritishni ham taqozo etadi. Jumladan, Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi tarixiy shaxslar; qadimgi Movarounnahr, Shohruhiya, Xuroson davlatlarining geografik joylashuvi; "Kitob ush-shifo", "Kitob un-najot", "al-Qonun al-Ma'sudiy" nomli benazir bitiklarga beriladigan sharhlar o'quvchilarda yurtimiz o'tmishi, ajdodlar ilmiy merosi haqida tushunchalar hosil qilibgina qolmay, mavzu yuzasidan kichik ilmiy izlanishlar olib borishga zamin yaratadi.

Adib tarixiy sharoit, qahramonlar turmush tarzi, muomala madaniyati, joy nomlari, liboslar, ilm-fanga oid ayrim atamalarni o'quvchiga yetkazishda qo'llagan eski o'zbek adabiy tili fonetik xususiyatlari, leksik boyliklari, stilistikasi ko'p hollarda sharhlashni talab etadi. Xususan, Qalandar Qarnoqiy monologini sharhlash orqali ajdodlarimiz ma'naviyati, tafakkur tarzi va ijtimoiy munosabatlar yuzasidan tegishli xulosa chiqarish imkoni yuzaga keladi.

"Gunohkor bandangni *kechirgaysen*, ey parvardigori olam! *Faqir* bu *bebaho* dunyo lazzatlarini tark etib, haq yo'lini tanlaganda tariqat o'rniiga bunday nopok yumishlar *qilamen* deb o'ylagan edimi?..

¹ Абдурахмонова У. Бутун борлик ижодхона. // "Til va adabiyot ta'limi". –Тошкент: 2014. № 10. – 47-6.

Mavlono Ali Qushchi betavfiqmi yo imoni barkamol bandangmi – buni bu takabbur shayx *qaydin* bilur, tangrim?”¹.

Epizod, parcha o‘qilganidan so‘ng muallif g‘oyasi, tasviriy ifoda vositalarini ochib berishga qaratilgan to‘la sharh beriladi. Sharhlab o‘qish usulidan asar matni yuzasidan savol tuzish, ayrim epizod va sahnalarni ifodali o‘qish, qalamga olingan muammolar bo‘yicha bahs-munozara tarzida ham foydalanish mumkin. Sharhli o‘qish tahliliy xususiyatiga ega bo‘lgan suhbatga ancha yaqinlashadi.

Adabiyot o‘qitish metodikasida o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirib borish va so‘zga nisbatan ongli munosabatda bo‘lish taqozo qilinadi. So‘z ustidagi ish aniq adabiy material asosida olib borilishi va o‘quvchiga asarni tushunishga yordam berishi lozim. Masalan, “...O‘rmondan doim anbar nasimi esib turar, tuprog‘idan ham anbar isi anqib turar, sandal-u, obnus, sandarus, shabah kabi xushbo‘y daraxtlar u yerda serob edi”². *Anbar* – kitsimonlar tanasidan olingan xushbo‘y modda. *Sandal* – tanasi qora-sariq rangli, xushbo‘y hid taratuvchi daraxt³. *Obnus* – qora daraxt⁴ kabi.

Sharhlash chog‘ida so‘z ustida ishlashning metodik usullari va shakllarini tanlashga ijodiy yondashuv badiiy asarni to‘laqonli tushunishiga xizmat qilishi kerak. Masalan, 9-sinfda “Alpomish” dostoni qahramonlari ma‘naviy dunyosiga munosabat bildirilayotganda amalga oshiriladigan sharh u yoki bu voqelik yuzasidan o‘quvchida tasavvur uyg‘otishga yordam beradi. Xususan, Boysarining qavm-qarindoshlaridan bezib, begona yurtlarda sargardon bo‘lishiga sabab bo‘lgan zakot voqeasi, tabiiyki, sharhlash talab qiladi.

O‘g‘li Hakimbek bilan saxiylik fazilati va ziqnalik qusurlari haqida suhbatlashib o‘tirgan Boybo‘rida ukasini yot odatlardan asrash istagi tug‘iladi. Shu suhbat bahonasida inisiga odam yo‘llab, o‘z ixtiyori bilan zakot berishini so‘raydi.

Ma‘lumki, islom dinida mulkdor musulmonlar mol-mulki va daromadining qirqdan bir ulushi miqdorida olinadigan diniy soliqqa zakot deyiladi. Nabiy sollallohu alayhi vasallamning: “Qarindoshlariga zakot bergan odamga ikkita savob tekkeydir – biri qarindoshlariga oqibat qilgani uchun, ikkinchisi – zakot bergani uchun”⁵, – deyishlari bejiz emas, albatta.

¹ Ёкубов О. Танланган асарлар. II жилд. –Тошкент: “Шарқ”, 2007. – 71-6

² Икром Отамурад. Ўрин. // “Шарқ юлдузи”. –Тошкент: 2013. № 3. –268-6.

³ Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. –Toshkent: “Sharq”, 2010.

Навоий асарлари учун қисқача луғат. Тузувчи Б.Ҳасанов. –Тошкент: “Фан”, 1993.

Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizaev Sh. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent: “Sharq”, 2015. –29-b.

Noo'rin izzat-nafsdan ko'ngil ko'zi xira tortgan Boysari o'z tug'ishgani asl maqsadini anglashda ojiz qoladi. Oqibatda nafaqat oilasi, balki butun qabiladoshlari ham anchagina ko'ngilsizliklarni boshidan kechirishga majbur bo'ladi. Dostonda zakot voqeasi sujetni harakatlantiruvchi asosiy vosita bo'lib, qahramonlar boshidan kechirgan turfa sarguzashtlarni yuzaga keltirgan.

Sharhlash o'quvchida insonlarni ezguliklarga chorlovchi ayrim an'ana va qadriyatlar mohiyati haqida yangi bilimlarni o'zlashtirish, qahramonlar xatti-harakatlaridan xulosa chiqarish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Badiiy asarlarda sharhlashni talab qiladigan so'zlar ko'plab uchraydi. Bunday paytda o'qituvchi sharhiga illyustratsiya ilova qilinsa, tushunish osonlashadi. Masalan, "Xamsa" dostoni qahramonlari, "Boburnoma"da hayvonot va nabobat olami, Uvaysiy chistonlariga ishlangan miniaturalar yoki qomuslar, lug'atlardan foydalanish o'quvchilarning aqliy faoliyatini o'stirish, kuzatish ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Slaydlar, hujjatli, o'quv va ilmiy-ommabop filmlar singari statik ko'rgazmali qurollar leksik sharh uchun mos keladi. Namoyishdan maqsad o'quvchilarga asar matnida uchrashi mumkin bo'lgan qator so'zlarning ma'nosini izohlash orqali tasavvuri va nutqni o'stirishdir.

Matn ustida ishlash jarayonidagi sharh kontekst izohning lo'ndaligi va ko'rgazmaliligini ta'minlash, ayrim so'zlarning semantiklashuvini o'z ichiga oladi. Eskirib qolgan so'zlar bilan yonma-yon zamonaviy shaklini yoki sinonimini berish qiyin emas. Oddiy umumxalq tilidagi so'zlar izohlanishi, ko'p ma'noli so'zlar yoki iboralar ta'kidlanishi mumkin. Ayniqsa, mumtoz va tarixiy asarlarni o'rganish jarayonida bu talablarning ko'zda tutilishi o'quvchilarning matn mazmunini tushunish, davr ruhini his qilish, til xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Xususan, Boborahim Mashrab g'azallari tahlilida notanish so'zlarga jadval tuzilib, ularning ma'nolari qomuslar, izohli yoki mumtoz asarlar lug'atidan izlansa, so'zlarning etimologiyasi va leksikasi yuzasidan ham ma'lum darajada tadqiqotchilik faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Xonavayronlar bilur aftodalarning holini,
Eyki, mahram bo'lmasang, chashmi tarimni kavlama¹.

¹ Boborahim Mashrab. Dilim daryoi nurdur. –Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2004. – 13-b.

<i>No</i>	<i>Izohtalab soʻz</i>	<i>Qaysi tildan olingan</i>	<i>Maʼnosi</i>
1	Aftoda	forscha	Notavon, zaif; bechora.
3	Mahram	arabcha	Yaqin, sirdosh, ulfat; xizmatkor, kanizak.
4	Chashmi tar	forscha	Yoshli koʻz, namli koʻz ¹ .

Badiiy asar yoki undan parchalar oʻrganishning yakuniy bosqichida leksikani sharhlash elementlari bilan suhbat oʻtkazish matn mazmunini chuqurroq oʻzlashtirishga yordam beradi.

Suhbat adabiy taʼlim jarayonida badiiy asarning tasvir obyekti, tuygʻular tarbiyasini toʻla yoritishga, obrazlilikni tasavvur ettirishga, kitob bilan hayot oʻrtasidagi aloqadorlik xususida mushohada yuritishga yoʻnaltiradi. U oʻquvchi fikr-mulohazalarini muhokama qilish, muayyan xulosalarini taqdim etish, javoblarga qoʻshimcha va tuzatishlar kiritish, oʻqituvchining kirish va yakuniy soʻzini oʻz ichiga oladi. Lekin oʻrinsiz qoʻllanilganda oʻquvchi bilish jarayonlari rivojiga ijobiy taʼsir koʻrsatmasligini unutmaslik zarur.

Suhbat jarayonida adabiy material mohiyati oʻqituvchi bergan savollarga oʻquvchilarning javoblari orqali ochib beriladi. Metodist olimi Q.Husanboyeva har tomonlama puxta tuzilgan savollar mazkur metodning muhim xususiyati ekanligini alohida taʼkidlab “tafakkurning bilmaslikdan bilishga, bilishning chalaligi yoki noaniqligidan toʻliq va aniq shakliga oʻtkazadigan samarali vosita”² sifatida baholaydi.

Savollarni mohirlik bilan qoʻyish suhbat metodining asosiy mezon ekanligiga tayanilsa, mashgʻulotlarga tayyorgarlik chogʻida ularning xususiyatini oʻylab koʻrish, maqsadini amqlab olish muhim. Suhbat mantiqiy izchilligi, aniqligi va mazmuni bilan ajralib turadi. Savollar oʻrganilayotgan asarni tushunish va idrok etishga chorlashi, oʻquvchilar faoliyatini jadallashtirishi, mustaqil xulosa chiqarishga harakat qildirishi lozim.

Yangi materialni oʻrganish, mustahkamlash va umumlashtirish jarayonida uyushtiriladigan suhbat oʻquvchilarning bilim darajasini baholashga yordam beradi.

Ulugʻbek Hamdamning 8-sinflarga mustaqil oʻqishga tavsiya etish mumkin boʻlgan “Naʼmatak” mini romani butun borliq sinoatlarini

¹ Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lugʻati –Toshkent: “Sharq”, 2010.

² Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. –Тошкент: “Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти”, 2009. – 119-б.

oʻzida jo etgan Ism, uning mohiyatini anglatish muammosiga bagʻishlangan. "Har qanday hikmatning ibtidosida fikr turadi, fikr oʻzlashgach, hikmat maqomlarining pillapoyasi boshlanadi. Maqomlar hududiga oʻtgan shaxs oqimlar shamolida gʻildirab ketavermaydi, har on, damning ASL mazmunini uqib, Ismlar siriga boraveradi"¹.

Asar yuzasidan quyidagicha savollar tuzish asar gʻoyasi, adib maqsad-muddaosini tushunishga imkon yaratadi:

1. Naʼmatak obraziga qanday gʻoya singdirilgan? (Insonning Oʻzligini anglashi)

2. Bobolar oʻrtasidagi nifoqning asl sababi nimada edi? (Nafs)

3. Ajdodlar adovatiga nima barham beradi? (Avlodlar muhabbati)

4. Inson qachon Asliga yetishadi? (Ismiini topganida)

5. Asarga xulosa yasovchi hikmat kaliti qaysi satrlarda oʻz ifodasini topgan? ("Qanday koʻz-la boqsa, odam olamga, shunday javob aylar olam odamga, *degan ekan donishlar, degan ekan, degan, toʻliq hukm shaklida*)².

Taʼkidlash joizki, oʻqituvchi mavzuni oʻzlashtirishga yoʻnaltiruvchi dastlabki savollardanoq asarda qoʻyilgan asosiy masala mohiyatini ochishni nazarda tutishi zarur. Oʻquvchilar javobini oʻz vaqtida umumlashtirish, aniqlik kiritish va toʻldirishga qaratilgan suhbat oʻqituvchidan alohida diqqat-eʼtibor talab etadi.

Suhbat erkin bahs-munozara tarzida oʻtkazilib, jarayonda oʻquvchi javoblariga mustaqil fikrlash sifatida qaraladi: unda tezis (isbotlanayotgan narsa) va isbot boʻladi. Agar oʻquvchi oʻrganilayotgan asar janrini aniqlashga doir savolga javob berish topshirigʻini olgan boʻlsa, eng avvalo, tezis tarzidagi fikrini aytishi kerak. Oʻquvchining izohi, isbotlari uning haqiqiy bilimini aniqlashga yordam beradi.

Shu oʻrinda oʻquvchining shaxsiy pozitsiyasi, dunyoqarashi, ogʻzaki nutqi takomillashuvida savol-topshiriqlar tizimiga asoslangan "Nuqtayi nazaring boʻlsin", "Muayyan holat va vaziyatni oʻrganish", "Matbuot konferensiyasi", "Uch pogʻonali intervyu" yoki aylana stol atrofida "Davra suhbat" kabi hamkorlikda oʻqitish texnologiyalarining imkoniyatlarini alohida taʼkidlash joiz.

Oʻquvchiga muammo yuzasidan bir qancha savol yoki topshiriqlar bilan murojaat qilinishi **Nuqtayi nazaring boʻlsin** texnologiyasiga xos. Oʻquvchilar esa ularga nisbatan oʻz munosabati, nuqtayi nazarlarini

¹ Улугбек Хамдам. Наъматак. // "Шарк юлдузи". –Тошкент: 2013. № 3. – Б. 93.

² Турдимов Ш. Исмадаги сир. // "Шарк юлдузи". –Тошкент: 2013. № 3. – Б. 96.

suhatdoshini tinglash madaniyatini tarbiyalaydi, bir soʻz bilan aytganda, aqliy faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

II.2. Sinfdan tashqari oʻqish mashgʻulotlarida ijodiy topshiriqlar va mustaqil ishlar

Ijodiy oʻqish metodida oʻquvchilarning matnni idrok etish, tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarga alohida oʻrin ajratiladi. Bu turdagi ishlarni tashkil etish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

Yelimplash. Bu usulning oʻziga xosligi doston, qissa, roman, drama kabi yirik hajmli adabiy asarlarning qismlari, epizodlari va parchalarining yoki yozuvchi ijodining leymotivini belgilashda u yaratgan asarlarning gʻoyaviy-badiiy mohiyatini ochishga yoʻnaltirilgan detallarning ulanishi bilan belgilanadi. Masalan, Choʻlpon ijodi asosini tashkil etuvchi inson shaʼni, yurt ozodligi va obodligi har qanday boylikdan ustunligi Erk va Hurriyat obrazlari orqali umumlashtirilib, Binafsha yoki Goʻzal koʻrinishida talqin etilishini namuna tarzida izohlanishi mumkin.

Oʻxshatish. Mavjud namunalarga nimasi bilandir oʻxshab ketadigan obraz, matn yoki vaziyat hosil qilinadi. Jumladan, bunda Navoiyning “Sabʼai sayyor” dostonidagi Junaning yashindan ham tez harakatlanadigan “Sariyus sayr” ulovi samolyot yoki tezyurar poyezdlarni, Iskandar olimlari kashf qilgan sirli qurol portlatuvchi bombalar tasvirini ifodalashi haqidagi fikrlar bayon etiladi.

“Saddi Iskandariy”da Xitoy hoqoni Iskandarga tuhfa etgan “Oinai Chin” koʻzgusi avtoullov boshqarayotgan shaxsning alkogolli ichimlik isteʼmol qilgan yoki aksinchaligini aniqlash moslamasiga oʻxshab ketishi borasidagi oʻxshatishlar talqin qilinadi.

“Ikkinchi iqlim yoʻlidan keltirilgan musofir hikoyati”dagi Zayd zahhob yasagan taxt zamonaviy eskalator yoki liftning Navoiy orzusidagi koʻrinishidir. “Bu gʻaroyib taxt sakkiz poyali boʻlib, toʻrttasi yuqoriroqda, yana toʻrttasi pastroqda edi... Duru laʼllar bilan bezatilgan bu taxtning zinasi ham sakkiz poyali boʻlib, shunday ishlangan ediki, shoh taxtga chiqmoqchi boʻlganida, u poyalar pasayib ustma-ust taxlanar, qadam bosgach, u poyalar koʻtarilib, ...taxt ustiga chiqar, ...qaysi tomonga yurmoqchi boʻlsa, ...salgina ishorat bilan yura boshlardi”¹.

¹ Алиппер Навоий. Хамса. Қискартириб нашрга тайерловчи А.Ҳожиаҳмедов. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2013. – 267-б.

Insoniylashtirish. Bu tabiat hodisalari, mavhum tushunchalarni inson obrazida tasavvur qilishni anglatadi. Masalan, Asqad Muxtorning “Nihol” sheʼridagi gursillab yiqilganidan, tag tomirlarigacha qoʻporilgan kekxa qayragʻoch – umri poyoniga yetgan chol, unga tirgak boʻlishga intilgan navnihol esa yosh nabira sifatida koʻrsatilishi mumkin.

Taʼkidlash. Badiiy obrazning biror jihati ajratib alohida taʼkidlanadi. Sheʼrda Niholning “Kiftimga tashlayver kekxa gavgdangni”¹ tarzidagi daldasidan hayot nasllar bilan bardavomiyligi, yoshi ulgʻayganida inson farzandlariga suyanishi, eʼtiborsizlik, unutilishidan xavotirlanish va bir ogʻiz shirin kalomga ilhaqligini unutmaslik gʻoyasi tarannum etilishi haqida fikr yuritiladi.

Tipiklashtirish: turli asarlarda koʻp bora takrorlanadigan, kengroq tarqalgan personajlar, vaziyatlarning oʻxshash jihatlarini izohlash. Bunda O.Yoqubovning “Ulugʻbek xazinası”, X.Davronning “Algʻul” tragediyasidagi Ulugʻbek obrazlari. Oybekning “Navoiy”, Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” romanlaridagi Alisher Navoiyga xos insoniylik, olijanoblik xislatlari va amalga oshirgan xayrli ishlari tavsiflanadi.

Qiyoslash. Turli yozuvchilar tomonidan aynan bir xarakter tasvirini ochib berish, mushtarak yoki qarama-qarshi jihatlarini solishtirib mushohada yuritish. Fikrimizga P.Qodirov va O.Yoqubovlar tomonidan yaratilgan tarixiy shaxs Gavharshodbegim obrazi yaqqol misol boʻlishi mumkin. Jumladan, “koʻhlik boʻlsa ham chehrasi sovuq, yupqa lablariga tabassum qoʻnmaydigan” ona malika siymosiga “Shohruh va Gavharshod” asarida xolisona munosabatni uchratamiz. Zero, qiyoslash jarayonida har ikkala asar yaratilgan davr mafkurasi turlicha boʻlgani diqqat markazida turmogʻi zarur.

O.Yoqubovning “Ulugʻbek xazinası” romanida Abdullatifdagi zararli odatlarning quloqch yoyishi yaqin kishilari, ayniqsa, buvisi Gavharshodbegimning unga nisbatan eʼtiborsizligi, boshqa nevarasi Alouddavlaga alohida gʻamxoʻrligi undagi adovat tuygʻusining chuqur ildiz otishiga sabab qilib koʻrsatiladi.

P.Qodirov talqinida bundan farqli oʻlaroq Sohibqiron naslining davomchilari taqdiri uchun yuksak masʼuliyatni zimmasiga olgan, umrining oxiriga qadar xalq manfaati, mamlakat osoyishtaligi yoʻlidagi doimiy koʻrsatmalari va amaliy faoliyati bilan mislsiz ehtiromga muyassar boʻlgan “Ona lochin” siymosi yaratiladi.

¹ Asqad Muxtor. Эл-юрт керак экан одамга. –Тошкент: “G afur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi”, 2011. – 10-б.

Nevarasidagi beqarorlik, mansabparastlik, mol-dunyo orttirishga o'ta havasmandlikni erta payqagan oqila zot qalbidagi notinchlikni o'g'li Ulug'bek bilan bo'lgan quyidagi suhbat misolida izohlash mumkin:

“ – Xudoyi Taolo ehtiyotni unutmagan bandalarini asragay, shoh o'g'lim! Abdullatif o'zini tutib olguncha uni yomon beklarning qutqularidan ehtiyot qilaylik. Samarqandda qolsa, uni sizga qarshi biron fitnaning girdobiga tutishlari mumkin. Shuning uchun hazrat otangiz Abdulatifni Hirotida o'z yonlarida tarbiya qilmoqchilar”¹.

Qiyoslash bu o'rinda Gavharshodbegimni nevarasi nazaridagi bag'ritoshlik sifatlaridan soqit qilsa, Abdullatif tabiatidagi qusurlarning qay darajada fojiga olib kelganini ma'lum darajada oydinlashtiradi.

Ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilimlar, axborotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlillashda “Venn diagrammasi” texnologiyasi imkoniyatlarini ta'kidlash o'rinlidir. Undan muayyan bob yoki bo'limlar yakuni, mavzuga oid fakt, tushuncha va jarayonlar analiz-sintezida foydalanish maqsadga muvofiq. “Venn diagrammasi” adabiy ta'lim jarayonida qahramonlarning umumiy va qarama-qarshi jihatlarini solishtirishda tavsiya qilinadi.

Texnologiyani tatbiq etishda:

a) diagramma tuzish qoidasi tanishtiriladi:

b) juftliklar yoki guruhlarda diagrammalar to'ldiriladi va taqqoslanadi;

d) chiziqlar kesishgan joyda bir necha doira uchun umumiy bo'lgan ma'lumotlar izchillikda qayd etiladi.

Hozirgi paytda o'quv jarayonida mustaqil ta'limga nihoyatda katta e'tibor berilmoqda. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan namunaviy o'quv rejalarida har bir fandan mustaqil ishlarga tegishli soatlar ajratilganligi bu masalaning naqadar dolzarbligini isbotlaydi.

Ijodiy mustaqil ishlar o'quv mashg'ulotining mantiqiy davomi sifatida yangi bilimlarni o'zlashtirish, takrorlash, tekshirish, nazorat qilish va ulardan amalda foydalana bilish maqsadida tashkil etiladi.

Mustaqil ishlarning o'z shakliy va mazmuniy xususiyatlari haqida quyidagicha qarashlar mavjud:

– o'quvchilarning aqliy-irodaviy, jismoniy kuchlarini talab etadigan ishlar;

¹ Qodirov P. Shohruh va Gavharshod: “Ona lochin vidosi” romanining to'ldirilgan yangi nashri “Tog'larga tarmashgan”: tarixiy roman. –Toshkent: “O'zbekiston”, 2009. – 41-b.

- muayyan bilimlarni egallash bilan bogʻliq ishlar;
- bevosita amaliy topshiriqlarni bajarishga yoʻnaltirilgan ishlar;
- muammoli vaziyatni his qilish va uni bartaraf qilish bilan bogʻliq

ishlar;

- topshiriq yoki vazifani bajarish jarayonida ijodiy yondashishni talab qiladigan ishlar¹.

Oʻquvchining individual faoliyatiga tayaniladigan mustaqil ishlar oʻqituvchi topshirigʻi va yoʻriqmomasiga binoan belgilangan vaqt, aniq reja va qatʼiy tartib asosida bajariladi.

Tajribalarda baʼzi oʻquvchilar aynan chorak yoki oʻquv yili yakunida bahosini toʻgʻrilash uchun fan oʻqituvchilaridan biror qoʻshimcha vazifa berishini iltimos qilishlari koʻp kuzatiladi. Vaholanki, ular darsga masʼuliyat bilan yondashish, mavzularni toʻliq va izchil oʻzlashtirishning ahamiyatini xayollariga keltirishmaydi. Natijada darslik yoki internet materiallaridan xoʻjakoʻrsinga nusxa koʻchirilgan sayoz ishlar tezda tayyor holga keladi. Oʻquvchi intilish, oʻqib-oʻrganish u yoqda tursin, hatto matnda nima yoritilgani bilan qiziqib koʻrmaydi ham.

Hech bir izlanishsiz “bajariladigan” bunday soxta ishlarga yoʻl qoʻymaslik uchun oʻquv yili boshidanoq taqvim-mavzu reja tuzilib, fan metod birlashmasida koʻrib chiqilishi va tasdiqlanishi maqsadga muvofiq. Mustaqil ish turlari DTS va dastur talablariga muvofiq tanlanib, oʻquvchilar qiziqishi va ehtiyojlarini qamrab olishi nazarda tutiladi.

Har chorak boshida belgilangan mavzular eʼlon qilinib, ishni yozish yoʻl-yoʻriqlari haqida tushunchalar berilishi, oʻquv yoki elektron adabiyotlar, internet saytlaridan olingan maʼlumotlardan foydalanish qoidalari bilan tanishtirilishi oʻquvchilarning kreativlik kompetensiyalari rivojiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Biologiya, kimyo yoki fizika darslarida mustaqil ishlar asosan kuzatish, tajribalar oʻtkazish, ekskursiyalar uyushtirish yoʻli bilan amalga oshirilib, samarasi maʼruza, jadval, sxema, diagramma, grafik tasvirlar orqali tahlil qilinishi, taqqoslanishi, umumlashtirilishi va xulosa chiqarilishi yaxshi maʼlum.

Adabiyotdan mustaqil ishlarning keng tarqalgan turi esa **referat**dir. Yaxshi bajarilgan referat shaklidagi ish oʻquvchining ilm sohasiga qoʻygan birinchi qadami deyish mumkin. Albatta, hozir “internet referatlar” koʻpayib ketdi. Lekin ularni taqiqlash bilan maqsadga erishib boʻlmaydi.

¹ Тухлиев Б. Адабиёт уқитиш методикаси. –Тошкент. “Янги аср авлоди”, 2006. –137-б.

O'quvchilarni internet materiallariga nisbatan ijodiy yondashishga o'rgatish tushunchalarini mustahkamlash va kengaytirishga yordam beradi. Referat yozishda o'quvchi faoliyati belgilangan muammoni hal etish yo'llarini ishlab chiqishga yo'naltiriladi.

Tadqiqot maqsadi, yo'nalishi va mohiyatini rejaga muvofiq izchil bayon etish, yangi g'oyalar, dalillar bilan isbotlash, asosli xulosalar chiqarishda, "Loyihaviy ta'lim texnologiyasi" kutilgan samarani berishi, shubhasiz. Texnologiya tarixiga nazar solinsa, o'tgan asrning 20-yillarida amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyui va shogirdi V.Kilpatrik tomonidan taklif etilganligi va asosan insonparvarlik g'oyalari mujassamligi namoyon bo'ladi.

Loyihalar deb muayyan vaqt oralig'ida o'quvchilarning yuklatilgan vazifa yuzasidan axborotlar to'plash, izlanishlar olib borish va tadqiqot natijalarini taqdim etishiga aytiladi.

Loyiha ustida ishlash jarayoni bir necha bosqichdan iborat. Bular:

1. Tayyorlov: mavzu tanlash, ish maqsadi va muammosini belgilash.

2. Rejalashtirish: ma'lumotlar manbai, loyiha shakli, baholash mezonini aniqlash, rollarni taqsimlash.

3. Tadqiq etish: axborotlarni izlash, muammoning muqobil variantlarini tanlash.

4. Amalga oshirish: ko'zda tutilgan vazifalarni bajarish va prezentatsiya tayyorlash.

5. Taqdimot: natijalarga izoh hamda rasmiy chiqish.

6. Baholash: loyiha bajarilishi, yutuq va kamchililar tahlili.

Mazkur texnologiyaning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, jarayonda o'qituvchi asosan ekspert sifatida qatnashib, o'quvchilar faoliyatining boshqaruvchisiga aylanadi. Har qanday loyiha mavzuga bog'liq bo'lmagan holda yagona tartibda tuziladi va barcha bosqichlarda natija aniq ko'rsatilishi majburiydir.

Referat yuzasidan loyiha tayyorlashning afzalliklari shundaki, o'quvchi mavzuni o'rganish jarayonida muammoning mohiyatini ochib berishga kirishadi, g'oyalarni tizimlashtirib, tartibga soladi. O'z aspekti doirasida predmet, hodisa va tushunchalarni tekshiradi, qiyoslaydi, zarur mezonlarni ishlab chiqadi. Masalan, "Navoiyning tabiatni asrash haqidagi qarashlari", "Abdulla Oripov she'riyatida ruhiyat chizgilari", "Rauf Parfi ijodida qush timsoli", "O'zbek adiblarining tarjimonlik mahorati" kabi mavzularda izlanishlar olib borish o'quvchi bilish

arayonlarini yuzaga chiqarishi barobarida kelgusidagi faoliyati uchun ham poydevor vazifasini o'taydi.

O'quvchi intellektining rivojlanganlik darajasi, qiziqishlari, intilishlari ishning har jihatdan mukammal chiqishini ta'minlaydi. Zero, mukammallik hamisha o'z ustida ishlash va tinimsiz izlanishni talab etadi.

Maqola o'quvchini maktab yoshidan ijodga yo'naltiruvchi kichik ilmiy ishdir. Bolalarda kichik maktab yoshidan boshlab maqola yozish ko'nikmasi shakllantirilishi zarur. Buning uchun ishga qo'yiladigan talablar¹ yosh xususiyatidan kelib chiqib, o'quvchiga ma'lum izchillikda yetkazilishi maqsadga muvofiq. Masalan, maqolaga mos sarlavha tanlash, muammo qo'yish, mavzuning dolzarbligini asoslash, maqsad va vazifalar, shaxsiy kuzatishlarini yoritish; xulosa va takliflarini bayon etish; foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati; annotatsiya hamda muallif haqidagi ma'lumotlarni keltirish shular jumlasidandir.

Maqola sarlavhasida ishning mazmuni qisqa holda aynan aks etadi. "Kirish" bo'limida belgilangan muammoning dolzarbligi turli manbalar, tegishli soha, mavzuga oid amaliy ishlar, tajribalar tahliliga yondashilgan holda asoslanadi. Muammo nazariy va amaliy jihatdan yoritilib, mavjud noaniqlar, kelgusida o'tkazilishi rejalashtiriladigan tadqiqotlar ko'rsatilishi zarur. Bu bo'limda maqola muallifining maxsus, psixologik-pedagogik, axborotlar bilan ishlash va tadqiqotchilik kompetentligi elementlari namoyon bo'ladi.

"Maqsad va vazifalar" bo'limida o'rganilayotgan mavzu shakllantiriladi, ishni o'tkazishda foydalaniladigan metod, usul va vositalar bayon etiladi. Nima va u qanday shaklda tadqiq qilingani ma'lum tartibda yoritiladi, kutilayotgan natijalar yuzasidan faraz va g'oyalar ilgari suriladi, ularga ta'sir qiluvchi omillarga e'tibor qaratiladi.

"Shaxsan o'tkazilgan ishlarning yoritilishi" bo'limida maqsad va vazifalarni amalga oshirishga yo'naltiruvchi ishlarning mazmuni, dalil va isbotlar, ehtimollar, natijalardan kelib chiqadigan xususiy xulosalar haqida so'z boradi.

Izlanishlar natijalaridan chiqariladigan yakunlar "Xulosalar, takliflar, tavsiyalar" bo'limida qayd etiladi. Ko'rib chiqilayotgan mavzuni takomillashtirishga qaratilgan takliflar bildirilib, muammolarni hal etishga qaratilgan tavsiyalar beriladi.

¹ Алламуратов Ш И., Дой А.В. Мақолаларни қандай ёзиш керак. // "Maktab va hayot". –Тошкент: 2011, № 1.

– Б. 27.

“Foydalanilgan adabiyotlar” bo‘limida tanlangan mavzuning dolzarbligi, xususiy izlanishlarning ishonchliligini asoslash, shuningdek, keltirilgan qoida va xulosalarni to‘ldirish uchun (sitata, havolalar ko‘rinishida) direktiv yoki me‘yoriy hujjatlar, boshqa tadqiqotlar natijalaridan foydalaniladi.

Iqtiboslar asl manbadagi kabi aniq, mantiqan tugallangan, muallif fikrini tasdiqlash va to‘ldirishga xizmat qilishi zarur. Ro‘yxatda mualliflarning ism-sharifi, adabiyotlar nomi, nashr etilgan joyi, yili, umumiy yoki tegishli sahifasi ko‘rsatiladi.

Mushtariyga maqola yuzasidan to‘liq tasavvur beruvchi annotatsiya bir necha tilda yozilishi lozim. Unda ishning qisqacha tavsifi, ahamiyati, ilmiy yangiligi o‘z aksini topadi. Annotatsiyadan maqolaning asliga murojaat qilish yoki aksinchaligi haqida aniq tushuncha hosil bo‘ladi.

Mualliflar haqidagi ma’lumotlar o‘z ichiga familiya, ism, sharif, ish yoki o‘qish joyi, yashash manzili, u yerning pochta indeksi, shahar, qishloq, ko‘cha nomi, xonadon raqamlari kabilarni oladi.

Materialni rasmiylashtirilishda quyidagilarga rioya qilinishi ta’kidlanadi:

- matn jo‘natilishi rejalashtirilgan gazeta yoki jurnal talabiga muvofiq belgilangan shrift va intervalda kompyuterda yozilishi;
- sahifada chap, o‘ng, yuqori va pastdan qoldiriladigan hoshiya hajmiga rioya qilinishi;
- asosiy urg‘u qaratilgan fikrlar ajratib ko‘rsatilishi;
- xat boshlari chapdan joy qoldirilib terilishi;
- muallif tomonidan imzolaniib, talab qilingan miqdordan oshmagan holda qog‘oz yoki elektron versiya shaklida tahririyatga jo‘natilishi.

Taassurot, insho, taqriz, matn, hikoya kabi yozma ishlar ham o‘quvchilarni mustaqil mutolaa asosida tahlilga yo‘naltiruvchi vositalar sifatida e’tirof etiladi. Jumladan, **maktub** usuli ta’limda yangilik sanalmasa-da, o‘quvchilarni biror yozuvchining ijodi bilan yaqindan tanishtirishga, aks ettirilgan voqelik yuzasidan o‘zaro fikr almashib, munosabat bildirishga o‘rgatishi bilan samarali hisoblanadi.

7-sinfda ingliz adibi Ernest Seton-Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a” asarini o‘rganish chog‘ida o‘quvchilarga o‘zbek adabiyotida N.Norqobilov ijodida ham hayvonot olami ishonarli va samimiy tarzda aks ettirilgani bilan ajralib turishi alohida ta’kidlanib, adib asarlari mustaqil o‘qishga tavsiya qilinishi maqsadga muvofiq. Mutolaa

yakunida esa taassurotlarini maktub orqali o'rtoqlashish vazifasi topshiriladi.

Tengdoshidan maktub olgan o'quvchi, albatta, javoban o'zini hayajonga solgan, o'yg'a toldirgan lavhalar xususida mulohaza yuritish sharti belgilanadi. Shu usul bilan o'qituvchida butun sinfning kitobxonlik faoliyatini o'rganish va nazorat qilish imkoni paydo bo'ladi.

Maktublar yig'ib olingach, rejaga asosan taqdimot o'tkazilishi, iqtidorli mualliflari rag'batlantirilishi ko'zda tutiladi. Eng munosiblari adabiy tanlovlarga yuborilishi yoki vaqtli matbuot sahifalarida chop ettirishga tavsiya qilinadi.

Adabiy ta'lim metodikasida kitob mutolaasi, tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasi yoki tabiat bag'riga, muzey, teatr, kutubxonalarga tashriflar asosidagi **taassurotlarni** yozma bayon etishga ham mustaqil ishlarning bir ko'rinishi sifatida qaraladi. Chunki badiiy, musiqa, rangtasvir asarlari zahiridagi joziba, so'z qudrati, tovushlar sehri, ranglar xilma-xilligini payqash va ular o'rtasidagi uyg'unlikni o'z so'zlari bilan ifodalay olish adabiy ta'lim mazmuni ko'rsatkichlari sanaladi.

Kitobxonlik madaniyati takomilida, ayniqsa, **badiiy asarlar mutolaasi** asosida yoritiladigan taassurotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, yozuvchi xayolot olami, san'atning go'zal namunalari haqida mulohaza yuritish, sevimli qahramonlarini tavsiflash, o'zlariga ma'qul bo'lgan epizodlarga munosabat bildirish, muammoli vaziyatlar yechimini topish yo'lidagi izlanishlar orqali ta'lim oluvchilar estetik va kreativlik kompetensiyalari rivojlantirilishi kutiladi.

Mustaqil mutolaaga tayanadigan taassurotlar nafaqat o'zbek, balki qardosh va jahon adabiyotining yetuk namoyandalari ijodini qamrab olishi juda muhim. Jumladan, R.Stivenson, F.Moriak, E.Montale, G.Markes, Y.Radichkov, U.Patrik singari ko'plab iqtidorli qalam ahli merosini o'rganish orqali o'quvchilarni o'zga xalqlar adabiyoti, san'ati, madaniyati tarixi bilan tanishtirish va kitobxonlik darajasini oshirish vazifasi hal qilinadi.

Muzeylarga uyushtiriladigan **ekskursiyalar** birinchi galda o'quvchidan jamoat joylarda o'zini tutish, muomala odobi (kommunikativ kompetensiyalar) ni talab etadi. Yozuvchi uy muzeyiga ekskursiya uchun, avvalo, aniq obyekt tanlanadi. sanasi va vaqti belgilanadi, kun tartibi rejasi tuziladi.

Ijodkorga tegishli har bir eksponat, hayoti va faoliyatiga oid hikoyalar o'quvchilar hissiyotlariga kuchli ta'sir ko'rsatishi nazarda tutilib, bu haqda olingan ma'lumotlar maxsus shaxsiy yon daftarcha,

video yoki audio vositalar yordamida magnit tasmlariga qayd qilib borilishi maqsadga muvofiq. Zero, sevimli ijodkori hayoti va faoliyatiga oid qiziqarli voqealar, muhim sanalar, yoqtirgan asarining yozilishi tarixi o'quvchi qiziqishlarini yanada oshirishi, tasavvuri, dunyoqarashini boyitishi, shubhasiz. Muayyan san'atkor, rassom yoki adiblar uy-muzeyiga ekskursiyalar mahalliy shart-sharoit, imkoniyatlar va ta'lim oluvchilar qiziqishlari doirasida belgilanadi.

Taassurotlar tarixiy shaxslar siymosi, ona yurt tabiatining maftunkor ko'rinishlari yoritilgan kartinalar, rang-barang mavzularda ishlangan natyurmort va miniaturalarga bag'ishlab ijod qilinishi ham mumkin. Masalan, musavvirlar Ch.Ahmarovning "Yetti go'zal", O.Qozoqovning "Serka qirildi qishlog'ida kuz", S.Rahmonovning "Amir Temur Ispaniya elchisini qabul qilmoqda" yoki "Hayot ne'matlari" kabi mo'yqalam namunalari yuzasidan taassurot yozish shular jumlasidandir.

O'quvchilar axloqiy-estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadigan spektakl, badiiy, hujjatli, video filmlar asosidagi taassurotlar rejissor mahorati, aktyorlar ijrosi, tanlangan dekoratsiyalar, mavzuning jamiyat uchun qay darajada dolzarbligini asoslashga bag'ishlanadi.

Taassurot yozishga qo'yiladigan umumiy talablar:

- ish mavzusini nomlash;
- belgilangan vazifalarni maqsad sari yo'naltirish, aniq natijalarga erishishni rejalashtirish;
- manbalarni chuqur o'rganish va tahlil qilish;
- tezis yaratish va dalillash uchun ko'chirmalar to'plash;
- fikrni mantiqan izchil, grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri ifodalash;
- muayyan xulosalar chiqarish.

Badiiy matnlarni **yod olish va ifodali o'qish** ham mustaqil ishning samarali turlaridandir. Yod aytish chog'ida ovoz chiqarib o'qish, ko'rish, eshitish singari nutq va xotira turlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Agar matn katta hajmli bo'lsa, tahlil chog'ida qismlarga bo'linib, reja bo'yicha yod olinadi. Yod aytishda o'qituvchi ijrosi o'quvchilar uchun namuna vazifasini o'taydi.

Hikoya usuli – bilim mazmunini og'zaki bayon etishdir. Hikoya qilish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi, his-tuyg'ulari va nutqini boyitish orqali tahlilga tayyorlaydi. Matn mazmunini izchil bayon qilishda o'quvchi unga nisbatan shaxsiy munosabatini ko'rgazmalar va ishonarli dalillar bilan ifodalash ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Suhbat orqali yangi bilimlarni oʻzlashtirish, mavzu ichidan muhim yoki nokeraklarini ajratish, fikrlarni yakunlash va umumlashtirish, zarur hollarda topshiriqlar berishda hikoya-muqaddima, hikoya-bayon, hikoya-xulosa kabi turlaridan foydalaniladi.

Maʼlumki, oʻquvchilar Kaykovusning “Qobusnoma” asari bilan boshlangʻich sinflarning oʻqish darsliklarida keltirilgan pandnomalar orqali tanishtiriladi.

8-sinfda Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” dostonidan bek kishi qanday boʻlmogʻi kerakligi haqidagi boblar bilan tanishtirilishi koʻzda tutilgan¹. Mavzu oʻtilishidan bir necha kun oldin oʻquvchilarga “Qutadgʻu bilig” kabi nasihatnoma ruhida yozilgan “Qobusnoma” asaridagi hikoyatlarni mustaqil oʻqish tavsiya etiladi.

Har ikkala asarning oʻzaro oʻxshash jihatlari aniqlanib taqqoslanishi, mantiqiy izchillikda, taassurotlar asosida toʻliq, ayrim lavhalar boʻyicha matnga yaqinlashtirib yoki qisqartirib hikoyalash vazifasini bajarish oʻquvchilarda lingvistik, nutqiy, kreativlik va pragmal lingvistik kompetensiyalar rivojiga xizmat qilishi bilan oʻziga xoslik kasb etadi. Jumladan, “Omonatni saqlamoq zikrida”² hikoyatidagi oʻgʻri va hammomga boruvchi kishi dialogi oʻquvchi tomonidan quyidagi tarzda ifodalanishi nazarda tutiladi:

Soʻzlovchi:

Tong qorongʻisida hammomga borishni ixtiyor etgan bir kishi yaqin doʻstidan oʻziga hamrohlik qilishni soʻraydi. Zarur ishi bor haligi kishi esa hammomgacha birga borishini, lekin u yerga kirishga imkoni yoʻqligini aytadi. Yoʻl ayrilgan joyga yetganida esa u ogʻaynisini xabardor qilmay ortiga qaytib ketadi.

Ittifoqo, bir oʻgʻri hammomga boruvchining izidan ergashib, uni taqib qila boshlaydi. Ortidan kelayotgan oʻgʻrini gʻira-shira pallada doʻstim deb oʻylagan kishi undan yuvinib boʻlguniga qadar yuz tillosini saqlab turishini iltimos qiladi.

Zarni olgan oʻgʻri haligi kishining qaytishini poylab, kutib oʻtirishga majbur boʻladi. Hammomdan chiquvchi kishi kiyinib olgach, oʻz yoʻliga ravona boʻladi. Oʻgʻri uni chaqirib oltinlarini olib ketishini, shu omonatni deb bugun ishidan qolganini aytadi. Boyagi kishi esa bundan hayron qolib uning kimligini, oltinlarni qayerdan olganini soʻraydi.

¹ Uzviylashtirilgan davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi Ona tili. Adabiyot. Oʻzbek tili. (5-9-sinflar). –Toshkent: “Yangiyoʻl poligraph service”, 2010. – 77-b.

² Кайковус. Қобуснома. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 2006. – 90-91-б.

O'g'ri tillalar bir qancha muddat ilgari o'sha kishi tomonidan o'ziga topshirilgan omonat ekanligini ma'lum qiladi. Agar ming tillo bo'lsa ham andisha qilmay olib ketishi mumkinligini, ammo ishonchni suiste'mol qilmoq, labzsizlik juvonmardlik (saxiylik)dan emasligini ta'kidlaydi.

Hikoya usuli samaradorligi quyidagilarda aks etadi:

a) mashg'ulotni loyihalashtirishda zarur lavhalarini tanlash;

b) qo'llash o'rinlarini belgilash;

d) tinglovchi his-tuyg'ularga ta'sir ko'rsatish;

e) nutq madaniyatiga amal qilish;

f) ovoz imkomiyatlari, yuz mimikalari va qo'l harakatlarini ishga solishda o'zaro mutanosiblik va hokazo.

Asar mazmunini og'zaki tasvirlash psixologik va badiiy taktini talab qiladi. U har qanday adabiy janrga mansub asar matni ustida ishlashda qo'llanilishi mumkin.

Mantiqiy va obrazli fikrlashga asoslanadigan og'zaki rasm chizish usuli o'quvchida shunday holatni yuzaga keltiradiki, jarayonda o'rganilayotgan obyektни tushunish va his qilish o'zaro uyg'unlashayotgandek seziladi. Buning samarasi o'laroq ong va tasavvurda muayyan qahramonning omuxtalashgan tashqi va ichki portreti, emotsional-bo'yoqdor hayotiy manzaralar tasviri paydo bo'ladi. Masalan, G.G'ulomning "Shum bola" asaridagi Shum bola yoki X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" qissasidagi Hoshimjon obraziga xayolan "kirib olish" qahramon kechinmalarini kuzatish va uni ichkaridan bilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada tasavvurda jonlangan obrazlilik nutqda san'ankorona tarzda aks etadi.

Sehrli qalpoqchasini kiyib Soraxon folbinnikida taftish uyushtirgan Hoshimjonning yerto'lada sinfdoshi Mirobiddinxo'ja nayranglariga guvohi bo'lish chog'idagi qo'rquv, hayrat, g'azab kabi ruhiy o'zgarishlarni ifodalash misolida qayta hikoyalashga xos zaruriy me'yorlar o'zlashtiriladi. Personajlar o'rtasidagi suhbat, tortishuv, bahslarni aks ettirish orqali dialoglarni monologik, polifonik nutqqa, matndagi ko'chirmalarni o'zlashtirma gaplarga aylantirish malakalari shakllantiriladi.

O'quvchilar asar mazmunini so'z vositasida og'zaki tasvirlashga jiddiy tayyorgarlik ko'rishlari lozim. Buning uchun oldindan bayon rejasi belgilab olinishi, zaruriy ko'chirmalar tanlanishi, personajlar qiyofasi, nisbiy tugallangan lavhalar, tasviriy ifodalar aniqlanishi, tabiat manzaralari izchillik bilan yoritilishi talab etiladi. Jumladan, Rauf

Parfining “Tong otmoqda...”¹ sheʼridagi obrazli fikrni soʻz vositasida tasvirlash (rasm chizish) usulidan foydalanib tahlil qilish oʻquvchilarning ijodiy tafakkuri va tasavvurlarini rivojlantirish, xayolot dunyosini boyitish hamda bogʻlanishli nutqini oʻstirishda muhim oʻrin tutadi.

Sheʼrda tun va kun almashishi hodisasi badiiy gavdalanitirilgan. Quyosh kamonidan yogʻilayotgan zarrin nurlarga koʻksi qalqon boʻlgan ona zamin bagʻrida hayot kurtaklari koʻz ochadi. Butun borliq zumrad ipaklardan naqshlangan harir libosga burkanadi.

Har tongni ezgu niyatlar bilan qarshi olar ekan, lirik qahramon yaxshilarga yuragini payvand etishga, yashashdan asl maqsadini anglashga intiladi.

Matn ustida ishlashning yana bir turi oʻzlashtirilgan bilimlar asosida moʻyqalam va ranglar, kompyuterning “Paint” dasturi imkoniyatlaridan foydalanib **grafik tasvirlash** usulidir. Bu jarayon asosan uyda bajarilib, natijalari sinfda koʻrgazmalar tashkil etish bilan muhokama qilinadi. Jarayonni tashkil etishdan avval oʻquvchilar tasvirlanadigan parcha yoki misralar bilan yaqindan tanishib chiqishi zarur boʻlib, oʻqituvchi tanlangan ranglarning mavzuni yoritishdagi ahamiyati haqida suhbat uyushtiradi.

Professor R.Niyozmetovanning fikricha, “Badiiy matn ustidagi tahliliy ishlar natijasida nutq oʻstirish bilan birga badiiy obrazlarni qayta yaratish jarayoni kechadi, bunda oʻquvchi oʻzi chizgan rasm bilan asarni taqqoslaydi, oʻz munosabatini qatnashtirib mushohada yuritadi, oʻz turmush tajribasini ishga soladi, sintezlash jarayoni yakunida oʻquvchining asardagi obraz haqidagi tasavvuri subyektiv obraz-tasavvurga aylanadi, unga oʻquvchining shaxsiy mulohazalari qoʻshilgan boʻladi”².

Umumiy oʻrta taʼlimning 7-sinf adabiyot oʻquv dasturida serqirra ijodkor Asqad Muxtorning “Yulduzim”, “Tugʻilish”, “Oʻzimniki emas bu umr” sheʼrlari oʻrganilishi rejalashtirilgan³. Shoimning chuqur falsafiy maʼno singdirilgan “Bir tup oʻrik” sheʼri bilan mustaqil tanishishda grafik tasvirlash usulidan foydalanish asar badiiyatini idrok etishga, obrazlarning umumlashma tavsifini ochishga, hayot haqidagi tasavvurlarini shakllantirishga, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni mohiyati haqida fikr yuritishga zamin yaratadi.

¹ Рауф Парфи. Туркистон руҳи. Сўйланма. –Тошкент: “Sharq”, 2013. – 75-б.

² Ниезметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси –Тошкент: “Фан”, 2007. – 46-б.

³ Uzviylashtirilgan Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. Ona tili. Adabiyot. Oʻzbek tili. (5-9-sinflar) –Toshkent: “Yangiyoʻl poligraph service”, 2010. – 71-72-b.

Muallif qiyinchiliklarsiz ulgʻaygan, takabbur, hayotga yengil-yelpi qaraydigan, yolgʻiz oʻzi oʻsgan oʻgʻil-qizlarni daraxt qiyofasida aks ettirgan.

Sheʼr nomlanishida ramziy maʼno mujassam. Chin doʻsti yoʻq insonlar bir tup oʻrikka qiyoslangan. Qiygʻos gullagan daraxt shoir nazarda tutgan kishilar hayotining ayni navqiron, omadli va baxtiyor damlari boʻlsa; boshiga ish tushganda yolgʻizlanib qolishi lavhasi esa yomgʻirli kunda gullari yerga yakson boʻlgan oʻrik qiyofasida jonlantiriladi.

Sheʼrdagi ramziy maʼnoni tasviriy sanʼat fani bilan integratsiyalashgan holda oʻrganish oʻquvchilarning idrok, xayol, tasavvur va tafakkur kabi bilish jarayonlari takomilida muhim oʻrin tutadi.

“Bulutli kun, izgʻirin shamol, egilgan daraxt shoxlari, sargʻaygan va toʻkilayotgan barglar” tasvirida masalaning quyidagi jihatlariga eʼtibor qaratiladi:

Daraxt – asar markazidagi inson obrazi. Bulutli havo – hayotning sinovli “qora” kunlari. Shamol – oʻzgalar tomonidan uyushtiriladigan adolatsizliklar yoki taqdirning shafqatsiz hukmi. Umidsizlik, tushkunlikka tushish – egilgan shoxlarda oʻz ifodasini topadi.

Sheʼr ilk bor oʻqilganida oʻquvchilar xayolida nafis tusdagi “bir tup oʻrik”, har xil qiyofaga kirib, girdikapalak boʻlib soʻzlayotgan koʻlanka, osmonda toʻp-toʻp aylanayotgan qora bulutlar, sharros quyayotgan yomgʻir, soyani kutib charchagan daraxt va uning yerga toʻkilib, loyga qorishib yotgan gullari jonlanadi.

Qayta-qayta oʻqish, tahlil davomida esa shoirming asl maqsadi uqiladi. Soyaning umri qisqa. Oftob koʻrinib, bulutlar tarqaganidek, chin doʻstlar yoningda boʻlsa, yorugʻ kunlarga umid bilan intilasan. Qiyinchiliklar odamlar oʻrtasidagi ishonch va sadoqatni sinaydi. Hamjihatlik, birdamlik va yakdillik maqsad sari eltuvchi mezon ekanligiga amin boʻlinadi.

Doʻstlar orasidagi ishonch, sadoqatning oq, yashil yoki zangori; soxta tuygʻularning qora boʻyoqlarda aks ettirilishi oʻquvchi tafakkuridagi analiz-sintez jarayonining yorqin ifodasi sifatida roʻyobga chiqadi.

Inssenirovkalash oʻquvchilarning aqliy va hissiy faoliyati uchun katta imkoniyatlar yaratadi. U badiiy asar matniga nisbatan tadqiqiy munosabatni chuqurlashtiradi, sahna varianti maʼnodor va taʼsirchan boʻlishini taʼminlaydi. Inssenirovkalash oʻquvchilardan badiiy asar

poetikasini chuqur o'rganishni, o'z nutqida adabiy tushunchalarni qo'llash mahoratini talab etadi.

Masalan, 9-sinfda Bobur hayoti bilan yaqindan tanishishda X.Sultonovning "Saodat sohili" qissasini sahnalashtirish orqali umrining so'nggiga qadar yurt ishqida yongan ulug' shoir va sarkardaning ichki dunyosi ochib beriladi. Buning uchun quyidagicha faoliyat turlari amalga oshirilishi rejalashtiriladi:

- 1) inssenirovka uchun maqbul lavhalarni belgilash;
- 2) tanlangan parchalarni nomlash;
- 3) qahramonlar qiyofasini gavdalandiruvchi o'quvchilarni aniqlash;
- 4) rollarni taqsimlash, personajlar nutqi ustida ishlash;
- 5) sahna dekoratsiyasi, liboslarni davr ruhiga moslab tayyorlash va hokazo.

Inssenirovka qahramonlari:

Zahiriddin Muhammad Bobur – shoh, 47 yoshda.

Hofiz Ko'ykiy – chamasi 60-70 yoshlar oralig'idagi tarixchi olim.

Binoqul – 24 yoshdagi kosib yigit.

Gulbadanbegim – Boburning qizi, 7-8 yoshlarda.

Baxshiturk (Boboqul) – Binoqulning otasi, 50 yoshlarga borib qolgan savdoyi.

Abulvohid Forig'iy, Sulton Muhammad Do'ldoy, Kichik Xoja – saroyning yoshi ulug' amaldorlari.

"E'tiqod sinovi" sahnasi

Hikoyachi o'quvchi:

Agra. Bog'i Nurafshonda Bobur arkoni davlat bilan mashvarat o'tkazmoqda. Eshik og'asi kirib Sulton Muhammad Hofiz Ko'ykiy otlig' kishining shoh huzuriga muntazirligi haqidagi mujdani yetkazadi. Mavlono Forig'iy majlis ahliga farkatlik benazir tarixchi haqida eshitganlarini so'zlab beradi.

Farkat nomi Boburga hayotining kuz shamoliday achchiq va rutubatli damlarini yodga soladi. Ruxsat amr etilgach, alloma kirib shohga qulluq bilan cheksiz sadoqatini izhor etadi. So'ngra omonatni – Binoqul kitobat etgan Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarini o'z

egasiga tortiq etgan holda Hindistonga kelishdan muddaosini ham ma'lum qiladi.

Hofiz Ko'ykiy qimtinib:

– Mening qutlug' huzuringizga kelmoqdan maqsadim, avvalo, siz zoti shariflarini ziyorat etmoq bo'lsa, so'ng shuhrati yetti iqlimga mashhur allomalarangiz bilan tanishmoq. kutubxonangizdagi noyob durdonalardan bahramand bo'lmoqlik umidi hamdir. Kamina qulingiz ne vaqtlardan buyon ilmi tarixga doir bir risola bitmak orzusida yuradirman. Kutubxonangizda tilloga topilmas mo'tabar kitoblar bisyor, deb eshitaman. Agar zoti muboraklari ijozat etsalar...

Bu orada Bobur soxta istehzolar ila mehmonning aql-zakovatini imtihon qiladi. Allomaning teran zehni va idrokiga ishonchi komil bo'lgach, dilidagisini to'kib soladi.

Bobur xushhol:

Bizning huzurimizga ne-ne muhtaram zotlar ganju davlat tilab, rutbayu unvon tilab qadam ranjida qiladilar... – Lekin shu vaqtgacha kitob izlab, ma'rifat istab kelgan bir kimsani ko'rganim yo'q edi. Shukur tangrigakim, alhol inoyat aylab, zoriqib ko'z tutgan kishimizning diydoriga yetishtirdi. Har qandog' noyob kitobimiz bo'lsa, sizdan aylansin...¹

Inssenirovka davomida shohning kichik Gulbadanbegim bilan suhbatlari, hind sarkardalari xiyonatiga aloqador epizodlar jonlantiriladi. Ayniqsa, Boburning yurt sog'inchiga daxldor azobli xotiralari sahnasiga keng o'rin beriladi.

“Ilohiy tushlar ta'biri” ko'rinishi

Bobur xo'rsinib xitob qiladi:

– Saodat sohili!.. – Qayda u? Qay baxtiyor kimsa unga yetibdir?... – Ko'p allomalardan, ulamoi kiromlardan so'roqladim: “Qayda u?” Ko'ngil tingudek bir javob topmadim... – Goh aytdilarki, u chog'ir dengizining qirg'og'ida. goh dedilarki, ma'rifat daryosining kano-rasida... Goh uqtirdilarki, savob ummonining sarhadlarida...

Hofiz Ko'ykiy hayajonini bosolmay:

– Saodat sohili – vatanda, olampanoh...²

¹ Султонов Х. Бобурнинг тушлари. –Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1993. – 87-б.

² Султонов Х. Бобурнинг тушлари. –Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1993. – 96-б.

Jarayon Bobur vafotidan chuqur iztirobga tushgan Hofiz Ko'ykiy-ning Baxshiturk bilan uchrashuvi lavhasi ijrosi bilan yakunlanadi.

Ta'kidlash joizki, har qanday tur va shaklda bo'lishidan qat'i nazar mustaqil ishlar fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yishi, nazariy bilimlarni amalda qo'llashga o'rgatishi hamda lingvistik kreativlik, nutqiy, kommunikativlik va axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishi bilan ahamiyatlidir.

Puxta, mazmunli va mukammal bajarilgan ish zahirida, albatta, mutolaa yotadi. Mustaqil o'qishga jiddiy e'tibor qaratish esa barkamol shaxsni tarbiyalash garovidir.

Bob yuzasidan xulosalar:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yosh avlod ma'naviy dunyosi, badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish, nazariyani amaliyotga bog'lash, bilimlarini chuqurlashtirish, nazorat qilish, axborotlar bilan ishlash hamda mashg'ulotlarga qiziqtirish kabi qator afzalliklarga ega.

2. Adabiy ta'lim metodlari va usullari o'quvchilarning intellektual salohiyati, tahlil ko'nikma va malakalarini takomillashtirish hamda shaxsiy qarashlarini asoslashga zamin yaratadi.

3. Ijodiy mustaqil ishlar yangi materialni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish; bog'lanishli nutqni o'stirish; vazifaga mas'uliyat bilan yondashish, o'ziga ishonch tuyg'usi va iroda sifatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

III bob. MUSTAQIL O'QISH: TAJRIBALAR VA XULOSALAR

III.1. To'garak mashg'ulotlarida axborot texnologiyasidan foydalanish

Ta'lim sohasidagi islohotlar sinfdan tashqari ishlar, xususan, to'garaklar faoliyati samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalanish zaruriyatini taqozo etmoqda. Adabiyotdan tashkil etiladigan to'garak mashg'ulotlarida biror ijodkorning umrbayoni bilan yaqindan tanishish, mustaqil mutolaa qilingan asarlarni tahlil qilishda kompyuter, multi-mediya vositalari kabi zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlari cheksiz.

Fikrimizni Usmon Azim ijodiga bag'ishlangan adabiy-ijodiy to'garak mashg'ulotini kompyuterning "Power Point" dasturidan foydalanib tashkil etish misolida asoslashga harakat qilamiz.

Mashg'ulotga hozirlik ko'rish jarayonida to'garak ishtirokchilariga ijodkorning "Sog'inch" she'riy, "Jodu" nasriy to'plamlari, "Bir qadam yo'l" dramatik asarlarini mustaqil o'qib-o'rganish qatorida adabiyot nazariyasiga doir bilimlarini ham takrorlab, mustahkamlash tavsiya etiladi.

Shoir hayoti va ijod yo'li yuzasidan taqdimot qilishda o'quvchilar kompyuter yordamida internetdan ma'lumot qidiradi, manbalarga qayta-qayta murojaat qiladi. Bu esa ularning kompyuter savodxonligi shishiga, mavzuga doir bilimlari uzoq vaqt xotiralarida saqlanib olishiga zamin hozirlaydi.

O'z navbatida to'garak rahbari test olish, savolnomalar tarqatish, ikka yoki jamoa tarzida suhbatlar o'tkazish yo'li bilan o'quvchilar oliyatini kuzatib boradi. Topshiriqlarni tuzishda to'garak a'zolarining sh xususiyatlari, bilish jarayonlari va qiziqishlariga ijodiy ndashiladi.

Noan'anaviy to'garak mashg'ulotlari pedagog xodimlar zimmasiga na bir qo'shimcha mas'uliyat yuklashi tabiiy. Endilikda to'garak bari nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki axborot-kommuniatsiya texnologiyalari o'quv vositalari bo'yicha ham yetarlicha bilim

va tajribaga ega bo'lishi zarur. Buning uchun o'qituvchi, eng avvalo, "Power Point", "Word", "Excel" kabi dasturlarni yaxshi bilishi muhim.

Mashg'ulotni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etish o'qituvchidan muayyan tayyorgarlikni talab etishi muqarrar. Garchi ancha mehnat talab qilsa-da, to'garak rahbari Usmon Azim ijodiga doir slaydlar tayyorlaydi, she'rlari asosida kuylangan qo'shiqlar, muallifligidagi kinofilmlardan parchalarni maxsus texnika vositalari yordamida yozib olib, kompyuter xotirasiga o'tkazadi. Bu faoliyatga o'quvchilarning ham jalb qilinishi ularning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, bo'sh vaqlarini mazmunli tashkil etishga ko'maklashadi.

Mashg'ulot shakli: hamkorlikda o'qitish texnologiyalari amalga oshiriladigan noan'anaviy juftliklarda ishlash (binar) darsi. To'garaklarda o'quvchilar soni qat'iy belgilanmasligi nazarda tutilsa, o'rtacha 10-12 ta atrofida juftliklar shakllantiriladi.

Ikki bosqichga mo'ljallangan mashg'ulot debochasi to'garak rahbarining ijodkorning o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi haqidagi kirish so'zi bilan boshlanadi. So'ngra kompyuter karnayidan barchaga xush kayfiyat ulashuvchi shoir qalamiga mansub "Derazadan boqar sohibjamol oy" qo'shig'i eshittiriladi.

Qo'shiq nihoyasiga yetgach, to'garak a'zolarining Usmon Azim ijodiy faoliyati yuzasidan taqdimotlari bo'lib o'tadi. Taqdimot chog'ida "MS Power Point" dasturida yaratilgan musiqali slaydlarga murojaat qilinadi. Ma'lumki, bu dasturda matn harakatga keladi. Matnga jilo berishda dasturning "Создать слайд" tugmasini bosib, "Конструктор" holatidagi "Эффекты анимации" shakllaridan foydalanish mumkin.

Dastlab ekranda shoir surati va "O'zim haqimda" she'ridan olingan satrlar paydo bo'ladi. Shoir siyratidagi halollik, rostgo'ylik, qat'iyatlilik kabi o'ziga xos jihatlardan so'zlovchi she'r to'liq holda o'quvchilardan biri tomonidan yoddan ifodali o'qiladi.

Ijodkorning zamonaviy o'zbek she'riyati, dramaturgiyasi taraqqiyotiga qo'shgan munosib ulushi haqidagi taqdimotda ma'ruzalarning muhim o'rinlari videoprojektor yordamida monitorda namoyish etib turiladi.

Turli yillarda dunyo yuzini ko'rgan to'plamlari, jahon va qardosh xalqlar adabiyotidan tarjimalari, sermahsul va serqirra ijodiga hukumatimizning yuksak e'tibori haqidagi ma'lumotlar slaydlarda yoritib boriladi.

Slaydlarda "Gipermurojaat" ("Гиперссылка") orqali "Alpomish" filmidan lavhalar Usmon Azimning kinossenariylar yaratish mahoratini o'quvchilar ko'z o'ngida gavdalandiradi. Taqdimot yakunida ma'ru-zachilar shoir hayoti va ijodi yuzasidan to'garak a'zolarida tug'ilgan savollarga javob qaytaradi.

Ikkinchi bosqichda Usmon Azim ijodining birgina qirrasini – she'r-lari o'rganishga kirishiladi. Topshiriqlar har bir juftlikka belgilangan she'r matni, undagi ayrim bandlar asosida ishlangan rasmlar, tahlilga yo'naltiruvchi savollar ko'rinishida slaydlarda aks etadi.

Shoir so'z san'ati vositasida ifodalagan fikrni kompyuter imko-niyatlaridan foydalanib, turli tasvir va tovushlar uyg'unligida o'rganish o'quvchilarning dunyoqarashini boyitish, badiiy-estetik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi.

Masalan:

Bolari tentirar tentirar – gullarga cho'ri,
Kapalak jonsarak – boqqa xizmatkor.
Quyoshning tillarang jismini so'rib,
Namxush havolarda ko'karar bahor¹.

Tabiat bag'riga xayolan sayohat maqsadida mazkur she'riy satrlarga ishlangan quyidagicha manzaralar keyingi slaydlarga joylash-tiriladi va unga hamohanglikda suvlarning shildirashi, qushlarning sayrashini hamda asalarilarga xos tovushlar eshittiriladi:

Moviy osmon kengliklarida oqqush misol suzayotgan pag'a-pag'a bulutlar karvoni. Hayotbaxsh ko'klam oftobining saxovatidan bag'ri anvoyi chechaklar-u zumrad maysalar bilan bezangan ona zamin.

Atlasnuxsa qanotlarini mayingina hilpiratib bog' sahnida uchayotgan turfa kapalaklar. Bol ishqida chaman kezib, gul kosachalari poyini tavof aylayotgan g'ujg'on asalarilar...

"Paint" grafik muharriri imkoniyatlari doirasida hosil qilingan rasmlar she'r sarlavhasi "Bolari tentirar..." nomi bilan saqlanib, "Tahrir" ("Правка") menyusidagi "Nusxalash" ("Копировать") va "Joylash-tirish" ("Вставить") amallaridan foydalanib "MS Power Point" dastu-riga o'tkaziladi.

Navbatdagi slaydlarda o'quvchilarni mustaqil mushohadaga yo'-naltiruvchi savol-topshiriqlar ketma-ketlikda beriladi. Masalan, "Bila-

¹ Usmon Azim. So'fing'ch. – Toshkent: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – 92-б.

man, hayot – kurash bilan tirik”¹ sheʼrini tahlil qilish vazifasi yuklatilgan juftlik quyidagi savol-topshiriqlar ustida izlanib, fikr-mulohazalarini ogʻzaki bayon qiladilar:

1. Sheʼrdagi qirgʻiy va chumchuq timsollarining hayotiy ifodasini izohlashga urinib koʻring.

2. Lirik qahramonning “Chirqillagan chumchuq tarafida” boʻlishga undagan ehtiyojni aniqlang.

3. “Gullagan daraxtning kesilishi” misrasining oʻz va koʻchma maʼnolarini toping.

4. “Men kuchning har ishidan izlayman mantiq – Chidolmayman haqning ezilishiga” bayti shoir tabiatidagi qaysi fazilatlarini yuzaga chiqargan?

5. “Olamga zoʻravonlik beshafqat boqadi. U xush koʻrar tiz choʻkkan dunyoni...” bayti zamiridagi haqiqatga munosabat bildiring va hokazo.

Tahlil nafaqat savol-javoblar shaklida, balki shoir sheʼrlarida qoʻllanilgan maxsus tasviriy vositalarni aniqlash yoʻli bilan ham amalga oshiriladi. Bunday usul orqali oʻquvchilar faoliyati satrlar zahiriga singdirilgan maʼnolarni izlab topishga yoʻnaltiriladi.

“Usmon Azimning sheʼrlarida haqiqatga talpinish, haqiqatni izlash, yolgʻondan zoda koʻngil iztiroblari aks etadi. Tabiatning turli fasllari, turli hodisalari va hosilalari shoir his-tuygʻularini teranroq tasvirlash uchun vosita. Lirik qahramon kuzgi bogʻlarda sayr etadi. Shoirning kunduzlari – bir lahzalik, tunlari uzun; quyosh esa haqiqat ramzi. Shu bois “Ruhimda bir porla, quyoshim” deydi”².

Aksariyat sheʼrlarida Usmon Azim kishi nigohidan yashirin, bir qarashda koʻrimsizdek, oddiy, lekin betakror tabiat manzaralariga murojaat qilish asnosida badiiy jihatdan mukammal asarlar yarata olganligining guvohi boʻlamiz. Jumladan, “Zaminda salqin oz...” deb boshlanuvchi sheʼrida yoʻngʻichqaning muzday suv kechib oʻynashi tasvirlari³ lirik qahramon qalbidagi dard tugunlarini “yechib” yuboradi.

Sheʼrda tasvirlanganidek, egatlariga saraton suvlari taralgan beda barglarining mayin shabboda ekinlaridan ohista tebramb chayqalishi kishi ruhiyatiga cheksiz huzur baxsh etadi. Yoʻngʻichqaning “suv kechib” raqsga tushishidan zavqlangan lirik qahramon hayot

¹ Usmon Azim. Soʻgʻinchi. –Toʻshkent. “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyati, 2007. – 136-6.

² XX asr oʻzbek sheʼriyati antologiyasi. –Toʻshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyati, 2007. – 8-6

³ Usmon Azim. Soʻgʻinchi. –Toʻshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyati, 2007. – 93-6.

tashvishlarini bir zumga bo'lsa-da unutadi. Aldovlar, xiyonatlar soya solgan ozurda ko'nglidagi g'uborlar tarqalib ketadi. Ko'rinadiki, shoir tashxis san'atini qo'llash orqali yo'ng'ichqani detallashtiradi, shaxslantirishga erishadi.

Mashg'ulot yakunida juftliklarning tahlili asosidagi muayyan xulosalar matn ko'rinishida kompyuter xotirasiga kiritiladi.

II.2. Navolarga yo'g'rilgan g'azalxonlik

She'rxonlik musiqa bilan integratsiyalashgan holda olib boriladigan noan'anaviy shakldagi sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari o'quvchilar kitobxonlik madaniyati, intellektual salohiyati va estetik didlarini kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9-sinf adabiyot darslarida mumtoz shoirlar ijodini o'rganish jarayonida navolarga yo'g'rilgan g'azalxonlik kechasi tayyorlash sinf va sinfdan tashqari o'qish o'rtasidagi uzviylikni ta'minlaydi. Shunday mashg'ulotlardan biri 9-sinfda Navoiy, Bobur, Mashrab g'azaliyotiga bag'ishlab o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini o'quvchilarning tayyorgarligisiz tashkil etish mumkin emas. Shu bois, mumtoz shoirlar ijodini o'rganishga kirishilgan dastlabki kunlardan oq rejalashtirilgan loyiha g'oyasi o'quvchilarga tanishtiriladi. O'quvchilarni mustaqil mutolaaga qiziqtirishda "Topmadim", "G'azal gulzoridan 100 otashin gul", "Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur", "Mehribonim, qaydasan", "Dilim daryoi nurdur" kabi she'riy to'plamlar tavsiya qilinadi.

G'azallarni yoddan ifodali o'qish mushoira sharti tarzida belgilanadi. Nazmga navoning hamohangligini ta'minlash borasida mazkur shoirlar g'azallari bilan kuylangan qo'shiqlar radio, televideniye yoki joylardagi ovoz yozish studiyalaridan maxsus buyurtmalar asosida yozdirib olinadi. Nay, dutor, g'ijjak kabi musiqa asboblari chala oladigan o'quvchilarga kuy ijro etishlari uchun alohida topshiriqlar beriladi.

O'quvchilar bilimini mustahkamlab, umumlashtiruvchi musobaqa shaklidagi mushoira darsida ijodiy o'qish metodi qo'llaniladi.

Adabiyotdan takomillashtirilgan o'quv dasturida aruz nazariyasini o'rganish ko'zda tutilmaganligi bois o'quv yili davomida aruz tizimiga os bahrlar, vaznlar, ularning ruknlari tarkibi va chizmalari yuzasidan o'garak mashg'ulotlari yoki sinfdan tashqari suhbatlar o'tkazib

borilgani ma'qul. Modomiki, maktablarda aruz vaznida bitilgan asarlar o'rganilar ekan, buning uchun maxsus soatlar ajratilishi zarur. Lekin bu masala qisman bo'lsa-da, darsliklar mualliflari tomonidan e'tiborga olinganligini ta'kidlash joiz. Jumladan, 8-sinf adabiyot darslik-majmuasi¹ da Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni (44-bet), Lutfiyning "Xoh inon, xoh inonma" (76-bet), "Bu ko'nguldur, bu ko'ngul" (79-bet), "Ayoqingg'a tushar har lahza gisu..." (81-bet), Navoiyning "Qilg'il" (103-bet), "Kelmadi" (112-bet), "Bo'ldum sanga" (121-bet), Nodiraning "Doda keldim..." (148-bet), "Vasl uyin obod qildim..." (150-151-betlar), "Kel, dahmi imtihon etib ket..." (153-bet), Fuzuliynig "So'r" (144-bet), "Mami jondan o'sondirdi..." (148-bet)² g'azallari vaznlari va taqte'lari ko'rsatib o'tilgan.

9-sinf darsligida esa Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni hazaji musammani mahzuf vazniga mansubligi³ (65-bet) haqida muxtasargina aytib o'tilgan. Bu kabi ma'lumotlar o'quvchining aruz haqida muayyan tushuncha hosil qilishi uchun yetarli emas, albatta.

Ma'lumki, taniqli olim A.Hojiahmedovning she'riy san'atlar, aruz va qofiya ilmini o'rganishga bag'ishlangan "Maktabda aruz vaznini o'rganish", "O'zbek aruz lug'ati", "Maktabda o'rganiladigan mumtoz she'riyatning vazn ko'rsatkichlari" kabi qator izlanishlari mavjud. So'nggi yillarda aruz nazariyasini o'rgatish masalalari adabiyotshunoslikda L.Sharipova, adabiyot o'qitish metodikasi sohasida esa V.Qodirovlar tomonidan tadqiq etilayotgani kuzatilmoqda.

Metodist V.Qodirov to'g'ri ta'kidlaganidek, maktabda aruz haqidagi tushunchalar tadrijiylik tamoyili asosida rejalashtirilishi zarur. Muammo yuzasidan tajribalari bilan o'rtoqlashar ekan, olim maktabda aruz nazariyasini o'rganish tartibini quyidagicha belgilash maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi: 1) barmoq vazni to'g'risida tushuncha; 2) hijo va uning sifatlari; 3) ruknni hosil qiluvchi unsurlar; 4) rukn, uning tuzilishi va turlari; 5) bahrlarning hosil bo'lishi; 6) vasl hodisasi; 7) vazn talabiga ko'ra so'zlarni qo'llashdagi istisnolar haqida ma'lumot berish; 8) zihoflar⁴.

¹ Olim S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. 8-sinf uchun darslik-majmua. I qism. -Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi NMIU", 2014.

² Olim S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. 8-sinf uchun darslik-majmua II qism. -Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi NMIU", 2014.

³ Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarning 9-sinfi uchun darslik I qism. -Toshkent "Yangiyo'l poligraf servis", 2014. - 65-b.

⁴ Қодиоров В. Аруз вазнини ўқитиш тажрибасидан. // "Тил ва адабиёт та'лими" -Тошкент. 2013. №1 - Б 30-6.

O'quvchilarda aruz ilmi yuzasidan yetarlicha bilim va tushuncha hosil qilish maqsadida yuqoridagi kabi manbalardan, xususan, A.Hojiahmedovning "Maktabda aruz vaznini o'rganish" risolasidan foydalanilib, g'azallarni ritmik bo'laklarga ajratish, bahr hamda vaznlarini aniqlash, chizmalarini belgilash qoidalari haqida amaliy saboqlar tashkil etish mumkin. Xususan, 8-sinfda Alisher Navoiyning "Kelmadi" g'azalini ifodali o'qishga o'rgatish jarayonida uning ikki o'lchovda yozilganligi ta'kidlanib, bahri va vaznini aniqlashga kirishiladi.

O'quvchilarga dastlab g'azalning asosiy vazni ramali musammani mahzuf ekanligi, ruknlari tarkibi "foilotun foilotun foilotun foilon", taqte'si: – v – – / – v – – / – v – – / – v – tarzida bo'lishi mufassal tushuntiriladi. So'ngra ikkinchi vaznning asosiy o'lchovdan farqlanishi sabablari oydinlashtiriladi. Chunonchi, "g'azalning uchinchi misrasi oxiridagi "intizor", 5-misrasi oxiridagi "ehtiyot", 7-misrasi oxiridagi "devonavor" so'zlari o'ta cho'ziq hijo bilan tugallangan. Shunga ko'ra mazkur misralarning oxirgi ruknlari foilotunning mahzuf tarmog'i – foilunga emas, balki maqsur tarmog'i – foilonga teng keladi. Demak, vazn nomi ham o'zgaradi va ramali musammani maqsur deb ataladi"¹.

Adabiyot daftarlariga ikkinchi vaznning ruknlari tarkibi ("foilotun foilotun foilotun foilon") va taqte'si (– v – – / – v – – / – v – – / – v –) yozdirib qo'yiladi. Multimediya vositalari orqali aks ettiriladigan g'azal matnining har bir misrasi ushbu o'lchovlar asosida avval o'qituvchi, so'ngra o'quvchilar tomonidan ifodali o'qilib, mazmuni sharhlanadi.

Kecha kelgum – dur debon ul – sarvi gulru – kelmadi,

– v – – – v – – – v – – – v –

Ko'zlarimga – kecha tong ot – kuncha uyqu – kelmadi.²

– v – – – v – – – v – – – v –

Aruz ilmiga oid ma'lumotlar yod olish yo'li bilan mustahkamlanib boriladi. Bunday usullar orqali o'quvchilarda aruz vaznida yozilgan asarlarni qoidaga binoan ifodali o'qish ko'nikma va malakalari shakllantiriladi.

Aruz nazariyasini mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar bilimlari javoblari yoziladigan, belgilanadigan va jadvalli test topshiriqlari asosida nazorat qilinib, baholanadi.

¹ Хожиахмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Тошкент: "Шарк", 1999. – 27-б.

² Хожиахмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Тошкент: "Шарк", 1999. – 27-б.

O'quv yili davomida ham yuqoridagi kabi sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari o'tkazib borilsa, aruz vaznidagi asarlarni o'rganishda duch kelinadigan qiyinchiliklar bartaraf qilinishiga erishiladi.

Galdagi ish "G'azalxonlik bo'stoni"ni yaratish bo'lib, unga safarbar qilinadigan o'quvchilarga tasviriy san'at va mehnat ta'limi fanlaridan egallagan bilimlari asqotishi mumkin. Adabiyot xonasini she'rxonlik ko'tarinki ruhda o'tishiga moslab bezatish ishlarining o'ziyoq o'quvchilar badiiy-estetik tafakkurini yuksaltirishga xizmat qiladi.

She'riyat bog'i manzarasi yaratilishida majnuntol shoxlari, novdalari, yaproqlari, tabiiy va sun'iy gullar, yog'ochlar, rangli karton qog'ozlar, bo'yoq, plastilin, yelim va boshqa zarur aksessuarlardan foydalaniladi.

O'quvchilarning shoirlar ijodidan olgan taassurotlari yoritilgan insho, maqola, referatlaridan namunalar olinib devoriy gazeta, albom va bukletlar tayyorlanadi. Xonaning bir burchagida tashkil etiladigan ko'rgazmada shoirlar suratlari, asarlari qatori hikmatli so'zlari ham o'rin oladi.

Mushoirada "Navoiy vorislari", "Bobur vorislari", "Mashrab vorislari" guruhlarini shakllantirilib, ishtirokchilar tegishli raqamlar ostida faoliyat yuritishadi. She'riyat kechasini o'qituvchi qisqacha va mazmunli kirish nutqi bilan boshlab, o'quvchilarni mushoiraga taklif etadi.

Sayroqi qushlarning maxsus tayyorlangan yoqimli xonishlari jo'rligida mushoira boshlanadi. Shu zaylda davom etadigan she'rxonlik kechasida latif kuy va qo'shiqlar hamrohligidagi nazm javohirlari yoddan aytiladi. Odamiylik, haqiqiy va majoziy ishqdan so'zlaguvchi marg'ub satrlar ko'ngillar qatiga taxlanadi.

Mashg'ulot so'ngida "Ko'nglimdan joy olgan g'azal", "Meni hayajonga solgan qo'shiq" mavzularidan birida ijodiy insho yoki taassurot yozib kelish uy vazifasi qilib topshiriladi.

Fakultativ mashg'ulotlar – sinfdan tashqari ishlar tizimida rag'batlantiruvchi shakllardan hisoblanadi. Bu turdagi mashg'ulotlar adabiy ta'lim mazmunini to'ldirib, boyitadi hamda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalaydi. Shuningdek, adabiy jarayon, adiblar ijodining o'ziga xosliklari, nazariy tushunchalar, adabiy-badiiy hodisalar yuzasidan bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

Asarlari o'rganilmagan yozuvchi ijodiga o'quvchilarni qiziqtirishda fakultativ mashg'ulotlarning o'zigina yetarli emas. Binobarin, bu borada bir qator samarali ta'sir kuchiga ega bo'lgan pedagogik vositalardan ham foydalanish lozim.

Ma'lumki, so'nggi paytlarda boshqa sohalar kabi ta'lim tizimida ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash keng ommalashmoqda. Fikrimizga misol tariqasida Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 250-maktabning ona tili va adabiyot o'qituvchisi B.Toshtemirovaning ijodkorlar T.Adashboyev, U.Abduazimovalar bilan tele-muloqot o'rnatishda "Veb kamera" usulidan foydalangani¹ yoki Respublika bolalar kutubxonasida taniqli adib X.To'xtaboyev bilan Forum. kitob. uz. saytida yosh kitobxonlar bilan uyushtirilgan On-line muloqotni keltirish mumkin².

"Veb kamera" – o'quvchilarni badiiy asarlar mutolaasiga qiziqish uyg'otishning ta'sirchan vositalaridan bo'lib, taniqli ijodkorlar bilan masofadan turib video muloqot o'rnatish usulidir. Uning qulayligi va afzalligi shundaki, bunda o'quvchilar o'zlari sevgan shoir yoki yozuvchilar bilan internet tarmog'ida jonli muloqot o'rnatishga muvaffaq bo'ladilar. Buning uchun Skype, Mail.ru Agent, Google Talk, ICQ kabi maxsus dasturlar bo'lishi talab etiladi.

Sinfidan tashqari mashg'ulotlarga mazkur usulni tatbiq etish kompyuter, multimedia vositalari bilan bir qatorda internetga tezkor ulanish qurilmasi USB modem va veb kamera kabi qo'shimcha uskunalardan ham foydalanish zaruriyatini taqozo etadi.

Taniqli adiblar bilan noan'anaviy shaklda uchrashuvlar tashkil etish uchun foydalanuvchilar global tarmoqqa ulangan hamda ularning kompyuterida veb-kamera qurilmasi o'rnatilgan bo'lishi shart. Muloqot chog'ida tomonlar ekranda bir-birlarining harakatli tasvirlarini ko'rib, ovozlarini eshitish imkoniga ega bo'ladilar. Videoaloqa kompyuter vositasiga ulangan "Veb kamera" deb ataluvchi maxsus qurilma yordamida amalga oshiriladi.

Video muloqot o'tkazilishi rejalashtirilgan xonaga ikkita kompyuter o'rnatish zarur bo'lib, ulardan biri USB oraqli internetga ulanish, ikkinchisi esa multimedia vositalaridan foydalanish uchun tayyorlab qo'yiladi. Veb kamera va monitor o'quvchilar ko'rib turishi uchun qulay joyga qo'yiladi.

Uchrashuv kuni, vaqti ijodkor bilan o'qituvchining ma'lum shaklda (elektron pochta, uyali telefon aloqasi yoki individual tarzda)gi suhbatidan so'ng aniqlanadi va ma'lum tayyorgarlik ishlari olib boriladi.

¹ Рустамов С. Инновацион технологиялар уйғунлиги. // "Ma'rifat". – Toshkent. 2011. 13-aprel. – B. 3.

² Ўркахўжеева Ш., Абдусаматова Н., Жалолов Х. Интернет оркали болалар адиби билан суҳбат. // "Tarbiya" – Toshkent. 2012. № 3. – B. 15-17.

Zamonaviy texnik vositalar yordamida uyushtiriladigan video muloqot jarayoni uchun dastlab maqsad va vazifalar belgilanib, soʻngra uni amalga oshirishning texnologik xaritasi, kutiladigan natijalar va istiqboldagi rejalar loyihalashtiriladi.

Albatta, mashgʻulotni qanday shaklda tashkil etish oʻqituvchining bilim saviyasi, ijodiy salohiyati, ilgʻor pedagogik va AKT vositalarini oʻzlashtirilganlik darajasiga bogʻliq. Quyida internet tarmogʻida amalga oshirilishi rejalashtirilgan jonli efrimning mazmuni haqida soʻz yuritiladi:

Mashgʻulotning borishi:

I. Tashkiliy qism. Taklif etilgan mehmonlar va oʻquvchilar uchun adabiyot xonasida joy hozirlanadi. Tomonlarning ekran orqali bir-birlari bilan salomlashishi tashkil etiladi. Oʻqituvchining mashgʻulot maqsadi va vazifalari haqidagi fikri tinglanadi. Belgilangan vaqt oraligʻida muayyan oʻquvchining ijodkorni sinf hayoti bilan tanishtirishi kuzatiladi.

II. Kirish qismi. "Power Point" dasturida tayyorlangan prezentatsiyada ijodkorning izlanishlari, uslubi va mahorati asarlari misolida matn, tasvir (foto, manzara, jadval, diagrama kabi grafik organayzerlar), animatsiyalar shaklida slaydlarda oʻz ifodasini topadi.

III. Asosiy qism. Mashgʻulotning kulminatsion nuqtasi hisoblanadigan bu jarayonda oʻquvchilar dastlab adibdan oʻzlarini qiziqtirgan savollarga javob olish imkoniyatiga ega boʻladilar. Jumladan, N.Norqobilov bilan uyushtirilishi mumkin boʻlgan mashgʻulot uchun ijodkorga quyidagicha savollar tayyorlanadi:

1. Badiiy ijod sohasiga qiziqishingiz qanday boshlangan?
2. "Chorraha" nomli ilk hikoyangiz chop etilganda koʻnglingizdan kechgan tuygʻular bilan oʻrtoqlashsangiz.
3. Hayvonlar hayoti haqida asarlar yozishga qanday omillar turtki boʻlgan?
4. Asarlaringizda tasvirlangan Ismsizdara, Toshliburun, Egarliqoya kabi koʻplab joylar haqiqatan ham bormi yoki ularni oʻzingiz oʻylab topganmisiz?
5. Hayvonot dunyosi aks ettirilgan qaysi asarlaringiz asosida film suratga olinishini istar edingiz?
6. Sir boʻlmasa, ayni damlarda bolalarga bagʻishlab qanday asarlar yozayapsiz?
7. Bugungi yoshlarning kitobxonlik darajasi haqida nimalar deya olasiz?

Oʻz navbatida ijodkorga ham savollar bilan murojaat qilish, oʻquvchilar bilimi va dunyoqarashini baholashiga vaqt ajratiladi.

IV. Yakuniy qism. Tilaklar, taassurotlardan soʻng tomonlarning bir-birlariga minnatdorchilik izhor etishlari, mavzuga xulosa qilish va mashgʻulotga yakun yasashlari rejalashtiriladi.

Adabiy kechalar sinfdan tashqari ishlar tizimida alohida oʻrin tutuvchi va oʻquvchilar tarbiyasiga amaliy taʼsir oʻtkazuvchi vositalardan hisoblanadi. Ularga tayyorgarlik jarayonida oʻquvchilar yozuvchilar haqida qiziqarli maʼlumotlar oladi, mavzuga aloqador asarlarni oʻqiydi, oʻz dunyoqarashlarini kengaytiradi.

Kechaga tayyorlarlik chogʻida:

1) oʻqituvchilar, oʻquvchilar, kutubxonachi, toʻgarak rahbaridan iborat tashkiliy qoʻmita tuziladi;

2) reja va dastur ishlab chiqiladi;

3) kecha oʻtkazilishi haqida eʼlon yoziladi;

4) oʻqish uchun tavsiya etiladigan asarlar roʻyxati ilova qilinadi.

Dasturni tayyorlashda quyidagilarga eʼtibor beriladi:

Kechani olib boruvchilar, soʻzga chiquvchilarni aniqlash; maʼruza-chilarni tayinlash; xor, qoʻshiqchi, jamoa oʻqishi ishtirokchilarini belgilash; viktorina, oʻyinlar tayyorlash va sovrinlar hozirlash; zalni bezovchi, chiroq va ovoz mutaxassislarini tayinlash.

Maʼruza – adabiy kecha asosi, lekin uni oʻqish emas, balki jonli tarzda soʻzlab berish zarur. U “bilimni soʻz bilan ifodalash usullaridan biri sifatida beriladigan bilimlarni ogʻzaki bayon qilishni koʻzda tutib, hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, obrazli isbotlash, tasniflash, taʼriflar berish, tizimga keltirish, umumlashtirishning murakkabligi bilan hikoyadan ajralib turadi”¹.

Albatta, monologik bayon jarayoniga qisqacha insseniroyka, qoʻshiq, sheʼr, musiqali asarlar, yozuvchi yoki shoirning soʻzlari ilova qilinishi, boʻlimlar orasidagi tanaffusda adabiy oʻyinlar, rebus, viktorinalar oʻtkazilishi mumkin.

Adabiy kechalarni nafaqat yozuvchi, shoirlar ijodiga, balki bayramlar yoki mavsumiy marosimlarga ham bagʻishlab oʻtkazish ham mumkin. Tayyorgarlik chogʻida, albatta, zarur adabiyotlar tanlanadi, kitoblar bilan individual va jamoa tarzida ishlanadi.

Oʻquvchilarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish, ajdodlar boy maʼnaviy merosidan gʻururlanish tuygʻularini kamol toptirishda Navroʻz ayyomiga bagʻishlab oʻtkaziladigan tadbirlar alohida oʻrin tutadi.

¹ Зиёмухаммадов Б. Компилировка элтувчи китоб. – Тошкент: “TURON-IQBOL”, 2006. – 293-6

Qadriyat – bamisoli millatning o‘z qiyofasini aks ettiruvchi ko‘zgu. Shu bois biror xalq to‘g‘risida muayyan tasavvurga ega bo‘lish uchun o‘sha elatning an‘ana va udumlariga nazar tashlash kifoya.

Xalqimizning azaliy bayram va an‘analari kishilarning o‘zaro munosabatlaridagi olijanob fazilatlarini, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi. Ana shunday barhayot bayramlardan biri Navro‘zdir. Zero, Yurtboshimiz Islom Karimov ta‘kidlaganidek, “Navro‘z bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, ko‘p ming yillik milliy qiyofamiz, olijanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi bo‘lib kelmoqda”¹.

Maktab bog‘i oldindan bayram o‘tkazishga moslab bezatiladi. Kecha ijodkorlari bahoriy kiyinadilar. Dastur namoyishi uchun kompyuter, multimediya vositalari, DVD, tanlangan kuy-qo‘shiqlar, filmlar yozilgan disklar, musiqa asboblari va boshqa zarur anjomlar shay qilib qo‘yiladi. Sahnaning qulay joyiga o‘rnatilgan monitorda boshlovchi nutqiga uyg‘unlikda tayyorlangan slaydlar, videoroliklar kema-ket berib boriladi.

Tantana debochasi karnay-surnay, nog‘oralarning sho‘x sadolari jo‘rligida boshlanadi. Bog‘ to‘rida sahna vazifasini o‘tovchi maydondagi parda ochilib, ko‘klam shukuhi ufurib turgan dekoratsiya paydo bo‘ladi.

Sahnaning ikki tomonidan yog‘och ot minib chiqib kelgan Jar-chilarning barchani Navro‘z shodiyonasiga chorlovidan so‘ng ularning o‘rmini boshlovchi yigit va qiz egallashadi va dastur namoyish etiladi.

Xulosa qilganda, yuqoridagi kabi usullarda tashkil etiladigan tadbirlar:

- o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, kitob o‘qishga yangicha munosabatni shakllantirish, yuksak insoniy tuyg‘ular va axloqiy fazilatlarini kamol toptirishda muhim o‘rin tutadi.

- aruz vaznida yaratilgan asarlarni bosqichma-bosqich o‘rganish o‘quvchilarda mumtoz adabiyotga xos janrlar va she‘riy tizimlar bilan tanishish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlash imkonini yuzaga keltiradi.

- masofadan turib ijod ahli bilan muloqot o‘rnatish nafaqat yozuvchi shaxsi va intellektual salohiyatiga qiziqish uyg‘otadi, balki qalblarni va manzillarni ham yaqinlash‘irishga yordam beradi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2008. – 35-b.

XULOSA

Har qanday mamlakatning jahon hamjamiyatida tutgan oʻrni, eʼtibori va istiqboli xalqining tafakkur tarzi, dunyoqarashi, aqliy salohiyatiga har jihatdan bogʻliq. Axborot-kommunikatsiya asrida, inson huquqlari va erkinligini himoya qiladigan demokratik, huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyati barpo qilayotgan hozirgi davrda intellektual salohiyatga boʻlgan talab yanada oshdi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov taʼkidlab koʻrsatganidek, “Oʻzining tarixiy, madaniy va intellektual merosini asrab-avaylashga, boyitish va koʻpaytirishga, shuningdek, unib-oʻsib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga yetarlicha eʼtibor qaratmaydigan, har tomonlama uygʻun rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, oʻz qarash va yondashuviga, grajdanlik pozitsiyasiga ega boʻlgan shaxsni kamol toptirishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻymaydigan har qanday davlat va jamiyat tarix va taraqqiyot yoʻlidan chetda qolib ketishga mahkum ekanini biz yaxshi tasavvur qilib kelganimiz va yaxshi tasavvur etamiz”¹.

“Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida amalga oshirilayotgan islohotlarda ayni shu masala ijrosi koʻzda tutilishi bejiz emas. Zero, taʼlim texnologiyalarini takomillash-tirish jamiyatning umumiy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy-madaniy rivojlanishida poydevor vazifasini oʻtaydi. Shunday ekan, adabiy taʼlim jarayonida oʻquvchilarning mustaqil mutolaaa madaniyatini tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish, uning yoshlarda komillik sifatlarini tarkib toptirishdagi oʻrni va rolini, xususan, badiiy-estetik tafakkuri rivojiga doir texnologiyalarni tadqiq qilish intellektual salohiyat tarbiyasi bilan bogʻliq gʻoyat muhim muammo sanaladi.

Mazkur muammo yuzasidan monografiyada dars va sinfdan tashqari oʻqish oʻrtasidagi integratsiyani toʻgʻri yoʻlga qoʻyish, oʻrganilgan yangi mavzu va mustaqil ishlarning mazmunini takomillashtirish, badiiy asar matni ustida individual va jamoa boʻlib ishlashga yoʻnaltiruvchi texnologiyalarni samarali qoʻllashga doir qarashlar ilgari surildi.

¹ Oʻrta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati. Xalqaro konferensiya materiallari. –Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2014 – 24-25-b.

Mustaqil o'qib-o'rganishsiz adabiy ta'limda muhim natijaga erishish mumkin emas. Maktab paytida mutolaa ko'nikmasi shakllantirilmas ekan, o'quvchida kitob o'qishga bo'lgan qiziqish asta-sekinlik bilan yo'qolib, keyinchalik butunlay so'nadi.

O'qish malakasiga ega bo'lmas ekan, o'quvchi kundalik adabiy jarayon izidan yetib olishga, gazeta va jurnallarni muntazam mutolaa qilishga ulgurmay qoladi. Ayonki, o'quv dasturlari mumtoz namunalardan tashkil topgan. Zero, adabiyot – tirik, doimo rivojlanib boruvchi jarayondir. O'quvchining bu jarayon bilan qiziqmay qo'yishi uni dolzarb yangiliklardan, muhim axborotlardan mahrum qilib qo'yadi.

Bugun maktablarda adabiyotdan mustaqil o'qishni tashkil etishda qoloqlik mavjudligi yaxshi ma'lum. Jumladan, kutubxonalarda zarur adabiyotlar yetishmasligi, aksariyat o'qituvchi va kutubxona xodimlarining kitob targ'ibotidagi malakasizliklari o'quvchilarni mutolaaga qiziqitira olmaslik kabi talay nuqsonlarni keltirib chiqarmoqda. Bino-barin, ularning bari o'quv-tarbiya tizimida metodik jihatdan kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganini ko'rsatib turibdi. Umuman, ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishishda vazifalar belgilanib, islohotlar amalga oshirilmas ekan, mustaqil o'qishni tashkil etish masalasi ham takomillikka muhtoj bo'lib qolaveradi.

Tadqiqotlarimiz davomida o'qituvchilar, kutubxona xodimlari va o'quvchilar faoliyati, ular orasidagi integratsiya o'rganildi. Tahlil natijalari asosida quyidagicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- mustaqil o'qishni tashkil etishda maqsad va vazifalarni aniq belgilash, ta'lim texnologiyalarini to'g'ri tanlash, qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish mavjud muammolarni hal qilish imkonini beradi.

- barcha sinflar uchun DTS talablariga mos, uzviylik, izchillik va ilmiylik tamoyillari asosida dastur, reja va majmualarni tayyorlash o'quvchi kitobxonlik darajasini oshiradi hamda bilish jarayonlari rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- mustaqil o'qish majmualarining elektron versiyasini yaratish maqsadga muvofiq. Majmua o'quvchilarning kitob bilan ishlash ko'nikma va malakalarini oshiradi, tasavvurlarini o'stiradi, dunyoqarashini boyitadi.

- kitob targ'ibotiga bag'ishlangan yangi loyihalar yaratish mutolaaga ijobiy munosabatni qaror toptiradi.

- teleko'rsatuv va radioeshittirishlar oralig'ida, "ZiyoNet" ta'lim portaliga ulangan maktab sayti yoki radiouzeli, ko'chalar va

metropolitan bekatlaridagi monitorlarda muntazam ravishda noan'ana-
viy reklama roliklarini namoyish etish orqali kitob taqdimotlarining
o'tkazib borilishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet
materiallariga nisbatan ijodiy yondashishni o'rgatadi.

– tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatini har bir bolaning yosh va
individual xususiyati, qiziqishlari, asar janri va tarbiyaviy ahamiyatini
hisobga olib sinf xonalari, maktab foyelari hamda kutubxonaga maxsus
joylashtirish, ularni o'z vaqtida yangilab, kengaytirib borishga erishish
mutolaaga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

– mustaqil o'qish mazmunini o'zbek, qardosh va jahon
adabiyotining sara namunalari bilan boyitish asosida o'quvchilar davr
talabiga javob bera oladigan barkamol kitobxon darajasiga yetkaziladi.

– ilk maktab chog'idan mutolaa natijasida olingan ma'lumot,
xulosa va taassurotlarni majburiy tarzda qayd ettirishga odatlantirish,
yosh xususiyatidan kelib chiqib, keyinchalik bu jarayonni ko'nikmaga
aylantirish o'z navbatida boshqa asarlarning o'qilishiga rag'bat
uyg'otadi, bir mutolaa ikkinchisiga sabab bo'ladi.

– “Asar bilan hamnafas kitobxon”, “Mutolaasiz kun o'tmasligi
kerak”, “Eng faol kitobxon o'quvchi” mavzularida kitob bayramlari va
haftaliklar tashkil etish o'quvchilarning badiiyat olami sir-sinoatlari
o'zlashtirishlarini ta'minlaydi.

– “Kitobsevarlar sinfi”, “Mutolaaga qiziquvchan oila”,
“Tashabbuskor mahalla” shaklida kitob marafonlarini amalga oshirish
kutubxona fondini boyitadi, oila va jamoatchilik hamkorligini mus-
tahkamlaydi.

– belgilangan muddatda kutubxona va kitob do'konlariga
sayohatlar uyushtirish tadbirlari vositasida yangi yoki tarixiy
kitoblarning tug'ilgan kunlarini nishonlash yo'lga qo'yiladi.

– turli bayram, tug'ilgan kunlarda bolalarga ota-onalari, do'stlari
yoki yaqin insonlari tomonidan kitob sovg'a qilishni odat tusiga kiritish
va bu tadbirni ommalashtirish orqali har bir bolada shaxsiy kutubxona
yaratishga qiziqish uyg'otiladi.

– maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab maxsus kurslar
tashkil etilishi orqali o'quvchilar mutolaa san'atini egallashga
o'rgatiladi.

O'tkazilgan tajribalar natijasida ba'zi xulosalarga keldikki,
ishimizda yoritilgan tavsiyalar mustaqil o'qishni mukammalashtirish
uchun ma'lum imkoniyatlarni ochib beradi, mutolaaning barcha turlarini
birgalikda amalga oshirishga yordamlashadi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008, 176 b.
2. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati. Xalqaro konferensiya materiallari. –Toshkent: “O'zbekiston”, 2014, 88 b.
3. Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида. –Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1987, 368 б.
4. Абдурауф Фитрат. Чин севиш. –Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1996, 256 б.
5. Абдурахмонова У. Бутун борлиқ ижодхона. // “Til va adabiyot ta'limi”. –Тошкент: 2014. № 10. – Б. 47.
6. Алламуратов Ш.И., Цой А.В. Мақолаларни қандай ёзиш керак. // “Maktab va hayot. –Тошкент: 2011, № 1. – Б. 27.
7. Алишер Навоий. Хамса. Қискартириб нашрга тайёрловчи А.Ҳожиаҳмедов. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2013, 428 б.
8. Асадов Й.М. Таълимда компетенциявий ёндашув. // “Maktab va hayot”. – Тошкент: 2014. № 1. – Б. 8.
9. Асқад Мухтор. Ўл-юрт керак экан одамга. –Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи”, 2011, 208 б.
10. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. –Toshkent: “Sharq”, 2011, 176 b.
11. Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism. –Toshkent: “Sharq”, 2015, 176 b.
12. Boborahim Mashrab. Dilim daryoi nurdur. –Toshkent: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2004, 232 b.
13. Борлигим, келажагим, тақдиримни баҳам кўрдим. Нашрга тайёрловчи Нодира Саид Аҳмад кизи. // “Saodat”. –Тошкент: 2011. № 5-6. – Б. 14-17.
14. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. – Toshkent: “Sharq”, 2010, 528 b.
15. Богданова О.Ю., Леонов С.А., Чертов В.Ф. Методика преподавания литературы. Учебник для студентов пед. вузов. Под редакцией О.Ю.Богдановой. 3-е издание, стереотипное. – Москва: Издательский центр “Академия”, 2004. ст. – 400.

16. Бурхонова Ф. Модерн ҳикояларда шакл ва услуб. Тіл. Ҷебист. Методика. Қазіргі қазак тілі мен әдебиетінің теориялық және әдістемелік мәселелері. –Тошкент: “MERIYUS”, 2013. – 158 б.

17. Василий Ян. Құрғон узра гулханлар: (роман) Рус тилидан О.Худойбердиева таржимаси. –Тошкент: “O‘zbekiston”, 2011. – 264 б.

18. Гадоева Д. Дарахт билан боғлиқ тотемистик қарашлар. // “Ўзбек тили ва адабиёти”. –Тошкент: 2012. № 2. – Б. 39.

19. Ёқубов И. Умуммиллий дардлар залвори. // “Ёшлиқ”. – Тошкент: 2015. № 1. – Б. 62.

20. Ёқубов О. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. Улуғбек хазиnasi. –Тошкент: “Шарқ”, 2007, 352 б.

21. Зиёмухаммадов Б. Комилликка элтувчи китоб. –Тошкент: “TURON-IQBOL”, 2008, 352 б.

22. Зоҳир Аълам. Афандининг қирқ бир пашшаси. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2014, 192 б.

23. Зуннунов А., Ҳотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1992, 332 б.

24. Иброҳим Ҳаққул. Тақдир ва тафаккур. Эсселар ва адабий-танқидий мақолалар. –Тошкент: “Шарқ”, 2007, 336 б.

25. Иброҳим Ҳаққул. Навоийни мафтун айлаган китоб. (Сўз-боши). Шайх Фаридуддин Аттор. Мантйқ ут-тайр. (Қуш тили). Форсийдан Жамол Камол таржимаси. –Тошкент: “Фан”, 2006, 399 б.

26. Икром Отамурод. Ўрин. // “Шарқ юлдузи”. –Тошкент: 2013. № 3. – Б. 26-33.

27. Имомова Г. Бадий синтез имкониятлари. // “Ўзбек тили ва адабиёти”. –Тошкент: 2012. № 1. – Б. 66-68.

28. Исмоилова З.К. Педагогик технологиялар ҳақида замонавий қарашлар. // “Kasb-hunar ta’limi”. –Тошкент: 2012. № 6. – Б. 11.

29. Ишмухамедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. –Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2007, 44-б.

30. XX аср ўзбек шеърйати антологияси. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007, 496 б.

31. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Замонавий педагогик технологияларни амалиётта жорий қилиш. –Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2008, 132 б.

32. Yoʻldoshev S., Qodirov M., Usmonov M. Ajdodlarimiz merosi – mafkuramiz gavhari. –Toshkent: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”, 2001, 160 b.

33. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий назарий асослари. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996, 152 б.

34. Йўлдошев Қ. Янги авлод овози. // “Шарқ юлдузи”. – Тошкент: 2013. № 6. – 105-б.

35. Yoʻldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yoʻldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. –Toshkent: “Sharq”, 2009, 368 b.

36. Yoʻldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V. Adabiyot. Umumtaʼlim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. –Toshkent: “Sharq”, 2009, 368 b.

37. Yoʻldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yoʻldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. –Toshkent: “Sharq”, 2013, 368 b.

38. Yoʻldoshev Q., Qodirov V., Yoʻldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. I qism. – Toshkent: “Yangiyoʻl poligraf servis”, 2014, 200 b.

39. Yoʻldoshev Q., Qodirov V., Yoʻldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. II qism. – Toshkent: “Yangiyoʻl poligraf servis”, 2014, 200 b.

40. Кайковус. Қобуснома. –Тошкент: “Оʻqituvchi”, 2008, 208 б.

41. Каримов Н. Абдулла Қодирий – таржимон. // “Jahon adabiyoti”. – Тошкент: 2014. № 4. – Б. 90-91.

42. Karimov N. Hamid Olimjon. –Тошкент: “Sharq”, 2013, 304 б.

43. Каримов О. Метафора – поэтик тафаккур асоси. // “Jahon adabiyoti”. –Тошкент: 2014. № 8. – Б. 188.

44. Каримов Ш. Шиллер ва унинг эпистоляр мероси. // “Jahon adabiyoti”. –Тошкент: 2014. № 11. – Б. 141.

45. Кудашева З.К., Магдиева С.С. Методика преподавания литературы. Учебное пособие для учителей и студентов педагогических университетов и институтов. –Ташкент: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. ст. – 236.

46. Madayev O., Sobitova T. Xalq ogʻzaki poetik ijodi. –Toshkent: “Sharq”, 2010, 208 b.

47. Матёкубов С. Назар Эшонкул хикояларида ижодий индивидуаллик. // “Ўзбек тили ва адабиёти”. –Тошкент: 2011. № 5. – 46 б.

48. Матчанов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. докт. дисс... –Тошкент: 1998, 308 б.
49. Мирпўлат Мирзо. Сайланма. Шеърлар. –Тошкент: “Шарқ”, 2004, 256 б.
50. Мирқосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. докт. дисс... –Тошкент: 1993, 364 б.
51. Муслимов Н.А., Абдуллаева Қ.М., Гаипов Н.С. Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. –Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013, 88 б.
52. Муҳаммад Али. Амир Темур чамани. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2009, 216 б.
53. Муҳаммад Али. Ўз-ўзингни англаб ет. –Тошкент: “Sharq”, 2012, 432 б.
54. Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. Биринчи китоб. – Тошкент: “Шарқ”, 2003, 336 б.
55. Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. Иккинчи китоб. – Тошкент: “Шарқ”, 2006, 336 б.
56. Муҳаммад Раҳмон. Йўл кўраётган одам: Сайланма. Шеърлар, дoston. –Тошкент: “Sharq”, 2010, 272 б.
57. Навоий асарлари учун қисқача луғат. Тузувчи Б.Ҳасанов. –Тошкент: “Фан”, 1993, 376 б.
58. Назар Эшонқул. Мендан “мен” гача: адабий-танкидий мақолалар тўплами. –Тошкент: “Akademnashr”, 2014, 512 б.
59. Назар Эшонқул. Ялпиз ҳиди. Қиссалар ва ҳикоялар. – Тошкент: “Шарқ”, 2008, 400 б.
60. Ниёзметова Р.Ҳ. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари (рус гуруҳлари мисолида). – Тошкент: Пед. фан. докт. дисс... –Т.: 2007, 242 б.
61. Ниёзметова Р.Ҳ. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. –Тошкент: “Фан”, 2007, 216 б.
62. Ёқубов О. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. Улуғбек хазинаси. – Тошкент: “Шарқ”, 2007, 352 б.
63. Olim S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. I qism. – Toshkent: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2014, 192 b.
64. Olim S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. II qism. –

- Toshkent: “Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2014, 192 b.
65. Омон Мухтор. Навоий ва рассом Абулхайр. – Тошкент: “Шарқ”, 2006, 224 б.
66. Очилов Э. Ҳикмат маърифати. (Сўзбоши). Фаридуддин Аттор. Ҳикматлар ва ҳикоятлар. (Форсийдан Жамол Камол таржимаси). – Тошкент: Мухаррир, 2010, 412 б.
67. Пауло Козло. Алкимёгар. Таржимон Азиз Саид. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2013, 184 б.
68. Рауф Парфи. Туркистон руҳи. Сайланма. – Тошкент: “Sharq”, 2013, 320 б.
69. Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. – Тошкент: “O‘qituvchi”, 2008, 256 б.
70. Ризаев Ш. Бадий тафаккур намуналари. // “Til va adabiyot ta’limi”. – Тошкент: 2011. № 2. – Б. 45.
71. Рустамов С. Инновацион технологиялар уйғунлиги. // “Ma’rifat”. – Тошкент: 2011. 13 апрель. – Б. 1-, 3.
72. Сафаров О. Фитратнинг бир очиқ хати ҳақида. // “Ўзбек тили ва адабиёти”. – Тошкент: 2012. № 6. – Б. 35.
73. Сафо Матжон. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996, 208 б.
74. Синьити Юки. Хазон коплаган боғ. Рус тилидан О.Отахон таржимаси. // “Jahon adabiyoti”. – Тошкент: 2014. № 10. – Б. 143.
75. Султонов Х. Бобурнинг тушлари: Қиссалар. Ҳикоялар. Эсселар. – Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1993, Б. 272.
76. Тоғай Мурод. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2008, 448 б.
77. Турдиев Н. Таянч компетенцияларни шакллантириш. // “Umumta’lim fanlari metodikasi”. – Тошкент: 2014-yil. № 3. – Б. 2-3.
78. Турдимов Ш. Исмдаги сир. // “Шарқ юлдузи”. – Тошкент: 2013. № 3. – Б. 96.
79. Турсунова Р. 9-апрель – Амир Темур таваллуд топган кун. // “Jahon adabiyoti”. – Тошкент: 2014. № 4. – Б. 202.
80. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2006, 152 б.
81. Улугбек Ҳамдам. Наъматак. // “Шарқ юлдузи”. – Тошкент: 2013. № 3. – Б. 91-96.

82. Умаров С.Б. Таълим технологияларининг назарий асослари. // “Maktab va hayot”. –Тошкент: 2012. № 2. – Б. 4.
83. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Тошкент: “Шарқ”, 2002, 256 б.
84. Усмон Азим. Соғинч. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007, 199 б.
85. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o’quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O’zbek tili (5-9-sinflar). – Toshkent: “Yangiyo’l poligraph service”, 2010, 196 b.
86. Uzviylashtirilgan davlat ta’lim standarti va o’quv dasturi. Ona tili. O’qish. Matematika. Atrofimizdagi olam. Tabiatshunoslik. (1-4-sinflar). – Toshkent: “Yangiyo’l poligraph service”, 2010, 144 b.
87. Фаридуддин Аттор. Ҳикматлар ва ҳикоятлар. –Тошкент: “Мухаррир”, 2010, 412 б.
88. Эркахўжаев Ш., Абдусаматова Н., Жалолов Ҳ. Интернет орқали болалар адиби билан суҳбат. // “Tarbiya”. – Тошкент: 2012. № 3. – Б. 15-17.
89. Юлдошева Н. Педагогик технология, метод ва усул. // “Kasbiy fanlar metodikasi”. –Тошкент: 2013. № 3. – Б. 15.
90. Ўзбек адабий танқиди. – Тошкент: “TURON-IQBOL”, 2011, 544 б.
91. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдди. 5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003, 704 б.
92. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006, 672 б.
93. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007, 688 б.
94. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007, 608 б.
95. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: “Шарқ”, 2008, 368 б.
96. Хуршид Дўстмуҳаммад. Қиссалар. – Тошкент.: “Sharq”, 2011, 512 б.
97. Хуршид Дўстмуҳаммад. Беозор қушнинг қарғиши. – Тошкент: “Шарқ”, 2006, 512 б.

98. Шайх Фаридулдин Аттор. Мантикут тайр (Қуш тили). – Тошкент: “Фан”, 2009, 400 б.
99. Шермухамедов П. Яхшилар баҳори ёхуд Махмуд Замахшарий даҳоси. – Тошкент: “Noshir”, 2010, 280 б.
100. Кодиров В. Аруз вазнини ўқитиш тажрибасидан. // “Til va adabiyot ta’limi”. – Тошкент: 2013. № 1. – Б. 30-31.
101. Qodirov P. Shohruh va Gavharshod: “Ona lochin vidosi” romanining to’ldirilgan yangi nashri “Tog’larga tarmashgan”: tarixiy roman. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2009, 256 b.
102. Қозоқбой Йўлдош. Буюк қушнинг парвози. – Тошкент: // “Ёшлик”. 2013. № 9. – Б. 36.
103. Qosimova K. va boshq. Ona tili o’qitish metodikasi. – Toshkent: “Noshir”, 2009, 352 b.
104. Қосимов А. Яна “Кичкина шахзода” ҳақида. // “Til va adabiyot ta’limi”. 2003. № 6. – Б. 79.
105. Қулбек Эргўбек. Ёзувчи ижодхонаси. – Туркистон: Аҳмад Яссавий номидаги Халқаро қозоқ-турк университетининг “Турон” басмахонаси, 2007. – 472 б.
106. Қурунов Д. “АДАБИЁТ НАДИР” ёки Чўлпоннинг мангу саволи. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: “Zarqalam”, 2006, 128 б.
107. Ҳазратқулов Ж. Адибнинг мухташам “Улуғ салтанат”и. // “Шарқ юлдузи”. – Тошкент: 2013, № 2. – Б. 170.
108. Ҳамиджон Ҳомидий. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: “Шарқ”, 2009, 208 б.
109. Ҳильда Ҳукхэм. Етти иқлим султони: Хужжатли-тарихий кисса. Русчадан Ҳ.Тўрабеков ва Ш.Сокин таржимаси. – Тошкент: “Адолат”, 1999, 320 б.
110. Ҳожиахмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Тошкент: “Шарқ”, 1999, 96 б.
111. Ҳусанбоева Қ. П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. докт. дисс... – Тошкент: 2006, 262 б.
112. Ҳусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент: “Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти”, 2009, 368 б.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I bob. ADABIY TA'LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA DOIR TAHLIL USULLARI

I.1. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil	6
I.2. Badiiy asar tahliliga tayyorgarlik bosqichlari	30
I.3. Badiiy asar tahlili bilan bog'liq adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish	53

II bob. ADABIY TAHLIL METODIKASI

II.1. Adabiy ta'lim jarayonida mustaqil mutolaa usullari	83
II.2. Sinfдан tashqari o'qish mashg'ulotlarida ijodiy topshiriqlar va mustaqil ishlar	100

III bob. MUSTAQIL O'QISH: TAJRIBALAR VA XULOSALAR

III.1. To'garak mashg'ulotlarida axborot texnologiyasidan foydalanish.....	116
III.2. Navolarga yo'g'rilgan g'azalxonlik	120
Xulosa	128
Foydalanilgan adabiyotlar	131

SAODAT IRKINOVNA KAMBAROVA

MUSTAQIL MUTOLAA VA ADABIY TAHLIL

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2016

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	M.Holmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhih:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Rahmatullayeva

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.

Nashr.lits. AI №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 06.04.2016.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 8,5. Nashriyot bosma tabog'i 8,75.

Tiraji 500. Buyurtma №45.

**«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**